



# PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Exact  
Natural  
Medical  
Technical  
Economics  
Philological  
Pedagogical  
Social sciences  
and humanities





## «BEST PUBLICATION»

*Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©*

---

**“PEDAGOG”  
RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI**

---

## MATERIALLARI TO‘PLAMI

**15-SENTYABR, 2020-YIL**

**3-JILD, 3-SON**

**O‘ZBEKISTON**

**2020**

"PEDAGOG" mualliflar va o'qituvchilarga o'quv amaliyoti va boshqa sohalarda o'z ilmiy maqolalarini nashr etish imkoniyatini beradi. "PEDAGOG" jurnalni uch oyda bir marta ko'rib chiqiladigan ochiq kirish jurnalidir. Jurnal axloqiy ochiq nashr etikasi va amaliyotiga amal qiladi. Nashr qilish uchun qabul qilingan barcha maqolalar, uslubiy qo'llanmalar va metodik tavsiyalar ikki tomonlama ko'rib chiqish jarayonidan o'tadi. Jurnal konstruktivizm, hamkorlik, yaxlitlik, aks ettirish va so'rovga asoslangan o'qitish hamda o'qitishning ko'p tarmoqli sohalarini o'z ichiga qamrab oladi.

**Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g’riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

## MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

<b>Ismoilova Dildora Erkinovna</b>	
<i>TO'RT O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHGA EGA UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODELINING SPEKTI HAQIDA</i>	<b>7</b>
<b>Ismoilova Dildora Erkinovna</b>	
<i>BA'ZI XUSUSIY HOLLARDA TO'RT O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHLI UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODELINING FREDGOLM DETERMINANTI</i>	<b>10</b>
<b>Ismoilova Dildora Erkinovna</b>	
<i>TO'RT O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHGA EGA UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODELI REZOLVENTASINI QURISH</i>	<b>13</b>
<b>Ismoilova Dildora Erkinovna</b>	
<i>TO'RT O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHGA EGA UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODELINI SONLI TASVIRINING AYRIM XOSSALARI</i>	<b>16</b>
<b>Г.Н. Шокирова</b>	
<b>М. А .Абдуллаева</b>	
<i>FЎЗАДА ОҚҚАНОТГА ҚАРШИ ИНСЕКТИЦИДЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ</i>	<b>19</b>
<b>Суббекова Малика Алишеровна</b>	
<i>ОДАМ ВА УНИНГ САЛОМАТЛИГИ ФАНИДАН ОВҚАТ ХАЗМ КИЛИШ СИСТЕМАСИ МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА РАСМЛИ ЖАДВАЛ УСУЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ</i>	<b>22</b>
<b>Saminjonov Muhammadali</b>	
<i>IDIOMALAR VA IDIOMATIK IBORALAR INGLIZ TILIDA QO'LLANILISHI</i>	<b>26</b>
<b>Usmonova Fotima Akramjon qizi</b>	
<i>BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SHEVALARNI MAVZUIY GURUHLARGA AJRATISH</i>	<b>30</b>
<b>Нарзиев Наврўз Толлибоевич</b>	
<i>ACOC ВА ХОСИЛА СЕМАЛАРИ БИЛАН БИРГА ЎЗЛАШГАН СЎЗЛАР</i>	<b>33</b>
<b>Мамараимова Дилдора Бахтияровна</b>	
<i>РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ</i>	<b>36</b>
<b>Нарзиев Наврўз Толлибоевич</b>	
<i>ТИЛНИНГ ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИ ВА ТАЪСИРИ</i>	<b>38</b>
<b>Norbo`tayeva Nodira Boynazarova</b>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH</i>	<b>41</b>
<b>Shukurova Sojida Hasan qizi</b>	
<i>EGOSENTRIK NUTQ VA TAFAKKUR HAMDA UNING BOLANINING SOTSIALLASHUVIDAGI O'RNI</i>	<b>44</b>
<b>Javliyeva Klara O'rinozna</b>	
<i>MATEMATIKA FANININING BOSHQA FANLAR BOG`LANISHI (FIZIKA, KIMYO)</i>	<b>47</b>
<b>Boysunov Farhod Panji o'g'li</b>	
<i>KIMYO FANINI O'QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYA DASTURLARIDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI</i>	<b>49</b>
<b>Sobirova Sarvinoz Soyibjon qizi</b>	
<i>MAKTABGACHA TALIM MUSSASASI TARBIYALANUVCHILARINING MA'NAVIY – AHLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI</i>	<b>52</b>

<b>Botirova Gulsanam</b> <i>PEDAGOGDA NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATI</i>	<b>54</b>
<b>Ibragimova Xurshida</b> <i>4-SINF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGI VA MATN BILAN ISHLASH BILIMLARINI PIRLS DASTURI ASOSIDA BAHOLASH</i>	<b>56</b>
<b>Muxiddinova Muxlisa, Boyburiyeva Zebo</b> <b>Xalilov Sirojiddin, Saydullayev To'ra</b> <i>BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI</i>	<b>62</b>
<b>Egamberdiyeva E'zoza Yo'ldosh qizi</b> <i>ONA TURONIM-O'ZBEKİSTONIM</i>	<b>65</b>
<b>Qosimova Xolida Matmuradovna</b> <b>Dilafruz G`ofurova Zoxid qizi</b> <i>ERTA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIMI SOHASIDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLAR</i>	<b>67</b>
<b>Karimova Lobar Ergashovna</b> <i>IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS</i>	<b>70</b>
<b>Rustambekov Bekzod Bahrombek o'g'li</b> <i>JISMONIY MADANIYAT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARNI CHINIQTIRISHNING FIZIOLOGIK ASOSLARI</i>	<b>72</b>
<b>Ortiqboyeva Gulsora Xusanboyevna</b> <i>TASVIRIY SAN'ATNING TUR VA JANRLARI. TASVIRIY SAN'ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI</i>	<b>74</b>
<b>Shokirov Iqboljon Baxtiyorjon o'g'li</b> <i>MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	<b>76</b>
<b>Sunnatova Komola Sadriddin qizi</b> <i>MATEMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA MULTIMEDIA MUHITIDAN FOYDALANISHING AHAMIYATI</i>	<b>79</b>
<b>Vohidova Umidaxon Abdusalom qizi</b> <i>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDA ISHTIROK ETISHGA TAYYORLASH</i>	<b>81</b>
<b>Qurbanaliyeva Shoira Maxmanazarovna</b> <b>Sarmanova Kamola Bektosh qizi</b> <i>MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ILG`OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI</i>	<b>84</b>
<b>Axmedova Dildora Qudratullayevna</b> <i>ZAMONAVIY PEDAGOG QANDAY BO`LISHI KERAK?</i>	<b>88</b>
<b>Анорова Камола</b> <i>МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАЛАРНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУХИМ МАСАЛАЛАРИ</i>	<b>91</b>
<b>Гайпова Фатима Абдумаликовна</b> <i>ТАСВИРИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН</i>	<b>94</b>

<b>ФОЙДАЛАНИШНИНГ АСОСЛАРИ.</b>	
<b>Канатова Асель Куаткызы</b>	
<b>УПОМИНАНИЯ ДРЕВНЕГРЕЧЕСКИХ УЧЁНЫХ О МАССАГЕТАХ, КАК ДРЕВНИХ ПРЕДКОВ КАРАКАЛПАКОВ</b>	<b>97</b>
<b>Azizbek Karimov</b>	
<b>AMIR TEMURNING XORAZMGA YURISHLARI</b>	<b>100</b>
<b>Xurramova Intizor Ilhom qizi</b>	
<b>ISLOM DINI TARIXIDAN</b>	<b>103</b>
<b>Azizbek Karimov</b>	
<b>OLLOQULIXON DAVRIDA ME'MORCHILIK</b>	<b>106</b>
<b>Sultanov Shoxjaxon Rahmon o'g'li</b>	
<b>Komilxo'jayev Zoxidjon Shuxrat o'g'li</b>	
<b>YALPI ICHKI MAHSULOT VA UNI HISOBBLASH TURLARI</b>	<b>109</b>
<b>А.Р.Мирзаев</b>	
<b>ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРVARЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШДА ТЕАТРНИНГ ЎРНИ</b>	<b>111</b>
<b>Шаропова Эъзоза Туроп қизи</b>	
<b>ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИНИ ЖАМОАТЧИЛИК ЭКСПЕРТИЗАСИДАН ЎТКАЗИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ</b>	<b>113</b>
<b>Хотамов Комилжон</b>	
<b>Ялгашов Элбек</b>	
<b>АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ҲАРАЖАТЛАР ВА ДАРОМАДЛАР ҲИСОБИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ. ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ</b>	<b>118</b>
<b>Habibullayeva Halima Farxod qizi</b>	
<b>TAFSIRSHUNOSLIK VA UNING USULLARI</b>	<b>121</b>
<b>Qodirova Gulshan</b>	
<b>MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI</b>	<b>123</b>
<b>Karimov Muhammadamin</b>	
<b>KARANTIN VA UNING FOYDALARI, KARANTINNI MUSULMON QANDAY O'TKAZISHI LOZIM</b>	<b>125</b>
<b>F.A.Dosumxodjaev</b>	
<b>DEVELOPING A SENSE OF PATRIOTISM IN YOUNG PEOPLE</b>	<b>127</b>

**TO'RT O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHGA EGA UMUMLASHGAN FRIDRIXS  
MODELINING SPEKTI HAQIDA**

Ismoilova Dildora Erkinovna

*Buxoro davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumlashgan Fridrixs modelining muhim va diskret spektrlari tahlil qilinadi. Mos Fredgolm determinanti quriladi. Uning nollari to'plami yordamidan diskret spektr tavsiflangan.*

**Kalit so'zlar:** *umumlashgan Fridrixs modeli, panjara, spektr, Fredgolm determinant.*

$T^d$  orqali  $d$  o'lchamli torni,  $H_0 := C$  orqali bir o'lchamli kompleks fazoni va  $H_1 := L_2(T^d)$  orqali  $T^d$  to'plamda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda kompleks qiymat qabul qiluvchi) funksiyalarning Gilbert fazosini belgilaymiz.  $H_0$  va  $H_1$  fazolarning to'g'ri yig'indisini  $H$  orqali belgilaymiz, ya'ni  $H := H_0 \oplus H_1$ .

Mazkur ishda  $H$  Gilbert fazosidagi quyidagi ikkinchi tartibli blok operatorli matritsani qaraymiz:

$$A := \begin{pmatrix} A_{00} & \mu_0 A_{01} \\ \mu_0 A_{01}^* & A_{11} - \mu_1 V_1 - \mu_2 V_2 \end{pmatrix}.$$

Bunda matritsa elementlari

$$A_{00} f_0 = af_0, \quad A_{01} f_1 = \int_{T^d} v_0(t) f_1(t) dt,$$

$$(A_{11} f_1)(x) = u(x) f_1(x), \quad (V_1 f_1)(x) = v_1(x) \int_{T^d} v_1(t) f_1(t) dt,$$

$$(V_2 f_1)(x) = v_2(x) \int_{T^d} v_2(t) f_1(t) dt$$

tengliklar yordamida ta'sir qiladi.  $a$  - fiksirlangan haqiqiy son,  $\mu_k$  ( $k = 0, 1, 2$ )-fiksirlangan haqiqiy musbat sonlar (odatda ularga ta'sirlashish parametrlari deyiladi),  $u(\cdot), v_0(\cdot), v_1(\cdot)$  va  $v_2(\cdot)$  funksiyalar esa  $T^d$  da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzlucksiz funksiyalardir.

$A$  operator uning parametrlariga qo'yilgan yuqoridagi shartlarda  $H$  Gilbert fazosidagi chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma bo'ladi. Chekli o'lchamli qo'zg'alishlarda muhim spektrning o'zgarmasligi haqidagi G.Veyl teoremasiga ko'ra  $A$  operatorning muhim spektri uchun

$$\sigma_{ess}(A) = [m; M]$$

tenglik o'rinnlidir, bu yerda  $m$  va  $M$  sonlari

$$m := \min_{x \in T^d} u(x), \quad M := \max_{x \in T^d} u(x).$$

formula orqali aniqlangan sonlardir. Ko'rinib turibdiki,  $A$  operatorning muhim spektri  $\mu_k > 0$ ,  $k = 0, 1, 2$  ta'sirlashish parametrlaridan bog'liq emas.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\Delta_0(\mu_0, z) = a - z - \mu_0^2 \int_{T^d} \frac{v_0^2(t)dt}{u(t) - z}; \quad I_{01}(\mu_0, z) = \mu_0 \int_{T^d} \frac{v_0(t)v_1(t)dt}{u(t) - z};$$

$$I_{02}(\mu_0, z) = \mu_0 \int_{T^d} \frac{v_0(t)v_2(t)dt}{u(t) - z}; \quad I_{12}(z) = \int_{T^d} \frac{v_1(t)v_2(t)dt}{u(t) - z};$$

$$\Delta_1(\mu_1, z) = 1 - \mu_1 \int_{T^d} \frac{v_1^2(t)dt}{u(t) - z}; \quad \Delta_2(\mu_2, z) = 1 - \mu_2 \int_{T^d} \frac{v_2^2(t)dt}{u(t) - z}$$

Yuqoridagilardan foydalanib ushbu determinantini tuzib olamiz:

$$\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z) = \det \begin{pmatrix} \Delta_0(\mu_0, z) & \mu_1 I_{01}(\mu_0, z) & \mu_2 I_{02}(\mu_0, z) \\ I_{01}(\mu_0, z) & \Delta_1(\mu_1, z) & -\mu_2 I_{12}(z) \\ I_{02}(\mu_0, z) & -\mu_1 I_{12}(z) & \Delta_2(\mu_2, z) \end{pmatrix}$$

Sodda hisoblashlarga ko'ra

$$\begin{aligned} \Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z) &= \Delta_0(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_2, z) - 2\mu_1\mu_2 I_{01}(\mu_0, z)I_{02}(\mu_0, z)I_{12}(z) \\ &\quad - \mu_1 I_{01}^2(\mu_0, z)\Delta_2(\mu_2, z) - \mu_2 I_{02}^2(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z) - \mu_1\mu_2 I_{12}^2(z)\Delta_0(\mu_0, z) \end{aligned}$$

Quyidagi teorema  $A$  operator va  $\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, \cdot)$  funksiya nollari orasidagi munosabatni ifodalaydi.

**Teorema:**  $z \in C \setminus [m; M]$  soni  $A$  operatorning xos qiymati bo'lishi uchun  $\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z) = 0$  bo'lishi zarur va yetarlidir.

Bu teoremadan  $A$  operatorning diskret spektri haqidagi quyidagi tasdiqni hosil qilamiz.

**Tasdiq.**  $A$  operatorning diskret spektri uchun quyidagi tenglik o'rinnlidir

$$\sigma_{disc}(A) = \{z \in C \setminus [m; M] : \Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z) = 0\}.$$

Hosil bo'lган tasdiq diskret spektrni o'rganishda muhim hisoblanadi. Fredgolm determinantining analitik xossalari o'rganish orqali  $A$  operator xos qiymatlarining soni va joylashuv o'rni haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Ta'kidlash joizki,  $A$  operator ko'p hollarda ikki kanalli molekulyar-rezonans modeli deb ham yuritiladi. Bunday turdag'i modellarning muhim spektri, xos qiymatlari, rezolventa operatori, bo'sag'aviy xos qiymatlari, virtual sathlari, mos Fredgolm determinanti va uning analitik xossalari, sonli va kvadratik sonli tasvirlari bilan bog'liq tadqiqotlar ko'plab ishlarda olib borilgan, masalan [1,2,3] ishlarga qarang. [4] ishda esa umumlashgan Fridrixs modeli xossalari yordamida soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos blok operatorli matrisalarning muhim spektri va uning joylashuv o'rni, diskret spektrning chekli yoki cheksizligi hamda diskret spektr asimptotikasi bilan bog'liq natijalar olingan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tosheva N.A., Ismoilova D.E. Ikki kanalli molekulyar-rezonans modeli xos qiymatlarining soni va joylashuv o'rni. *Scientific progress.* 2:1 (2021), 61-69.
2. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. Eigenvalues and virtual levels of a family of 2x2 operator matrices. *Methods Func. Anal. Topology*, 25:1 (2020), 273-281.
3. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. Threshold analysis for a family of 2x2 operator matrices. *Nanosystems: Phys., Chem., Math.*, 10:6 (2019), 616-622.
4. Albeverio S., Lakaev S.N., Rasulov T.H. On the Spectrum of an Hamiltonian in Fock Space. Discrete Spectrum Asymptotics. *Journal of Statistical Physics*, 127:2 (2007), pp. 191-220.

**BA'ZI XUSUSIY HOLLARDA TO'RT O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHLI  
UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODELINING FREDGOLM DETERMINANTI**

Ismoilova Dildora Erkinovna  
*Buxoro davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ba'zi xususiy hollarda umumlashgan Fridrixs modeliga mos keluvchi Fredgolm determinantining aniq ko'rinishi topiladi. Qo'yilgan shartlar bajariladigan funksiyalarga misollar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *xususiy hol, umumlashgan Fridrixs modeli, qo'zg'alish, panjara.*

$T^d$  orqali  $d$  o'lchamli torni,  $H_0 := C$  orqali bir o'lchamli kompleks fazoni va  $H_1 := L_2(T^d)$  orqali  $T^d$  to'plamda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda kompleks qiymat qabul qiluvchi) funksiyalarning Gilbert fazosini belgilaymiz.  $H_0$  va  $H_1$  fazolarning to'g'ri yig'indisini  $H$  orqali belgilaymiz, ya'ni  $H := H_0 \oplus H_1$ .

Mazkur maqolada  $H$  Gilbert fazosidagi quyidagicha aniqlangan ikkinchi tartibli blok operatorli matritsani qaraymiz:

$$A := \begin{pmatrix} A_{00} & \mu_0 A_{01} \\ \mu_0 A_{01}^* & A_{11} - \mu_1 V_1 - \mu_2 V_2 \end{pmatrix}.$$

Bunda matritsaning elementlari

$$A_{00} f_0 = af_0, \quad A_{01} f_1 = \int_{T^d} v_0(t) f_1(t) dt,$$

$$(A_{11} f_1)(x) = u(x) f_1(x), \quad (V_1 f_1)(x) = v_1(x) \int_{T^d} v_1(t) f_1(t) dt,$$

$$(V_2 f_1)(x) = v_2(x) \int_{T^d} v_2(t) f_1(t) dt$$

tengliklar yordamida ta'sir qiladi.  $a$  - fiksirlangan haqiqiy son,  $\mu_k$  ( $k = 0, 1, 2$ ) - fiksirlangan haqiqiy musbat sonlar (ularga odatda ta'sirlashish parametrlari deyiladi),  $u(\cdot), v_0(\cdot), v_1(\cdot)$  va  $v_2(\cdot)$  parameter funksiyalar esa  $T^d$  da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzlucksiz funksiyalardir.

A operatorning muhim spektrini o'rganish maqsadida qo'zg'almas operator deb ataluvchi va  $H$  Gilbert fazosida

$$A_0 := \begin{pmatrix} A_{00} & 0 \\ 0 & A_{11} \end{pmatrix}$$

kabi aniqlangan ikkinchi tartibli diagonal blok operatorli matrisani qaraymiz. Aniqlanishiga ko'ra  $A_0$  operator chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma operator bo'ladi. Uning muhim va diskret spektrlari uchun

$$\sigma_{ess}(A_0) = [m; M], \quad \sigma_{disc}(A_0) = \{a\}$$

tenglik o'rinnlidir, bu yerda  $m$  va  $M$  sonlari  $m := \min_{x \in T^d} u(x)$ ,  $M := \max_{x \in T^d} u(x)$

formula orqali aniqlangan sonlardir.

Ikkinchi tomondan  $A - A_0$  qo'zg'алиш operatori to'rt o'lchamli chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma operator bo'ladi. Chekli o'lchamli qo'zg'алишlarda muhim spektrning o'zgarmasligi haqidagi G.Veyl teoremasiga ko'ra  $A$  operatorning muhim spektri  $A_0$  operatorning muhim spektri bilan ustma-ust tushadi, ya'ni  $\sigma_{ess}(A) = [m; M]$  tenglik o'rinnlidir. Ko'riniib turibdiki,  $A$  operatorning muhim spektri  $\mu_k > 0$ ,  $k = 0, 1, 2$  ta'sirlashish parametrlaridan bog'liq emas.

$A$  blok operatorli matritsaning diskret spektrini aniqlashda muhim bo'lgan hamda  $C \setminus [m, M]$  sohada

$$\Delta_0(\mu_0, z) = a - z - \mu_0^2 \int_{T^d} \frac{v_0^2(t) dt}{u(t) - z}; \quad I_{01}(\mu_0, z) = \mu_0 \int_{T^d} \frac{v_0(t)v_1(t) dt}{u(t) - z};$$

$$I_{02}(\mu_0, z) = \mu_0 \int_{T^d} \frac{v_0(t)v_2(t) dt}{u(t) - z}; \quad I_{12}(z) = \int_{T^d} \frac{v_1(t)v_2(t) dt}{u(t) - z};$$

$$\Delta_1(\mu_1, z) = 1 - \mu_1 \int_{T^d} \frac{v_1^2(t) dt}{u(t) - z}; \quad \Delta_2(\mu_2, z) = 1 - \mu_2 \int_{T^d} \frac{v_2^2(t) dt}{u(t) - z}$$

regulyar funksiyalarni qaraymiz. Odatda,

$$\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z) = \Delta_0(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_2, z) - 2\mu_1\mu_2 I_{01}(\mu_0, z)I_{02}(\mu_0, z)I_{12}(z) \text{ funks} \\ - \mu_1 I_{01}^2(\mu_0, z)\Delta_2(\mu_2, z) - \mu_2 I_{02}^2(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z) - \mu_1\mu_2 I_{12}^2(z)\Delta_0(\mu_0, z)$$

iyaga  $A$  operatoroga mos Fredgolm determinant deyiladi.

Quyida  $A$  operatorning Fredgolm determinanti sodda holga keladigan ba'zi xususiy hollarga misol keltiramiz.

**1-xususiy hol:**  $d = 1$  bo'lgan holda  $u(\cdot)$  funksiyani istalgan juft funksiya deb olamiz va  $v_0(\cdot)$ ,  $v_1(\cdot)$  hamda  $v_2(\cdot)$  funksiyalarni quyidagicha tanlab olamiz:

$$v_0(t) = \cos t; \quad v_1(t) = \sin t; \quad v_2(t) = 0.$$

$v_0(\cdot)$ ,  $v_1(\cdot)$  hamda  $v_2(\cdot)$  funksiyalarning tanlab olinishidan

$I_{01}(\mu_0, z) = 0$ ;  $I_{02}(\mu_0, z) = 0$ ;  $I_{12}(z) = 0$  tengliklarning bajarilishi kelib chiqadi.

Yuqoridagi tengliklardan Fredgolm determinantni

$$\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z) = \Delta_0(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_2, z)$$

ko'rinishga keladi.

**2- xususiy hol:**  $d = 1$  bo'lgan holda  $u(\cdot)$  funksiyani istalgan juft funksiya deb olamiz. Fredgolm determinantini sodda holga keltirish uchun  $v_0(\cdot)$ ,  $v_1(\cdot)$  funksiyalarni

$$v_0(t) = \begin{cases} \cos t & [-\pi; 0] \\ 0 & [0; \pi] \end{cases} \quad v_1(t) = \begin{cases} 0 & [-\pi; 0] \\ \sin t & [0; \pi] \end{cases}$$

ko'inishda tanlab olib,  $v_2(\cdot)$  funksiyani esa ixtitoriy deb ham tanlash mumkin. Bunda yuqoridagi belgilashlardan  $I_{01}(\mu_0, z) = 0$  bo'lishi kelib chiqadi va

$$\begin{aligned}\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z) &= \Delta_0(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_2, z) - \mu_2 I_{02}^2(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z) - \\ &- \mu_1 \mu_2 I_{12}^2(z)\Delta_0(\mu_0, z)\end{aligned}$$

**3- xususiy hol:**  $d = 1$  bo'lgan holda  $u(\cdot)$  funksiyani istalgan juft funksiya deb olamiz va  $v_0(\cdot)$  hamda  $v_1(\cdot)$  funksiyalarni toq funksiya,  $v_2(\cdot)$  funksiyani juft funksiya deb olsak

$$\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z) = \Delta_0(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_2, z) - \mu_1 I_{01}^2(\mu_0, z)\Delta_2(\mu_2, z)$$

Tahlil qilingan xususiy hollarda umumlashgan Fridrixs modeli diskret spektrini yanada batafsil tadqiq qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOT:

- Исмоилова Д.Э. О свойствах определителя Фредгольма, ассоциированного с обобщенной модели Фридрихса. *HTO*, 60:1(2021), С. 21-24.

**TO'RT O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHGA EGA UMUMLASHGAN FRIDRIXS  
MODELI REZOLVENTASINI QURISH**

**Ismoilova Dildora Erkinovna**

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Fok fazosining qirqilgan ikki zarrachali qism fazosida 2-tartibli operatorli matritsa ko'rinishidagi  $A$ , umumlashgan Fridrixs modeli qaraladi.  $A$  operatoriga rezolventa operatori uchun aniq formula topiladi.

**Kalit so'zlar:** operatorli matrisa, umumlashgan Fridrixs modeli, rezolventa operatori.

$T^d$  orqali  $d$  o'lchamli torni,  $H_0 := C$  orqali bir o'lchamli kompleks fazoni va  $H_1 := L_2(T^d)$  orqali  $T^d$  to'plamda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda kompleks qiymat qabul qiluvchi) funksiyalarning Gilbert fazosini belgilaymiz.  $H_0$  va  $H_1$  fazolarning to'g'ri yig'indisini  $H$  orqali belgilaymiz, ya'ni  $H := H_0 \oplus H_1$ . Odatda  $H_0$  fazoga Fok fazosining nol zarrachali qism fazosi,  $H_1$  fazoga Fok fazosining bir zarrachali qism fazosi va  $H$  Gilbert fazosiga esa Fok fazosining qirqilgan ikki zarrachali qism fazosi deyiladi.

Mazkur maqolada  $H$  Gilbert fazosidagi quyidagi ikkinchi tartibli blok operatorli matritsani qaraymiz:

$$A := \begin{pmatrix} A_{00} & \mu_0 A_{01} \\ \mu_0 A_{01}^* & A_{11} - \mu_1 V_1 - \mu_2 V_2 \end{pmatrix}.$$

Bunda matritsa elementlari

$$A_{00} f_0 = af_0, \quad A_{01} f_1 = \int_{T^d} v_0(t) f_1(t) dt, \quad (A_{11} f_1)(x) = u(x) f_1(x),$$

$$(V_1 f_1)(x) = v_1(x) \int_{T^d} v_1(t) f_1(t) dt, \quad (V_2 f_1)(x) = v_2(x) \int_{T^d} v_2(t) f_1(t) dt$$

tengliklar yordamida ta'sir qiladi.  $a$  - fiksirlangan haqiqiy son,  $\mu_k$  ( $k = 0, 1, 2$ ) - fiksirlangan haqiqiy musbat sonlar,  $u(\cdot), v_0(\cdot), v_1(\cdot)$  va  $v_2(\cdot)$  funksiyalar esa  $T^d$  da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzlusiz funksiyalardir.

$A$  operatorning muhim spektri uchun  $\sigma_{ess}(A) = [m; M]$  tenglik o'rinali ekanligini oson ko'rsatish mumkin, bu yerda  $m$  va  $M$  sonlari

$$m := \min_{x \in T^d} u(x), \quad M := \max_{x \in T^d} u(x).$$

formula orqali aniqlangan sonlardir.

$C \setminus [m, M]$  sohada

$$\Delta_0(\mu_0, z) = a - z - \mu_0^2 \frac{\int_{T^d} v_0^2(t) dt}{\int_{T^d} u(t) - z}; \quad I_{01}(\mu_0, z) = \mu_0 \int_{T^d} \frac{v_0(t) v_1(t) dt}{u(t) - z};$$

$$I_{02}(\mu_0, z) = \mu_0 \int_{T^d} \frac{v_0(t)v_2(t)dt}{u(t) - z}; \quad I_{12}(z) = \int_{T^d} \frac{v_1(t)v_2(t)dt}{u(t) - z};$$

$$\Delta_1(\mu_1, z) = 1 - \mu_1 \int_{T^d} \frac{v_1^2(t)dt}{u(t) - z}; \quad \Delta_2(\mu_2, z) = 1 - \mu_2 \int_{T^d} \frac{v_2^2(t)dt}{u(t) - z}$$

regulyar funksiyalarni qaraymiz. Odatda,

$$\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z) = \Delta_0(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_2, z) - 2\mu_1\mu_2 I_{01}(\mu_0, z)I_{02}(\mu_0, z)I_{12}(z) \text{ funk}$$

$$- \mu_1 I_{01}^2(\mu_0, z)\Delta_2(\mu_2, z) - \mu_2 I_{02}^2(\mu_0, z)\Delta_1(\mu_1, z) - \mu_1\mu_2 I_{12}^2(z)\Delta_0(\mu_0, z)$$

siyaga  $A$  operatoroga mos Fredholm determinant deyiladi.

$A$  blok operatorli matritsaning rezolventasi  $H$  Gilbert fazosida 2-tartibli

$$R(z) = \begin{pmatrix} R_{00}(\mu_0, \mu_1, \mu_2; z) & R_{01}(\mu_0, \mu_1, \mu_2; z) \\ R_{10}(\mu_0, \mu_1, \mu_2; z) & R_{11}(\mu_0, \mu_1, \mu_2; z) \end{pmatrix}$$

blok operatorli matritsa ko'rinishda bo'ladi. Bu yerda

$$R_{00}(\mu_0, \mu_1, \mu_2; z)g_0 = \frac{\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_2, z) - \mu_2^2 I_{12}^2(z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} g_0;$$

$$R_{01}(\mu_0, \mu_1, \mu_2; z)g_1 = \frac{\mu_0\mu_2^2 I_{12}^2(z) - \mu_0\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_0(t)g_1(t)dt}{u(t) - z} -$$

$$- \frac{\mu_2^2 I_{02}(\mu_0, z)I_{12}(z) + \mu_1\Delta_2(\mu_2, z)I_{01}(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_1(t)g_1(t)dt}{u(t) - z} -$$

$$- \frac{\mu_1\mu_2 I_{01}(\mu_0, z)I_{12}(z) + \mu_2\Delta_1(\mu_1, z)I_{02}(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_2(t)g_1(t)dt}{u(t) - z};$$

$$(R_{10}(\mu_0, \mu_1, \mu_2; z)g_0)(x) = \left( -\frac{\mu_0 v_0(x)}{u(x) - z} \cdot \frac{\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_2, z) - \mu_2^2 I_{12}^2(z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} - \right.$$

$$\left. - \frac{\mu_1 v_1(x)}{u(x) - z} \cdot \frac{\mu_2 I_{02}(\mu_0, z)I_{12}(z) + \Delta_2(\mu_2, z)I_{01}(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} - \right.$$

$$\left. - \frac{\mu_2 v_2(x)}{u(x) - z} \cdot \frac{\mu_2 I_{01}(\mu_0, z)I_{12}(z) + \Delta_1(\mu_1, z)I_{02}(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \right) g_0;$$

$$(R_{11}(\mu_0, \mu_1, \mu_2; z)g_1)(x) = \frac{g_1(x)}{u(x) - z} -$$

$$- \frac{\mu_0 v_0(x)}{u(x) - z} \left( \frac{\mu_0\mu_2^2 I_{12}^2(z) - \mu_0\Delta_1(\mu_1, z)\Delta_2(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_0(t)g_1(t)dt}{u(t) - z} - \right.$$

$$\left. - \frac{\mu_2^2 I_{02}(\mu_0, z)I_{12}(z) + \mu_1\Delta_2(\mu_2, z)I_{01}(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_1(t)g_1(t)dt}{u(t) - z} - \right.$$

$$\left. - \frac{\mu_1\mu_2 I_{01}(\mu_0, z)I_{12}(z) + \mu_2\Delta_1(\mu_1, z)I_{02}(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_2(t)g_1(t)dt}{u(t) - z} \right) +$$

$$\begin{aligned}
& + \frac{\mu_1 v_1(x)}{u(x) - z} \left( \frac{\mu_0 \mu_2 I_{02}(\mu_0, z) I_{12}(z) + \mu_0 \Delta_2(\mu_2, z) I_{01}(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_0(t) g_1(t) dt}{u(t) - z} + \right. \\
& + \frac{\Delta_2(\mu_2, z) \Delta_0(\mu_0, z) - \mu_2 I_{02}^2(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_1(t) g_1(t) dt}{u(t) - z} - \\
& - \frac{\mu_2 I_{01}(\mu_0, z) I_{02}(\mu_0, z) + \mu_2 \Delta_0(\mu_0, z) I_{12}(z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_2(t) g_1(t) dt}{u(t) - z} + \\
& + \frac{\mu_2 v_2(x)}{u(x) - z} \left( \frac{\mu_0 \mu_2 I_{02}(\mu_0, z) I_{12}(z) + \mu_0 \Delta_1(\mu_1, z) I_{02}(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_0(t) g_1(t) dt}{u(t) - z} + \right. \\
& + \frac{\mu_1 I_{01}(\mu_0, z) I_{02}(\mu_0, z) + \mu_2 \Delta_0(\mu_0, z) I_{12}(z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_2(t) g_1(t) dt}{u(t) - z} + \\
& \left. + \frac{\Delta_1(\mu_1, z) \Delta_0(\mu_0, z) - \mu_1 I_{01}^2(\mu_0, z)}{\Delta(\mu_0, \mu_1, \mu_2, z)} \int_{T^d} \frac{v_1(t) g_1(t) dt}{u(t) - z} \right).
\end{aligned}$$

Uch o'lchamli qo'zg'alishli hol [1] ishda o'rghanilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOT:**

- Тошева Н.А., Исмоилова Д.Э. (2021). Явный вид резольвенты обобщенной модели Фридрихса. *HTO*, 2-2(77), 39-43.

**TO'RT O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHGA EGA UMUMLASHGAN FRIDRIXS  
MODELINI SONLI TASVIRINING AYRIM XOSSALARI**

**Ismoilova Dildora Erkinovna**

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ikkinchi tartibli blok operatorli matritsa ko'rinishidagi  $A$ , umumlashgan Fridrixs modeli sonli tasvirining ayrim xossalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** operatorli matrisa, umumlashgan Fridrixs modeli, sonli tasvir.

Faraz qilaylik,  $T^d$  bu  $d$  o'lchamli tor bo'lsin. Maqolada ishlatiladigan asosiy fazolarni kiritamiz.  $H_0 := C$  bir o'lchamli kompleks fazo,  $H_1 := L_2(T^d)$  esa  $T^d$  to'plamda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda kompleks qiymat qabul qiluvchi) funksiyalarning Gilbert fazosini (2-kanal) belgilaymiz.  $H_0$  va  $H_1$  fazolarning to'g'ri yig'indisini  $H$  orqali belgilaymiz, ya'ni  $H := H_0 \oplus H_1$ .

Ushbu maqolada  $H$  Gilbert fazosidagi quyidagi ikkinchi tartibli blok operatorli matritsanı qaraymiz:

$$A := \begin{pmatrix} A_{00} & \mu_0 A_{01} \\ \mu_0 A_{01}^* & A_{11} - \mu_1 V_1 - \mu_2 V_2 \end{pmatrix}.$$

Bunda matritsa elementlari

$$A_{00} f_0 = af_0, \quad A_{01} f_1 = \int_{T^d} v_0(t) f_1(t) dt,$$

$$(A_{11} f_1)(x) = u(x) f_1(x), \quad (V_1 f_1)(x) = v_1(x) \int_{T^d} v_1(t) f_1(t) dt,$$

$$(V_2 f_1)(x) = v_2(x) \int_{T^d} v_2(t) f_1(t) dt$$

tengliklar yordamida ta'sir qiladi.  $a$  - fiksirlangan haqiqiy son,  $\mu_k$  ( $k = 0, 1, 2$ ) - fiksirlangan haqiqiy musbat sonlar,  $u(\cdot), v_0(\cdot), v_1(\cdot)$  va  $v_2(\cdot)$  funksiyalar esa  $T^d$  da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzluksiz funksiyalardir.

$A$  operator uning parametrlariga qo'yilgan yuqoridagi shartlarda  $H$  Gilbert fazosidagi chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma bo'ladi.

Ma'lumki [1],  $\sigma_{ess}(A) = [m; M]$ . Ushbu

$$W(A) := \{(Af, f) : f \in H, \|f\| = 1\}$$

kabi aniqlangan to'plamga  $A$  operatorning sonli tasviri deyiladi. Parametr funksiyalarning holatidan bog'liq ravishda  $W(A)$  to'plam ochiq to'plam bo'lishi, yokiq to'plam bo'lishi hamda ochiq ham yopiq ham bo'lmasligi mumkin. Aniqlanishiga ko'ra  $W(A)$  to'plam kompleks sonlar to'plamining qism to'plami bo'lib,  $W(A)$  to'plamning geometrik xossalardan foydalanib  $A$  operator haqida ma'lumot olish mumkin.

A umumlashgan Fridrixs modeli chegaralangan operatordir, shu sababli uning sonli tasvir markazi koordinata boshida va radiusi  $\|A\|$  bo'lgan yopiq doirada yotadi, ya'ni  $W(A) \subset \{\lambda \in C : |\lambda| \leq \|A\|\}$ .

Ixtiyoriy  $\alpha, \beta$  kompleks sonlari uchun  $W(\alpha A + \beta) = \alpha W(A) + \beta$  tenglik o'rinnlidir. Bunda  $\alpha \in C$  kompleks soni va  $\Omega \subset C$  to'plam uchun

$$\alpha + \Omega := \{\alpha + w : w \in \Omega\}, \quad \alpha\Omega := \{\alpha w : w \in \Omega\}$$

munosabatlar o'rinnli.

Umumlashgan Fridrixs modeli o'z-o'ziga qo'shma, ya'ni  $A = A^*$  ekanligidan  $W(A) \subset R$  munosabat kelib chiqadi.  $\dim H = \infty$  bo'lganligi bois  $W(A)$  hamisha ham kompakt to'plam bo'lavermaydi, aniqroq qilib aytganda chegaralangan to'plam bo'ladi, lekin hamish ham yopiq to'plam bo'lavermaydi. Shuning uchun  $W(A)$  to'plam yopiq bo'ladigan shartlarni topish dolzarb muammo hisoblanadi. Chiziqli operatorlar nazariyasining yana bir masalalaridan biri bu umumlashgan Fridrixs modeli uchun spektr va sonli tasvir ustma-ust tushadigan hollarni aniqlash masalasidir. Agar biror  $S : H \rightarrow H$  operator  $A$  operatorga unitar ekvivalent operator bo'lsa, u holda  $W(S) = W(A)$  tenglik o'rinnli bo'ladi.

A umumlashgan Fridrixs modelining  $W(A)$  sonli tasviri uchun spektral munosabatlar deb ataluvchi  $\sigma_p(A) \subset W(A)$ ,  $\sigma(A) \subset \overline{W(A)}$  tengliklarni qanoatlantiradi.

Umumiyl holda  $A$  umumlashgan Fridrixs modelining  $W(A)$  sonli tasvirining yopig'i uchun  $\overline{W(A)} = [\min \sigma(A); \max \sigma(A)]$  tenglik o'rinnli bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek,  $A$  operatorning muhim spektri  $[m; M]$  kesmadan iborat bo'ladi. Xususan,  $m$  va  $M$  sonlari  $A$  operator uchun bo'sag'aviy xos qiymat bo'lsa, u holda  $m, M \in W(A)$  bo'ladi. Haqiqatan ham, faraz qilaylik,  $m$  soni  $A$  operator uchun bo'sag'aviy xos qiymat bo'lsin, ya'ni shunday nol bo'limgan  $f = (f_0, f_1) \in H$  vektor-funksiya topilib,  $Af = mf$  tenglik o'rinnli bo'lsin. U holda

$$m = \frac{m}{\|f\|^2} (f, f) = (m \frac{f}{\|f\|}, \frac{f}{\|f\|}) = (A \frac{f}{\|f\|}, \frac{f}{\|f\|})$$

munosabatlar o'rinnli bo'lib, bundan  $m \in W(A)$  ekanligi kelib chiqadi.

Xuddi shuningdek, agar  $M$  soni  $A$  operator uchun bo'sag'aviy xos qiymat bo'lsa, u holda shunday nol bo'limgan  $F = (F_0, F_1) \in H$  vektor-funksiya topilib,  $AF = MF$  tenglik o'rinnli bo'lsin. U holda

$$M = \frac{M}{\|F\|^2} (F, F) = (M \frac{F}{\|F\|}, \frac{F}{\|F\|}) = (A \frac{F}{\|F\|}, \frac{F}{\|F\|})$$

munosabatlar o'rinnli bo'lib, bundan  $M \in W(A)$  ekanligi kelib chiqadi. Bu mulohazalardan ko'rinish turibdiki, agar  $A$  operatorning  $m$  dan chapda yotuvchi xos qiymatlarning eng kichigini  $E_1$  orqali,  $M$  dan katta xos qiymatni  $E_2$  orqali belgilasak (ular

mavjud bo'lgan holda), u holda  $A$  operatorning sonli tasviri  $[E_1; E_2]$  kesmadan tashkil topgan bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOT:**

1. Ismoilova D.E. (2021). To'rt o'lchamli qo'zg'alishga ega ikki kanalli molekulyar rezonans modelining muhim va diskret spektrlari. Scientific progress. 2:3, 44-50 b.

# ТАБІПУ ВА ТЕХНИК ФАНЛАР

## ГҮЗАДА ОҚҚАНОТГА ҚАРШИ ИНСЕКТИЦИДЛАРНИ ҚҰЛЛАШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

**Г.Н. Шокирова**

*ФарПИ катта ўқитувчиси.*

**М. А .Абдуллаева**

*ФарПИ талабаси*

*ассимиляцияси, вегетация, тропик, иссиқхона, алейродид, циклик, замбуруғелар, сапрофит, оққанот,*

Оққанот ва ширалар пахта ҳосилини камайтирибина қолмай, тола сифатини ҳам пасайтириб, катта иқтисодий заарар келтиради шу сабабдан оққанотга қарши инсектицидларни ўз вақтида құлаш ҳосилни сақлаб қолишиңа ёрдам беради.

Қишлоқ хұжалигыда сүрүвчи зааркунандаларнинг ҳосилдорликка салбий таъсири жуда юқори. Бу зааркунандаларнинг бутун вегетация давомида заарар келтириши ҳамда күп авлод бериб ривожланиши уларга қарши курашишда бирмунча қийинчиликлар яратади. Ҳосилдорликнинг пасайиши, тола сифати ёмонлашиши каби салбий оқибатларда оққанот зааркунандасининг ҳам аҳамияти каттадир.

Оққанотлар тенг қанотлилар (*Hemiptera*) туркумининг алейродид ёки оққанотлар (*Aleyrodidae*) оиласига мансуб. Ўзбекистонда уларнинг 4 та тури аниқланған. Ғүзага асосан 2 та тури заарар келтиради: иссиқхона (*Trialeurodes vaporariorum* Westw.) ва ғүза (тамаки) - (*Bemisia tabaci* Genn.) оққанотлари [7].

Инсектицидларнинг ғүзада оққанотга қарши биологик самарадорлиги

Дала тажрибаси, Тошлоқ тумани “Сохибжон МММ” фермер хұжалиги, құл  
пуркаги – 500 л/га, 7.07.2020 й.

Вариантлар	Таъсир этувчи моддаси	Дори сарфи, кг, л/га	1 та баргда оққанотнинг ўртача сони, дона			Биологик самарадорлик, %		
			Ишлов-гача	Ишловдан сўнг кунлар бўйича				
				1	3	7		
Профентрин, 31,5% эм.к.	Профенофо с 300 г/л + лямбдацигалотрин 15 г/л	1,0	3	99,0	5,6	26,8	40,1	0,8

Полит рин Голд, 44% эм.к.	<i>Профенофо с 400 г/л + циперметрин 4% г/л</i>	0 ,8	3 75,8	1 02,4	3 53,2	3 58,7	3 2,3			
Бу ҳам	-//-	1 ,0	3 84,0	8 6,8	3 19,4	3 28,5	3 7,1			
Сурел л-Д, 55% эм.к.	<i>Циперметр ин + хлортирифос</i>	1 ,5	3 47,0	3 8,2	2 38,4	2 90,3	2 8,8	,3		
Актар а, 25% с.д.г.	<i>Тиаметокс ам</i>	0 ,8	3 87,0	1 8,3	1 5,4	1 9,1	2 5,2	2 4,7	9,5	
Назор ат	-	-	3 40,6	3 35,6	2 58,0	2 44,1	2 4,7			

,

Ўзбекистонда оққанот 1970 чи йиллардан бошлаб, республикада иссиқхоналар қурилиши бошланиши билан кўпая бошлаган эди. Чунки, тропик иқлимга мослашган бу ҳашаротлар қишлоғга кетмасдан йил мобайнида ривожланади [2]. Зааркунанда кузбаҳор даврида иссиқхоналарда ривожланади ва кўпаяди. Баҳорнинг иссиқ кунлари бошланиши билан улар очиқ шароитга кўплаб учиб чиқади ва турли экинларни (шу жумладан, ғўзани ҳам) заарлай бошлайди. Оққанотга бир қатор биологик хусусиятлар хос бўлиб, ғўзада ривожланишида циклик ўзгариш сезилади. Яъни, у ёзнинг бошида ва кузга яқин ҳаво ҳарорати пасайиб, намлиги ошиши билан боғлиқ. Ёруғ қуннинг қисқариши билан нуфузи ва зарари кучаяди [5,7]. Ғўзада 3-4 насл бериб, ўсимлик ширасини сўриб озиқланади ва ҳашарот ажратган модда баргларни ифлослаб, барг ассимиляциясини бузади, натижада ўсимлик заифлашади.

Ғўза эрта муддатда заарланганда кўсаклар ҳосил бўлиши 30 фойзгача камаяди. Оққанот ва ширалар пахта ҳосилини камайтирибгина қолмай, тола сифатини ҳам пасайтириб, катта иқтисодий зарар келтиради. Яъни, кўсак очилиш даврида тола бу зааркунандалар ажратган ёпишқоқ моддалар билан ифлосланади. Бу эса сапрофит замбуруғлар *Macrosporum*, *Cladosporum*, *Alternaria* – ларга озиқ бўлиб хизмат қиласди. Ифлосланган толага замбуруғлар ўтириб уни қоралайди. Бу ҳолат “қора шира” номи билан маълум. Нам ҳавода тола сақланганида уни чиритади. Бундай толани фабрикада қайта ишлаш қийинлашади, маҳсулот сифати бузилади [4,7].

Оққанотга қарши кураш тизими яратилиб, у олдини олиш чора тадбир-ларидан, асосан энкарзия (*Encarsia sp.*) авлодига хос ихтисослашган кушандаси ҳамда энкарзия ва сариқ елимли экран ёрдамида курашиш чораларидан иборат эди [1]. Бундан ташқари, бир қанча инсектицидларни қўллаш тавсия этилган бўлиб, уларнинг кўпчилигига оққанот чидамлилик ҳосил қилган [3]. Демакки, оққанотга қарши янги гуруҳга оид самарали инсектицидларни танлаш ёки инсектицидларни алмашлаб

қўллаш тизимини ўрганиш лозим бўлади. Оққанот бўйича 2020 чи йилги тадқиқотларимиз Фарфона вилояти шароитида ўтказилди. Чунки бу ерда иссиқхоналар кўплиги сабаб оққанот миқдори ҳам кўп бўлиб, тажриба қўйиш учун енгиллик ва аниқликни оширади. Тажриба 7 чи июл санасида қўйилди. Ишлов беришда қўл пуркагичидан фойдаланилиб, гектарига 500 литр ишчи суюқлик сарфлаш ҳисобида пуркалди. Профентрин, 31,5% эм.к., Политрин Голд, 44% эм.к., Сурелл-Д, 55% эм.к. препаратлари турли сарф-меъёрда синалиб, андоза сифатида Актара, 25% с.д.г. (0,8 кг/га) инсектициди ишлатилди. Кузатувлар 7 кун мобайнида олиб борилди. Чунки синовдаги дорилар 3 чи кунда ёқ қониқарли самарасини йўқотиб бўлган эди (жадвал). Жадвалдан кўриниб турганидек, барча синов вариантиларида дастлабки ҳисоб кунида самарадорлик ўртacha 75,0-85,0% га тенг бўлган бўлса ҳам, бу кўрсатгич 3 чи кунга бориб 0,0% га тенг бўлди. Андоза варианти нисбатан янги неоникотиноидлар кимёвий синфиға мансуб Актара препаратида 7 чи кунда ҳам етарли (89,5%) биологик самарадорлик кузатилди.

Шуни хулоса қилиш мумкинки, Профентрин, Политрин Голд ва Сурелл-Д каби аралашма инсектоакарицидлар оққанотга қарши курашиш учун етарли самарага эга эмас. Ўзада оққанотга қарши неоникотиноидлар кимёвий синфиға мансуб, тиаметоксам фаол моддасига эга бўлган Актара, 25% с.д.г. инсектицидини 0,8 кг/га сарф-меъёрида қўллаш тавсия этилади.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Адашкевич Б.П., Кадыров А. Трихопорус //Ж. Защита растений. – Москва, 1983. - №3. - С. 44-45.
2. Бей-Биенко Г.Я. Общая энтомология. – М.: Высшая школа. – 1980. – 490с.
3. Рашидов М.И. Интегрированная защита послёновых овощных культур от вредителей. – Ташкент, 2008. – 191 с.
4. Хасанов Б.О., Ҳамраев А.Ш. ва б. Ўзани зааркунанда, касалликлар ва бегона ўтлардан ҳимоя қилиш. – Тошкент: «Университет». – 2002. – 379 б.
5. Хошимов Х. Биологические особенности тепличной белокрылки (*Trialeurodes vaporariorum* Westw.) на хлопчатнике и меры борьбы с ней: Автореф. канд. дисс...., М.: ТМСХ, 1988. – 16 с.
6. Ҳўжаев Ш.Т. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (II-нчи нашр). – Тошкент, 2004. – 104 б.
7. Ҳўжаев Ш.Т. Ўсимликларни зааркундалардан уйғунлашган ҳимоя қилишнинг замонавий усул ва воситалари. – Тошкент: “Навruz”, 2015. – 552 б.
- 8.Xo‘jaev Sh.T., Shokirova G.N. G‘o‘za tunlamiga qarshi kurash usulining samaradorligi //O‘simliklar himoyasi va karantini. – 2015. - №1. – B. 35-37.
- 9.Xo‘jaev Sh.T., Yuldashev F.E., Shokirova G.N. Uyg‘unlashgan himoya qilish tizimining ustunligi //Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini. – 2017. - №1. - B.24-26.

**ОДАМ ВА УНИНГ САЛОМАТЛИГИ ФАНИДАН ОВҚАТ ХАЗМ КИЛИШ  
СИСТЕМАСИ МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА РАСМЛИ ЖАДВАЛ УСУЛИДАН  
ФОЙДАЛАНИШ**

Суббекова Малика Алишеровна

*Кўқон шахар I-сонли умумий  
ўрта таълим мактаби ўқитувчиси*

**Аннотация:** Мақолада ҳозирги куннинг долзарб муаммоларидан бўлган ўқитииш тизимини самарадорлигини ошириши йўллари кўрсатиб берилган.

**Таянч иборалар:** ошқозон, қизилўнгач, ичак, жигар, тииш, тил, расмли жадвал

Ўзбекистон Республикасида шаклланган узлуксиз таълим тизими баркамол шахс ва малакали мутахассисни тайёрлаш жараёнининг самарали ташкил этилишини таъминлашга хизмат қиласди. Узлуксиз таълим тизими доирасида фаолият олиб борувчи таълим муассасалари илғор, демократик ҳамда инсонпарвар ғояларга таянган ҳамда янгича мазмунга эга бўлган таълим жараёнини ташкил этишда муҳим ўрин тутади.

Узлуксиз таълим тизимини шакллантириш, шунингдек, таълим мазмунини янгилаш таълим соҳасида олиб борилаётган ислоҳотларнинг бош ғояси саналади.

Асрлар давомида таълим жараёни самарадорлигини ошириш, таълим мазмунини ўқувчилар онгига етказиш, улар томонидан мавзуни осон ўзлаштирилишига эришиш масаласи педагогиканинг долзарб муаммоларидан бўлиб келган ва шундай бўлиб қолаверади. Чунки замон ўзгариши, акцелератция, гетерохрония сабабли болаларга турлича талаб қўйилади. Турли даврларда бу масалага турлича ёндашилади. Бугунги кунда таълимга технологик ёндашиш, дарсларда илғор усуллардан кенг фойдаланиш ушбу муаммони самарали ечими сифатида тан олинмоқда. Чунки дарс натижаларининг юқори бўлиши, ўқувчиларнинг севимли устози бўлиш кўп жиҳатдан, ўқитувчи дарсни қизиқарли ,фаол усуллардан фойдаланиши ва қўллай олиши билан белгиланади.

Фаол усуллардан фойдаланиб, дарсларни ташкиллаш ўқувчиларни фикрлаш, дарс мавзуси ва матни устида мустақил ишлаш, яъни мавзу юзасидан билим, кўникма, малакани шаклланишини таъминлайди. Бундай усуллардан бири “расмли жадвал” усули бўлиб, у ўтиладиган дарс мазмунини матн кўринишида берилган маълумотларни расмли жадвал кўринишига келтиришга асосланган.

Мисол сифатида тадқиқотларимиз доирасида ўтказилган тажриба-синов ишларимизда одам ва унинг саломатлиги фанидан ўқув дастурига киритилган “Овқат хазм қилиш” мавзусидаги дарсни мазкур усул асосида ташкилладик. Мақсад қилиб:






- ўқувчиларда мавзу бўйича янги билимларни шакллантириш;
- уларда мустақил фикрлаш, таҳлил қилиш, қиёслаш кўникмаларини ривожлантириш;
- кичик гурухларда ишлашни шакллантириш.



- билимларни пухта бўлишига эришишни белгиладик.

Кўйида талабаларнинг жамоавий мустақил билиш фаолияти натижасида тузилган жадвални келтирамиз (1-жадвал).

1-жадвал.

**Овқат хазм қилиши тизими**

Тизимнинг номи	Ташқи кўриниши.	Кўрса тилган қисмларни дарсликда н топиб ёзинг	Вазифаси
Овқат хазм қилиш системасининг умумий кўриниши.			Хужайра, тўқима, аъзо, аъзолар системасини озиқлантириш.
Оғиз бўшлиғи			Майдалаш
Тиш			Жойлашувига кўра:кесувчи, эзувчи
Тил			Аралаштириш
Қизилўнгач			Ўтказиш
Ошқозон			Аралаштириш, парчалаш
Жигар			Ўт суюқлиги ишлаб чиқариш

	Ворсинка			Сўриш
	Ингичка ичак			Парчаланиш, сўриш
0	Йўғон ичак ва тўғри ичак			Сувсизлантириш, тўплаш

Тадқиқот натижалари таҳлили қўйидагиларни қўрсатди:

а) “расмли жадвал” фаол усули асосида ташкилланган фаолият натижасини қўйидаги шартлар белгилайди:

- жадвал асосини ташкилловчи саволлар ўқитувчи томонидан аниқ ҳамда мантиқий кетма-кетликда қўйилгани;

- саволларни тузишда педагог томонидан тўқувчилар ёши, мавзу бўйича уларда мавжуд билимлар даражаси, тажриба, тасаввурлар эътиборга олингандиги, муаммоли тузилгани;

- ўқитувчиларда мавзу бўйича маълумотларни акс эттирувчи етарли манбаларнинг мавжудлиги (турли кўринишда, яъни қоғоз, электрон, видео шаклида бўлиши, бунда Интернет воситасидан ҳам фойдаланиш яхши самара беради);

- ўқитувчида жамоани бошқариш қобилиятининг ривожланганлик даражаси.

б) Таълим жараёнида “расмли жадвал” усулидан фойдаланиш қўйидагиларга этишишни таъминлайди - талабаларда:

- мустаҳкам билимларни ҳосил бўлиши;
- илмий матнни мустақил ўрганиш кўникмаларини ривожланиши;
- таҳлил қилиш, таққослаш кўникмаларини ривожланиши;
- мавзулараро, фанлараро боғланишларни англаниши;
- жамоа билан ҳамкорликда ишлаш кўникмаларини ривожланиши.

Ҳулоса қилиб, замонавий педагогика ўқитувчиларга турлича самарали усулларни таклиф қилмоқда экан, улардан ҳар бир таълим усули моҳиятини англашетиши, дарсни лойиҳалашда унинг ҳам таълимий, ҳам тарбиявий, ҳам ривожлантирувчи мақсадларига эришишни таъминловчи усуллар тўғри танлаб олинсангина дарс самарали ташкилланади.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Иноятов У.И. Ўкувчи-ёшларда касбий кўникмаларни шакиллантириш омиллари // Ж. Мактаб ва хаёт. Т.: - 2001. №4.
2. Махмутов М.И. Мактабда муаммоли таълимни ташкил қилиш // Ўқитувчилар учун қўлланма . - Т.: Ўқитувчи, 1981. - 193 б.
3. Олимов Қ.Т. Maxsus фанлардан ўкув адабиётлари янги авлодини яратишнинг назарий услубий асослари.. Пед. фан. док. автореф. дис.-Т.: 2005. - 44 б.
4. [www.pedagog/uz](http://www.pedagog.uz)

# FILOLOGIYA

## IDIOMLAR VA IDIOMATIK IBORALAR INGLIZ TILIDA QO'LLANILISHI

**Saminjonov Muhammadali**

*FarDu Lingvistika : ingliz tili yo'nalishi*

*1-kurs magstranti*

**Annotatsiya :** maqolada ingliz tili va boshqa chet tillarida qo'llaniladigan idiomlar va idiomatic iboralar berilgan bo'lib , ularning o'zbek tilidagi muqobillari ham bayon etilgan.

**Kalit so'zlar :** izoh, til, birikma , termin , talab , zamon ,chet tili , lingvistika , ta'lim , nizom .

Bugungi kunda chet tillarini o'rganish zamon talabi sanaladi, shu sababli ham yoshlаримиз да chet tilini o'rganishga u yoki bu chet mamlakatida taxsil olishga ishtiyоqi baland . Bu borada chet tillarini o'rganish borasida mamlakatimizda keng imkoniyatlar eshigi ochilganligi bizni quvontirmoqda.

Chet tilini o'rganishning o'ziga xos bo'lgan qonun qoidalari ,samarali yo'llari mavjud bo'lib shu asosida o'rganish qiyinchilik tug'dirmaydi. Biz quyida ingliz tilida uchraydigan idiomalar va ularning o'zbek tilidagi muqobillari haqida malumot berib o'tmoqchimiz .

Idiomlar yoki frazeologizmlar har bir tilda mavjud. Chet tilini o'rganish, noqulay vaziyatga tushib qolmaslik uchun, ibiomlarni o'rganish kerak. Ingliz tilida inglizlar kundalik hayotda ishlatishni yoqtiradigan juda ko'p murakkab iboralar va burilishlar mavjud. Ushbu idiomlar hayotning turli sohalariga ta'sir qiladi: oziq-ovqat, hayvonlar, ob-havo va boshqalar. Ushbu maqolada siz inglizcha idiomalar nima ekanligini va ular o'rganishga arziydimi yoki yo'qligini bilib olasiz.

Inglizcha idiomlar yoki frazeologizmlar - bu turg'un nutq burilishlari, so'zlarning so'zlab bo'lmaydigan kombinatsiyasi, odatda, majoziy ma'noda tushuniladi. Butun iboraning ma'nosi unga kiritilgan so'zlarning ma'nosi bilan belgilanmaydi. Ko'pincha idiomaning ma'nosini taxmin qilish qiyin, unga kirgan so'zlardan tushunish qiyin, agar siz unga notanish bo'lsangiz.

Masalan: bir xil qayiqda bo'lish. Bu tom ma'noda: "bir xil qayiqda bo'lish" degan ma'noni anglatadi, lekin idiomaning ma'nosi boshqacha: "bir xil vaziyatda bo'lish, bir xil qiyinchiliklarni boshdan kechirish".

Men sizning muammongizni tushunaman. Biz ham xuddi shu qayiqdamiz. "Men sizning muammongizni tushunaman." Men siz bilan bir xil ahvoldaman.

Idiomlar barqaror, ajralmas kombinatsiyalar deb ataladi, chunki ular o'zgarmas shaklda qo'llaniladi. Masalan, hech kim bitta qayiqda o'tirish yoki bitta kemada bo'lish haqida gapirmaydi. Idioma ba'zi odatiy holatlar uchun tayyor majoziy shablon sifatida ishlatiladi.

Ehtimol, siz qayiq haqidagi iboraning ma'nosini, ayniqsa kontekstda eshitganingizda, taxmin qilishingiz mumkin, ammo iboralar mavjud, ularning ma'nosini taxmin qilish mumkin emas.

Men shanba oqshomini maxsus sotib olmoqchiman, lekin unga egalik qilishdan qo'rqaman.

Nima nima-? Men sotib olmoqchiman ... Shanba kuni tunda maxsusmi? Shanba kuni tunda maxsusmi? ehtimol shanba kuni savdoga borishdan qo'rqamanmi?

"Shanba kuni tunda maxsus" bu kichik quroq yoki revolver. Juda taxminiy ibora "maxsus shanba kuni kechki ovqat" deb tarjima qilinishi mumkin. Bu 60-yillarda paydo bo'lgan (hozir kam uchraydi) va ko'pincha arzon va arzon quroq barlarda mast holda urishish paytida va ko'pincha dam olish kunlari kechqurun sodir bo'lgan. Quroq-yarog 'ko'p joylarda issiq joylarda ishlatilgan, shuning uchun ko'pincha mojarolar paytida kimdir "maxsus taom" oladi.

Ba'zida hiyla-nayranglar ham uchraydi - rus tiliga o'xhash, ammo butunlay boshqacha ma'noga ega.

Yumshoq tosh hech qanday moxni to'plamaydi.

Bu so'zma-so'z "mox yuvarlanuvchi tosh ustida o'smaydi" degan ma'noni anglatadi. Xato qilib, siz "bizning suvimiz yotgan tosh ostida oqmaydi" deb o'ylishingiz mumkin, ammo mox haqidagi idioma boshqa ma'noga ega: o'z yashash joyini, kasbini tez-tez o'zgartiradigan, hech qachon o'tirmaydigan va yashamaydigan odam. Shunga ko'ra, ekvivalenti: "kimki joyida o'tirmasa, u hech qanday yaxshilik qilmaydi".

Xuddi shu hodisani tasvirlaydigan rus va ingliz ibiomlarini solishtirish kulgili, ammo turli xil so'zlar bilan. Masalan, rus tilida yomon suzuvchi bolta bilan, ingliz tilida esa tosh bilan taqqoslanadi:

Men sizni daryoga olib bormayman. Siz tosh kabi suzasiz. - Seni daryoga olib bormayman. Siz bolta kabi suzasiz.

Rus tilida suhbatni yaxshi ko'radiganlar haqida biz telefonda "osib qo'yamiz", ingliz tilida esa "o'tiramiz" deymiz.

Men sizga qo'ng'iroq qilolmadim Singlim telefonda o'tirardi. - Men sizga qo'ng'iroq qilolmadim, singlim telefonga osib qo'ydi.

Idiomani yaxshiroq eslab qolish uchun uning ma'nosini tushunishingiz kerak, bu ko'pincha kulgili ko'rindi. Buning ma'nosini tushunish uchun, bir yoki boshqa idiomaning tarixini bilish yaxshi. Mushuk yomg'iri haqidagi hikoyani eslaysizmi? Aytgancha, kesspoolning dahshatli ertaklariga qo'shimcha ravishda, uning kelib chiqishining yana bir versiyasi (qishloq) mavjud. Qadimgi kunlarda qishloqlardagi uylar somon bilan qoplangan va bu mahalliy mushuklar va mushukchalarni jalg qilgan: ular yumshoq, xushbo'y hidli to'shakda uslashni afzal ko'rishgan. Va tez-tez uchraydiganlar, lekin bizning harakatlarimiz uchun o'ch olish haqida "Musiqaga yuzma-yuz" ibomi haqida, biz ham uning oxirgi marta gaplashdik. G'alati, bu "harbiy" kelib chiqishi bor. Noto'g'ri xulq-atvori uchun Britaniya askarlari parad maydonlarida sudga tortildilar va ular hukmni tinglab, nafaqat saflarga, balki orkestrga baraban rolini taqillatishdi. Qisqasi, bu musiqa edi.

Aytgancha, ushbu inglizcha idioma bizning yaqinda "yuzma-yuz" aylanishimizga juda mos keladi va ma'nosi jihatidan o'xshashdir.

**BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SHEVALARNI MAVZUIY  
GURUHLARGA AJRATISH**

Usmonova Fotima Akramjon qizi

*Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti  
Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada badiy matnda qo'llanilgan shevaga xos so'zlar mavzuiy guruhlarga ajratilishi yoritib beriladi. O'zbek shevalarida dialektal so'zlarning fonetik, morfologik, leksik morfologik, semantik tiplari uchraydi. Quyida biz badiy asarlarda uchraydigan dialektal so'zlarni semantik ya'ni mavzuiy jihatdan guruhlarga ajratamiz.*

**Kalit so'zlar :** *sheva , badiy matn, personaj, fonetik, leksik, grammatik, dialektizm.*

Badiy asar tilining boy va jozibador bo'lishida dialektizmlarning o'rni va roli muhimdir. "Badiy asar tilining ifodaliligi, qahramonlar nutqining individuallashganligi ko'p jihatdan o'rinali va me'yorida qo'llangan sheva unsurlariga bog'liq". Yozuvchilar o'z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning mahalliy belgisini bildirsagina dialektal so'zlardan foydalanishi mumkin.

O'zbek tili turkiy tillar ichida ko'p shevali til bo'lib, bu shevalar tabiiy, adabiy tilni boyitishga xizmat qilgan. Yozuvchi va shoirlarning, jumladan, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Tog'ay Murod, Shukur Xolmirzayev, Mirzakalon Ismoiliy, O'tkir Hoshimov, O'lmas Umarbekov, Tohir Malik, Xudoyberdi To'xtaboyev, Ulug'bek Hamdam, Normurod Norqobilov, Murod Mansur kabi bir qator ijodkorlar o'z asarlarini yozishda shevalardan ham ma'lum maqsad uchun o'rinali foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Tog'ay Murod o'z asarlarida shevaga xos so'zlardan keng va unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Zero, yozuvchi asarlarining eng birinchi ko'zga tashlanadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiy jozibadorlilikka erishilganligidir. "Dehqonqul nutqi Surxon vohasi lahjasi libosini kiyib o'quvchi qulog'iga ajabtovur eshitiladi". Darhaqiqat, Tog'ay Murod asarlarida, asosan, Surxondaryo shevasiga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar obrazlilikni ta'minlab, jozibadorlilik va uslubiy rang-baranglikni vujudga keltirgan. Quyida mana shunday jozibadirlikka ega bo'lgan dialektal so'zlarni semantik, ya'ni mavzuiy guruhlarga ajratamiz.

Dialektal so'zlarning semantik guruhlari juda ko'p bo'lib, ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

1. Dehqonchilikka xos atamalar

Dehqonchilikka xos atamalar: *oq ariq, shaq ariq, paxta, ko'rak, ko'sak, chivma, loppek; lavlagi, oq qizilcha, qizilcha, arpa, pamildori.*

*Bo'g'otning uyer bu yerida kaltakesakni qochirish uchun ataylab qistirib qo'yilgan tuxum po'choqlari.* (O'tkir Hoshimov —Dunyoning ishlari, 286-bet)

## 2. Chorvachilikka oid atamalar

Chorvachilikka xos atamalar: *ot- at, sigir- siyir-inak-iney-uy, buzog'-gosala, qoy, echki-gechi, g'o'nan, do'nan, xotik- kirra-tayxar*

## 3. Binokorlikka xos atamalar

Binokorlikka xos atamalar: *uy-oy, madang, ravaq, mo'ri, qasava, poydevor*

*Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi.* (Abdulla Qahhor —Anor[], 76-bet)

## 4. Uy-ro'zg'or buyumlarining atamalari

Uy-ro'zg'or buyumlarining atamalari: *qozon//qazon, tovoq//tabaq, lagan//lagat*

*"O'g'ur o'lgur ag'darilib ketdi,- dedi onam aybdor ohangda."* (O'tkir Hoshimov —Dunyoning ishlari, 24-bet)

## 5. Qarindosh-urug'chilikka oid so'zlar:

*"Ammo-lekin choy damlashni kennoyimga chiqargan."* (Murod Mansur —Judolik diyori 4-5 qism, 63-bet)

## 6. Kiyim-kechakka oid so'zlar:

*Qichqirsam bermaysan dovush ayag'ingda mo'za kavish.* (Sh.Xolmirzayev)

Mazkur gapda mo'za kavishbirikmasidagi mo'za dialektizmi qo'llanilgan bo'lib, eshak terisidan tikilgan kalish ma'nosini bildiradi. Bu turdag'i oyoq kiyim hozirda umuman iste'moldan chiqib ketgan. Lekin fors tili leksikasida mo'za so'zi etik ma'nosini anglatgani, turkiy tilda esa uni o'rnida, ya'ni mo'za so'zi o'rnida chakma so'zi ishlatilishi ham ma'lum. Ya'ni mo'za so'zining ma'nosi etik deganidir.

## 7. Narsa-buyum nomlari:

*Dadam qop peshgirni yechib do'kondan chiqdi.* (Abdulla Qahhor —O'tmishdan ertaklar[], 16-bet)

## 8. O'yin bilan bog'liq so'zlar

*Eshigimiz tagida loyporsilloq o'ynab o'tirgan edim, guzar tomondan bir to'da otliq kelib qoldi.* (Abdulla Qahhor —O'tmishdan ertaklar[], 19-bet)

## 9. O'simlik nomlari

*Tor ko'priking ustida bo'riq yotgan ekan, shuni tepib zovurga tushirmoqchi bo'ldim.* (Abdulla Qahhor —O'tmishdan ertaklar[], 19-bet)

## 10. Oziq-ovqat bilan bog'liq so'zlar

*Kimsasiz bir bog'ga kirib yarim do'ppi javpazak pesa terib chiqdim.* (Abdulla Qahhor —O'tmishdan ertaklar[], 75-bet) ( javpazak pesa- chala pishgan o'rik.)

## 11. Vaqt bilan bog'liq so'zlar:

*Ertamatan solgan go'jani hozir suzmay qachon suzadi?* (Murod Mansur —Judolik diyori[] 4-5 qism, 13-bet)

## 12. Ismlar

*Sen to'g'ri aytding, Adu!- dedi Sayyora arg'amchida o'tirib atrofga tikilar ekan.* (O'lmas Umarbekov —Odam bo'lislis qiyin[], 131-bet)

## 13. Hayvonlar nomlari

*Shibilg'oni deysizmi, shakarangur deysizmi, echkiemarmi- hammasi shu bog'da bo'ladi.* (O'tkir Hoshimov —Dunyoning ishlari[], 60-bet)

14. Shaxs bilan bog'liq so'zlar

*Kel, bacham!- dedi pastdan qo'lini cho'zib. (O'tkir Hoshimov —Ikki eshik orasi, 45-bet)*

15. Marosim va tadbirlar bilan bog'"liq so'zlar

*Challarni o'tkazmaguncha kelmaydilar, atlas ko'ylagingni kiy. (O'tkir Hoshimov —Ikki eshik orasi, 78-bet)*

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Abdullayev F. Xorazmshevalari. Toshkent, O'qtuvchi. - 1961. 140 – b.
2. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. Т., Маънавият, 2002. Б. 29.
3. Шомақсудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. Т., Ўқитувчи, 1983. Б. 57.
4. Солижонов й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол. фанл. док.диссертацияси автореферати, Тошкент, 2002.

## АСОС ВА ХОСИЛА СЕМАЛАРИ БИЛАН БИРГА ЎЗЛАШГАН СЎЗЛАР

**Нарзиев Наврўз Толлибоевич**

*Тошкент давлат аграр университети  
Самарқанд филиали асистент-ўқитувчisi,*

**Аннотация:** Яхлит бир бутун сема ва синтактик хусусиятлари билан ёки маълум бир маъноси ва функцияни бажаршиига кўра сўзлар асос тилдан бошқа бир тилга ўзлаштирилиши мумкин. Уибу мақолада хорижий тиллардан асос ва хосила семаларига кўра ўзбек тилига ўзлашган бир неча сўзлар таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** сема, изоҳли лугат, эълон, шиллинг.

**Аннотация:** Слова могут быть ассимилированы из базового языка в другой язык с целым семафором и синтаксическими особенностями или в соответствии с выполнением определенного значения и функции. В статье анализируются несколько слов с иностранных языков на узбекский по основной и производной семантике.

**Ключевые слова:** сема, толковый словарь, афиша, шиллинг.

**Abstract:** Words can be assimilated from the base language to another language with a whole semaphore and syntactic features or according to the performance of a certain meaning and function. This article analyzes several words from foreign languages into Uzbek according to the basic and derivative semantics.

Key words: *sema, Glossary, poster(afficher), shilling.*

**Афиша.** “Ўзбек тилининг изоҳли лугати” да: Спектакль, концерт, лекция ва шу кабилар хақида кўринарли жойларга ёпишириладиган эълон.

**Afficher.** n.f. Feuille imprimée, souvent illustree, portant un avis officiel, publicitaire, etc., placardée dans un lieu public, être annoncé par des affiches, en parlant d'un spectacle. **Afficher.v.t.** 1)Placarder, apposer (une affiche).2)Annoncer par voie d'affiche. 3)Montrer avec ostentation, étailler. **Afficher. n.f.** Petite affiche.

**Трамвай.** “Ўзбек тилининг изоҳли лугати” да:

Электр кучи билан ишлайдиган шаҳар ер усти темир йўли. Шундай йўлнинг поезди, вагонлари. Инглиз тилида: **Tram** (also **tramcar**) US Streetcar, trolley, noun a vehicle that carries passengers and is usual driven by electricity. Trams run on rails laid along the streets of a town.

**Транзистор.** “Ўзбек тилининг изоҳли лугати” да:

Электр сигналларни кўпайтирувчи яrim ўтказгичли электрон асбоб

Транзисторли приёмник.

Инглиз тилида: **Transistor.** A small electronic device used in radios, televisions and similar appliances, for controlling an electrical signal as it passes along a circuit. (Also Tran, sistor radio) a radio with transistors, esp a small one that can be carried.

**Шиллинг.** “Ўзбек тилининг изоҳли лугати” да:

Англияда 1/20 фунт стерлингга тенг танга пул.

Австрияда ва бази бир африка мамлакатларида пул бирлиги.

**Инглиз тилида:** Shilling. noun.

(Until 1971) a British coin worth 12 old pennies; one 20<sup>th</sup> of a pound.

The basic unit of money in Kenya, Uganda and Tanzania.

**Стандарт.** Маҳсулотларнинг сифати, таркиби жиҳатдан бир хил бўлишини таъминлайдиган намуна. *Давлат стандарти.*

**Инглиз тилида:** STANDARD, n. 1.(often Plural) a level of quality; a school which sets high standards of behavior. We provide a first-class standard of service. Mountain /raise/ improve safety standards. 2.[C.U] a specified level of quality: His work does not reach the required standard. I am afraid your work is not up to standard Local beaches fall short of/do not meet European standards of cleanliness. Standard lamp (us floor lamp) n, a tall lamp which has its base on the floor, used esp. in a living room (LIVING) Standard of living n (plural Standards of living) a level of comfort and wealth amiable to a person or group in a particular country, area, etc: They have / enjoy a high standard of living.

**Старт.** (инглизча) 1. Спорт мусобақаларининг бошланиш ўрни. Учиш аппаратининг ердан кўтарилиш жойи. *Старт чизиг`и старт майдон.* 2. Спорт мусобақаларининг бошланиш пайти. Учиш аппаратининг ердан кўтарилиш пайти. “Биз янги космик старт бўсағасида турибмиз.”

**Инглиз тилида:** START (2) [sta:t] V –note at begin. 1. ~ (out) to begin a journey; to leave: We plan to start (out) at 6 o'clock. *I started after her* (i.e. followed her) to tell her the news. 2. To begin sth/to do sth: to begin to happen; I start work at 9 am, I had to start (i.e. begin using) a new tin of paint. *He's just started a new job. I arrived after the play had started I have had enough criticism for one day- don't you start. They started (the concert) with a piece by MOZART.* 3. – (on) sth (a) to begin doing a job an activity, a piece of work, etc; start (on) one's journey home. Have you started (on) (ie begun to write or read) your next book yet? It's time to get started on / time we got started on (ie began) the washing up. (b)~ sb on (doing) sth to make sb begin doing sth: start babies on solid food. 4. (A) (of a machine, etc) to begin operating; The car won't start. (b) To make a machine etc begin operating: I can't start the car. 5. To bring sth into existence; to cause or enable sb/sth to begin or begin happening: start fire. He decided to start a newspaper. His uncle started him in business.(ie helped him, eg by giving money). The news started me thinking. The smoke started her coughing.

**Чампион.** Спорт мусобақаларида, ўйинларда ғолиб чиққан, биринчи ўринни егаллаган кишига бериладиган унвон ва шу унвонга ега бўлган киши. “Бокс бўйича мамлакат чемпиони”.

**Инглиз тилада:** CHAMPION (also infml champ.). 1. A person, a team, an animal, etc that has one a competition; a chess champion. *The English football teams were world champions in 1996.* The heavy weight (boxing) champion of the world, a champion swimmer/ horse/marrow. 2. A person who fights, argues or speaks in support of sb/sth; a champion of the poor/ of woman's rights. Champion v. to support sb/sth to defend sb/sth vigorously: [Vn] champion the cause of gay rights. Championship n,(often plural) 1. A contest to decide who the champion is: win the world championship. The European Championships are being held in Rome, a championship medal. 2. [C] The position of being

a champion: The Championship is ours—note at SPORT. [U]strong and active support: her lifelong championship of good causes.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Раҳимов А. Лексик ва семантик деривация муаммолари. –Т., 2011.
2. Н.Г. Комлез “Словарь новых иностранных слов” МГУ., 2012 г.
3. О. Жуманиёзов Инглиз тилидан ўзбек тилига ўзлашган сўзлар, монография, 1987 й.
4. Н.Т. Нарзиев,- Сўз ясовчи бирликларнинг семантик муносабати., “Чет тилларни ўрганишнинг турлича ёндашувлари: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий-амалий конференцияматериаллари, Жиззах 2021й.
5. Н. Т.Нарзиев - Инглиз тилида лексик деривация ҳодисасининг воқеланиши “Чет тилларни ўрганишнинг турлича ёндашувлари: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий-амалий конференцияматериаллари, Жиззах 2021й.
6. Н.Т.Нарзиев Lexical meaning of the word, conferences.kz Инновационное развитие науки и образования С.278-280. 2020.

## РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ

Мамараимова Дилдора Бахтияровна

Ст.Преподаватель, Термезский Государственный Университет

**Аннотация:** Вопросы коммуникативного обучения иностранному языку в системе профессионального образования приобрели особое значение в условиях возрастания значимости иностранных языков, вызванных тенденциями глобализации и интернационализации в последние десятилетия. Ориентация на новые цели образования требует изменения методов и форм организации учебного процесса. Преподаватель иностранного языка должен владеть современной технологией преподавания, используя интерактивные технологии, которые особенно целесообразны при ускоренном обучении студентов иностранному языку. Сочетание традиционных интенсивных методик обучения и современных интерактивных методов является важным условием эффективного обучения иностранному языку в вузе.

**Ключевые слова:** Роль, метод, язык, особый.

Интерактивный метод («*inter*» – это взаимный, «*act*» – действовать) – означает взаимодействовать, находиться в режиме беседы, диалога с кем-либо. Другими словами, в отличие от активных методов интерактивные ориентированы на более широкое взаимодействие обучаемых не только с преподавателем, но и друг с другом и на доминирование активности учащихся в процессе обучения. Место преподавателя в интерактивных занятиях сводится к направлению деятельности студентов на достижение целей занятия. Занятия, проведенные в интерактивном режиме, позволяют включить всех учащихся в активную работу, обеспечить каждому студенту посильное участие в решении проблем. В результате слабые обретают некоторую уверенность в собственных силах, сильные ощущают пользу, помогая товарищам понять материал. Если при традиционной системе обучения преподаватель и учебник были основными и наиболее компетентными источниками знаний, то при новой парадигме преподаватель выступает в роли организатора самостоятельной познавательной деятельности учащихся, компетентным консультантом и помощником, знания же студенты получают в результате своей активной познавательной деятельности. В процессе работы в интерактиве у них формируются коммуникативные навыки, способность к сотрудничеству и взаимодействию, развивается критическое мышление, что является необходимым для их будущей профессиональной деятельности. Современная педагогическая наука богата целым арсеналом интерактивных подходов, среди которых можно выделить следующие: творческие задания; работа в малых группах; обучающие игры (ролевые игры, имитации, деловые игры и образовательные игры); проектная методика (социальные проекты, соревнования, радио и газеты, фильмы, выставки,

представления); разминки; изучение и закрепление нового материала (интерактивная лекция, работа с наглядными пособиями, видео- и аудиоматериалами, «студент в роли преподавателя», «каждый учит каждого», мозаика (ажурная пила), использование вопросов, Сократический диалог); обсуждение сложных и дискуссионных вопросов и проблем («Шкала мнений», ПОПСформула, проективные техники, «Один – вдвоем – все вместе», «Смени позицию», «Карусель», «Дискуссия в стиле телевизионного ток-шоу», дебаты, симпозиум); разрешение проблем («Дерево решений», «Мозговой штурм», «Анализ казусов», «Переговоры и медиация», «Лестницы и змейки»); кластер, сравнительная диаграмма, пазл, целенаправленное чтение и ряд других. [1] Остановимся подробнее на некоторых методических приемах. Прием «Фишбоун» (в переводе «рыбный скелет»). Студенты передают содержание прочитанного или изученного материала по следующему образцу: голова – вопрос темы, верхние косточки – основные понятия темы, нижние косточки – суть понятия, хвост – ответ на вопрос. Записи должны быть краткими, представлять собой ключевые слова или фразы, отражающие суть. Прием «ПОПС-формула». По-английски он пишется следующим образом: PRES-formula (Position-Reason-ExplanationorExample-Summary). В результате перевода получилась аббревиатура ПОПС. В данном случае студентам предлагается написать четыре предложения, отражающие следующие четыре момента ПОПС-формулы: П – позиция; О – объяснение (или обоснование); П – пример; С – следствие (или суждение). При оценке данного метода отмечается, каким критериям соответствует или не соответствует выступление того или иного студента. Например, позиция сформулирована ясно, кратко, доступным для понимания аудитории языком и т. п. В объяснении имеются ссылки на общественные ценности, законы и т. п. Объяснение поддерживает заявленную позицию, является убедительным. Пример вызывает всеобщий интерес, является общественно значимым. В нем есть ссылки на источники – газеты, мнения экспертов, личный опыт. Пример дает достаточное, но не избыточное количество деталей. В суждении кратко повторена суть позиции, подведен итог выступлению, предложены конкретные действия для решения проблемы.

#### ЛИТЕРАТУРА:

1. Щукин А. Н. Современные интенсивные методы и технологии обучения иностранным языкам: учеб. пособие. М.: Филоматис, 2008. 188 с.
2. Кашлев С. С. Технология интерактивного обучения. Минск: Белорусский верасень, 2005. 176 с.

## ТИЛНИНГ ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИ ВА ТАЪСИРИ

**Нарзиев Наврўз Толлибоевич**

*Тошкент давлат аграр университети  
Самарқанд филиали асистент-ўқитувчisi,*

**Аннотация:** Ушбу мақолада тилларнинг ўзаро бир-бiri билан лексик ҳамкорлиги ва таъсири, сўз ўзлаштиришида ички ва ташқи деривация ҳодисалари хусусида фикрлар юритилган. Шунингдек, деривация ҳодисаларининг воқеланини механизмларига доир бир қатор муҳим муроҳазалар билдирилган.

**Калит сўзлар:** калкалаши, ўзлашма, формант, конструктив, реализация, кенгайши, торайши, аффикс.

**Аннотация:** В статье рассматриваются лексическое взаимодействие и влияние языков друг на друга, явления внутренней и внешней деривации в усвоении речи. Есть также ряд важных соображений относительно механизмов происхождения.

**Ключевые слова:** перенос, ассимиляция, формант, конструктив, реализация, расширение, урегулирование, аффикс.

**Abstract:** This article discusses the lexical interaction and influence of languages with each other, the phenomena of internal and external derivation in word acquisition. A number of important considerations have also been made regarding the mechanisms of occurrence of derivation events.

**Keywords:** transfer, assimilation, formant, constructive, realization, expansion, narrowing, affix.

Тилнинг ўзаро ҳамкорлиги ва таъсири лексикологияда сўз ўзлаштириш ва калкалаш асосида ўзлаштириш каби ҳодисалар доирасида анча кенг кузатилади. Бироқ тилларнинг ўзаро таъсирни бу билан ҳам чегаралаб бўлмайди. Чунки ўзлаштириш жараёни ўзлаштирувчи тилнинг деривацион тизимига ҳам ўз таъсирини ўтказади. Бунинг ўзига хос далилларини ўзлашма сўзлар андозасида вужудга келадиган лексик дериватлар, ўзлашма асос ва формантларнинг лингвистик фаолияти, ўзга тилга мансуб сўз ва иборалар таржимаси орқали кузатиладиган семантик жараёнлар, ҳатто жумлаларнинг конструктив ўзгариши мисолида ҳам кузатиш мумкин. Ана шулардан келиб чиқсан ҳолда, манбаларда лисоний деривацион ҳодисаларнинг икки турини, яъни муайян бир тил имкониятлари доирасида содир бўладиган **ички деривацияни** ҳамда тиллар ҳамкорлиги асосида вужудга келадиган **тиллараро деривацияни** фарқлаш лозимлиги қайд этилади.

Гарчи, ҳозирга қадар тиллараро деривация маҳсус тадқиқ қилинмаган бўлса ҳам, манбаларда бу ҳодисаларнинг воқеланиш механизмларига доир бир қатор эътиборли муроҳазалар билдирилганлигини кўриш мумкин. Хусусан, А.И.Смирницкийнинг изланишида бу жараён гарчи деривация термини воситасида фарқланмаган бўлса ҳам, ўзлаштириш жараёнида содир бўладиган лингвистик адаптация масаласига алоҳида эътибор қаратилганлиги эътиборга моликдир. Унинг ёзишича, ўрта инглиз тилидаги

*bote* (*bo:t // bu:t*) сўзи ҳозирги инглиз тилидаги *boot* сўзининг этимологик варианти бўлиб, ҳар иккала форма воситасида пойабзал маъноси ифодаланади. Мазкур сўзнинг кўплик шакли, яъни *boots* рус тилига бутцы шаклида ўзлаштирилган бўлиб, ушбу сўз орқали «*тагчармига маҳсус тиг ўрнатилган ва футбол ўйинида кийиладиган пойабзал*» маъносини ифодалашга хизмат қиласди. Кўринадики, *boots* // бутцы сўзи инглиз тилидан рус тилига кириб келиши билан унинг ташки формасида ўзгариш содир бўлганидек, маъносида ҳам асос тилдан фарқланиш кўзга ташланмоқда. Ўз навбатида, айнан ана шундай тафоввутни унинг грамматик реализацияси мисолида ҳам кузатиш мумкин. Зеро, *boots* // бутцы сўзининг рус тилидаги турланиши асос тилдан, инглиз тилидан фарқли равишда олти келишикли система асосида амалга оширилади. Ана шундан хулоса қилиш мумкинки, мазкур сўзнинг инглиз тилидан рус тилига ўзлашиши унинг яхлит ҳолда, яъни грамматик жиҳатдан шаклланиш имконияти билан биргаликда ўзлаштирилмасдан, сўзнинг грамматик шаклдан холи бўлган лугавий парчасигина ўзлаштирилаётган тил учун асос қилиб олинади. Шунинг учун ҳам, ўзлашма сўзнинг асос тилдаги грамматик моҳияти ўзлаштирилган тилда ўз қимматини йўқотади. Жумладан, рус тили учун *boots* сўзидаги кўплик ифодаловчи –s формаси аҳамиятсизdir.

А.И.Смирницкий ушбу фикрига диққат қилинадиган бўлса, тилларо деривациянинг ёрқин намунасини илғаш мумкин. Зотан, юқорида қайд этилганидек, муайян таянч структуранинг кенгайиши ёки торайиши натижасида юзага келадиган ҳар қандай ҳосила замирида деривация ҳодисаси ўз ифодасини топади. Бу қонуният таҳлил қилинган сўзга тадбиқ этиладиган бўлса, инглиз тилидаги *boots* сўзи деривацион жараённи воқелантивучи таянч структура вазифасидаги бирликни, рус тилидаги бутцы ўзлашмаси эса ҳосилани тақозо этади. Зеро, *boots* сўзи рус тилига буцы шаклида ўзлаштирилиши билан унинг ташки структурасида янгиланиш бўлганидек, ички структурасида маънонинг торайиши, ихтисослашиши асосида янгиланиш содир бўлмоқда.

А.Фуломов: «Калкалаш (лексик калка: бошқа лексик-семантик модел асосида янги сўз ҳосил қилиш) ҳам сўз ясалишининг бир йўлидир», -деб ёzádi. Унинг эътирофига кўра, калкалаш оддий таржима эмас, чунки калкалашда янги сўз туғилади. Бу жараёнда тушунчанинг ўзи бошқа тилдан олинади ва ўша тилда шу тушунчани ифодаловчи сўзга қараб янги сўз ясалади ва бу сўз эса бошқа тилнинг таъсири билан келиб чиқади.

В.Г.Гакнинг эътирофига кўра: «Тиллар ҳамкорлиги фақат сўз ўзлаштириш билангина чегараланмайди. Чунки бундай ҳамкорлик асосида сўз ясаш элементларининг: сўз ясаш асоси, аффикслари ва моделларининг кириб келиши ҳамда ўзлаштирилган ана шу механизмлар асосида янги-янги сўзлар ясалиши орқали ҳам кўзга ташланади».

И.Г.Разинанинг кузатишларида тиллар ўртасида содир бўладиган бундай деривацион муносабат бир тилдаги жумланинг бошқа тилга таржимаси мисолида тадкиқ этилган бўлиб, мазкур ишда асос тилдан таржима воситасида ўзлаштириш жараёни «тиллараро деривация» термини билан юритилади.

Бизнинг назаримизда бундай тадқиқотлар лисоний ва нутқий деривация жараёни эътиборидан келиб чиқиб амалга оширилмоғи лозим. Хусусан, лисоний деривация жараёнида тиллараро ҳамкорлик учун энг қулай вазият сўз ўзлаштиришdir. Зеро, сўз ўзлаштириш орқали, биринчидан, асос тилдаги бирликларнинг ўзлаштирувчи тилдаги семантик муқобилини танлаш билан боғлиқ деривацион жараён, иккинчидан, асос тилга хос лингвистик бирликни ўзлаштирувчи тилдаги туб ёки ясама шаклда транспозиция қилиш билан боғлиқ лингвистик жараён ўз ифодасини топади. Шунинг билан бир қаторда, баъзан тўғридан-тўғри ўзлаштириш жараёни ўзлаштирувчи тилнинг ясалиш системасига янги моделларнинг кириб келишига ҳам сабаб бўлади.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Раҳимов А. Лексик ва семантик деривация муаммолари. –Т., 2011.
2. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. –М., 1956. –С.236.
3. Фуломов А. Сўз ясалиши //Ўзбек тили грамматикаси. –Т., 1975. 1-том. 25-бет.
4. Гак. В. Г. Сравнительная типология французского и русского языков. –Л., 1977. -С.240.
5. Разина И.Г. Перевод как процесс межязыковой деривации. [www.lib.tsu.ru/mminfo/000349301/01/image/66-71.pdf](http://www.lib.tsu.ru/mminfo/000349301/01/image/66-71.pdf)
6. Н.Т. Нарзиев,- Сўз ясовчи бирликларнинг семантик муносабати., “Чет тилларни ўрганишнинг турлича ёндашувлари: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий-амалий конференцияматериаллари, Жиззах 2021й.
7. Н. Т.Нарзиев - Инглиз тилида лексик деривация ҳодисасининг воқеланиши “Чет тилларни ўрганишнинг турлича ёндашувлари: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий-амалий конференцияматериаллари, Жиззах 2021й.

# PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Norbo`tayeva Nodira Boynazarova**

*Toshkent viloyati Bo'ka tumaniga qarashli  
37-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'larning eng muhim bo`lagi hisoblanmish boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning sifatli ta'lim olishlari uchun kerak bo`lgan omillar, bugungi kun ta'limi haqida qisqacha bayonlar berib o'tildi.*

**Kalit so`zlar:** *Boshlang'ich sinf, ta'lim, texnologiya, savodxonlik, Multimediali darslar, Interaktiv doskalardan foydalanish.*

### **KIRISH**

Bugungi kun o'qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo'lib, ta'larning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'otishlari, xurmat-ehtirom tuyg'ularini shakllantirib borishlari talab etiladi. Kelajak avlodni manaviyatli etib tarbiyalash, ularning hayotidagi katta va muhim poydevorini yaratib beruvchi kishi bu o'qituvchi, pedagog hisoblanadi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati hisoblanib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham rivojlanib, o'sib boradi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida kelajakda undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarning birdek takomillashuviga bog'liq bo'lib, ular umumta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, uni o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishdan iborat. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchining didaktik o'quv materiali, dars ishlanmalari kabilar kiradi.

Biz hozir axborot texnologiyalari asrida yashamoqdamiz. Texnologiya hayotimizning eng tub-tublariga ham kirib kelishga ulgurdi. Hozirgi zamon ham aynan shuni talab qilmoqda. Hozirgi kunda ta'limni texnologiyasiz tasavvur etish mushkul. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv

jarayonida keng foydalanilmoqda. O‘qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko’rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan: o‘qish va ona tili fanlarida katta ekranda harflarni, so‘zlarni bir-biriga qo‘sib o‘qish, so‘ngra kichik ertak va hikoyalarni o‘qish, harflarni to‘g‘ri va chiroylar yozish; matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o‘yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o‘quvchining og‘zaki nutqini rivojlanishiga, og‘zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

O‘qituvchining o‘quvchilarga qay tarzda ta’lim berishi, tanlangan yo`nalish va metod, uslublari alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda boshlang’ich sinf o‘qituvchilar tajribasida “Charxpalak”, “Aqliy hujum”, “Dumaloq stol”, “BBB”, “Bumerang” “Klaster” va kichik guruhlarda ishslash metodlari qo’llanilmoqda.

“Multimediali darslar”dan foydalanish ham boshlang’ich ta’lim dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi: - o‘quv materialini ko’rgazmali taqdim etadi; - yangi materialni jadallik bilan yetkaza biladi; - axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko‘magida boshqara oladi; O‘quvchilarda esa “multimediali dars”lar fanga bo’lgan qiziqish uyg’otish, o’z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o’rganishda o’zi uchun qulay bolgan tezlik va o’zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi.

O‘quv jarayonida Interaktiv doskalardan foydalanish ta’lim jarayoniga elektron o‘quv va multimedia materiallarni olib kirish uchun samarali vositadir. Katta ekranga ya’ni elektron doskada axborotlarni yaxshi qabul qilishlari hisobiga o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati oshadi. O‘quvchilar mustaqil ishlaydilar, sinfdoshlari va o‘qituvchilari bilan birga fikrlaydilar. Dars jarayonidagi ushbu hamfikrlilik muhiti o‘quvchilarning sinfdoshlari orasida mavqeい va o’ziga nisbatan ishonchining ortishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning fanga qiziqishlari kuchayib, o‘quv materiali tez yodda saqlanadi. Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish lozimki boshlang’ich ta’lim sifat va samaradorlikni rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va o‘qimishlilik darjasasi, bolalar psixologiyasi, zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarni puxta bilishi boshlang’ich ta’lim sifat va samaradorligi ta’minalashga muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida dars o’tish ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda mavzuni o’rganishga ishtyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko’nikma va malakalarini shakllantiradi.

## XULOSA

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko’nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy

boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiylar maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlesh, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rghanish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoniy paydo bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.** Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida inovasion faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari. //Uzluksiz ta'lim, 2010
- 2.** Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi (o'quv qo'llanma) NAMANGAN - 2020
- 3.** <https://hozir.org/>
- 4.** <https://kun.uz/>
- 5.** <https://fayllar.org/>

**EGOSENTRIK NUTQ VA TAFAKKUR HAMDA UNING BOLANINING  
SOTSIALLASHUVIDAGI O'RNI**

Shukurova Sojida Hasan qizi  
*O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi*  
*Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada egosentrik nutqning nima ekanligi, bu tushunchalar haqida L.Vigotskiy va J.Piaje bildirgan fikrlar hmada egosnetrik nutqning bolaning sotsiallashuvidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *egosentrik nutq, egosnetrik tafakkur, ontogenetika, sotsiallashuv, ichki nutq, tashqi nutq, eksperimental tajriba.*

Ko'pchiligidan bolalarning o'zlari bilan o'zlari gaplashib turganliklarining guvohi bo'lganmiz. Bu qanday hodisa ekanligini bilish, albatta, qiziq. Bu hodisa nutq egosentrizmi deb ataladi. Nutq egosentrizmi – bu ichki va tashqi nutq orasidagi oraliq holat hisoblanadi. Ushbu nutq fikrlash holatga ko'ra ichki, ammo ifoda etilishiga ko'ra tashqi nutq hisoblanadi. Nutq egosentrizmi asosan 3-5 yoshli bolalarda uchraydi. Odatda, bu nutq turi kichik maktab yoshidagi bolalarda kuzatilmay qo'yadi. Egosentrik nutq hodisasini asosan Piaje va Vigotskiy o'rganishgan.

Piaje egosentrik nutqga shunday ta'rif beradi: "Bu nutq shuning uchun ham egosentrikki, chunki bu holatda bola faqat o'zi haqida gapiradi, chunki u hamsuhbatiga e'tibor qartishni istamaydi. Hamsuhbat bo'lgan odam uning uchun shunchaki, "birinchi uchragan odam" hisoblanadi. Bolaga faqat uni kimdir eshitayotgani haqidagi tasavvurning o'zi yetarli bo'ladi".

Vigotskiy esa egosnetrik nutqni tashqi va ichki nutq orasidagi nutq turi deb ta'riflaydi. Vigotskiyning fikriga ko'ra egosnetrik nutq bola qiyin vaziyatga tushgan vaqtida doimiy holatiga nisbatan ko'proq yuzaga keladi. Vigotskiy bu borada eksperimental tajriba o'tkazgan. Bu tajribada u bolalarga chizish uchun qog'oz va rangli qalamlar bergan va u uchun eng kerakli bo'lgan rangli qlamni berkitib qo'ygan va bu jarayonda egosentrik nutq hosil bo'lishi kuzatilgan. Bunda bola o'zi bilan o'zi gaplashgan va go'yoki unda yetishmayotgan rangni boshqa rang bilan almashtirishni kelishib olgan. Bu tajriba orqali Vigotskiy egosentrik nutqni keltirib chiqaruvchi asosiy faktor bu qiyinchiliklar yoki vaziyayning silliq ketishini buzadigan birorta omil ekanligini aniqladi. Ulardagi nutq o'zlari tushib qolgan vaziyatlarini o'zlariga tushuntirishga va kelgusi harakatlarini rejalashtirishga qaratilgan bo'ladi. Ammo kattaroq yoshdagi bolalar bu holatda qilishi kerak bo'lgan xatti-harakatlarini ichida o'ylab keyin amalga oshirgan.

Egosentrik nutq davomida bola turli xil mazmunsiz so'z va bo'g'irlarni takrorlashi yoki mazmunli so'zlarni ishlatishi ham mumkin. Ammo bu holatda bola o'zining oldidagilarga e'tibor bermaydi. Ular bolaning gapini tushunishlari ham bola uchun ahamiyatga ega bo'lmaydi. Ko'pincha egosentrik nutq davomida bolaning gapirayotgan gaplari o'zining qilayotgan harakatlariga yaqin bo'ladi. Go'yoki u o'zining qilayotgan

ishlarini kimgadir tushuntirishga urunadi. Egosentrik nutq davomida bola uchun faqat o'zining gapirayotganligi muhim bo'ladi, qolgan narsalarga esa u e'tibor qaratmaydi. Piajening o'tkazgan tadqiqotlarida bola 3-5 yosh bo'lganida unda egosentrik nutqning shakllanishi maksimal darajaga yetishi aniqlandi. Bu yoshda egosentrik nutqning hosil bo'lishi 54-69% ga yetadi. Keyinchalik esa sekin-asta bu holat kamayib boradi va bola 6-7 yoshga yetgach bu holat 0% gacha tushib ketishi mumkin. Piaje bu holatning asosiy sababi bola 6-7 yoshga yetgach sotsiallashuvi deb hisoblaydi.

Piajenining fikriga ko'ra egosentrik nutq bolaning austik ya'ni individual holatidan sotsial holatiga o'tishida katta ahamiyatga ega. Chunki bola egosnetrik nutq davomida o'ziga gapirsa ham, bu nutq tashqi nutq sifatida amalga oshiriladi. Hammamizga ma'lumki, tashqi nutq biz boshqalar bilan muloqat qiladigan nutq turi hisoblanadi. Piaje sotsiallashuv bola ontogenezining uchunchi bosqichiga o'tishini ta'minlovchi vosita deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra bu bosqich egosnetrik nutq asta-sekin yo'qolishni boshlaganda boshlanadi. Piaje egosnetrik nutqning o'zi ajratgan kollektiv monolog turini sotsial nutqqa yaqin deb hisoblaydi va uning fikriga ko'ra aynan shu nutq bolaning sotsiallashuvida katta ahamiyatga ega. Kollektiv monolog- bu bolaning boshqalarga faqat o'zi haqida gapirishidir. Kollektiv monologda bola uchun uni eshitishayotganligi umuman muhim bo'lmaydi, uning uchun faqat o'zi haqida gapirish muhim. Aynan shu nutq tufayli bolalar birga oynayotganliklarida ko'pincha urishib qolishadi. Chunki, ularning har biri o'zi haqida gapirishni istaydi. Bolaning o'zi haqida boshqalarga gapirib berishi, garchi u uchun uni eshitishlari qiziq bo'lmasada, sotsiallashuv sari tashalgan dastlabki qadam hisoblanadi. U bu nutq turini bola boshqa odamga orientatsiya mavjud bo'limganligi uchun sotsial nutq deb hisoblamaydi. Egosnetrik nutq bolaning maktabga borishi va boshqalar bilan bo'ladigan muloqot jarayoniga tayyorlash vazifasini bajaradi, va u kattaroq bo'lganligi sari u nutqini boshqalarga yo'naltira boshlaydi.

Piaje egosnetrik tafakkurni bolaning biror narsani tushuntirishda faqat o'zini tomonidan aytishi deb hisoblaydi. Ammo Vigotskiy bu holatni egosnetrik nutq sifatida ta'kidlab o'tadi. Bola bunda ko'rgan narsasi haqida fikrlarini gapiradi. Masalab, u velosiped chizayotgan bo'lsa , velosipedning tarkibiy qismlarini ovoz chiqarib aytadi, nimani chizayotganligini o'ziga o'zi tushuntiradi. Egosentrik tafakkur 2-3 yoshli bolalardan 7-8 yoshli bolalargacha mavjud bo'ladi. Egosentrik tafakkur ham bolaning sotsial hayotga moslashishida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, bola o'ziga o'zi qilayotgan harakatlarini tushuntirish orqali asta-sekin o'z fikrlarini boshqalarga ham tushuntirishni o'rganadi. Bu esa uning boshqalar bilan muloqot qilishida katta ahamiyatga ega. Piajening fikriga ko'ra odam biror bir o'zining fikrini yaxshilab tushunishi uchun uni boshqalarga tushuntira olishi kerak. Bola o'zini fikrini tushunib olishi uchun ham uni ovoz chiqarib aytadi. Lekin egosnetrik tafakkur davomida bola o'zini boshqalar o'rniga qo'yib ko'rolmaydi, uning fikrlari markazida faqat o'zi turadi. Masalan , unga o'zining nechta aka-singillari borligi so'ralsa u to'g'ri javob beradi, ammo uning aka yoki singlisinig nechta aka-singillari borligi so'ralsasa u bu qatorga o'zini qo'shmaydi.

Xulosa qilib aytganda, egosentrik nutq va tafakkur markazida bolaning o'zi turadi. Shuning uchun ham u aynan "ego"ga yo'naltirilgan ya'ni egosentrik deb ataladi. Egosentrik

nutq ham, tafakkur ham bolanining sotsiallashuvida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu nutq va tafakkur yo'qolib borishi bilan bola sotsiallashib boradi. Xullas, egosentrik nutq va tafakkur bolaning sotsial hayotga moslashishi uchun zaruriy bo'lgan bolalar ontogenezining bosqichi hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. Психологические исследования /Л. С. Выготский. – М : Лабиринт, 1996.
2. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка / Ж. Пиаже. – М. : РИМИС, 2008
3. Хрестоматия по общей психологии. Выпуск III. Субъект познания/Ответственный редактор В.В.Петухов, Редакторы-составители Ю.Б.Дормашев, С.А.Капустин. – М., 1998.
4. Блейлер Э. Аутистическое мышление / Э. Блейлер. – Одесса, 1927.

**MATEMATIKA FANININING BOSHQA FANLAR BOG`LANISHI (FIZIKA,  
KIMYO)**

Javliyeva Klara O'rino

Toshkent shaxar Chilonzor tumani

178- IDU maktabi fizika va  
matematika fanlari o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Maqola mazmunida matematika fanining tabiiy fanlar bilan aloqasini keng yoritish va o`rgatish haqida malumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *riyoziyat, integratsiya, kristallo,*

Buyuk bobokalonlarimiz Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniylar davtida allomalar hozirgidek fanlarning alohida turlari bilan shug`ullanmasdan, ularni yaxlit va bir – birlari bilan aloqador holda o`rganganlar. Jumladan qadimgi dunyo mutafakirlarining ilmiy faoliyat doirasi ancha keng bo`lib, ular riyoziyat, fizika, astronomiya, kimyo kabi tabiiyot fanlaridan tabiblik, faylasuflik, musiqachi, qonunshunoslik, yozuvchi yoki shoirlik va hokazo kasblaridan ham xabardor bo`lganlar. Shuning uchun bunday odamlarni allomalar deb atashgan. Tariximizning taxminan uyg`onish davrlardan boshlab, fan va hunarmandchilik keng rivojiana boshlagan. 18-19 asrlarga kelib, fanlarning alohida-alohida ajralishi natijasida ya`ni differensiallashuvi natijasida matematika, fizika, ximiya, biologiya, astronomiya va boshqa fanlar vujudga kelgan. Yangi paydo bo`lgan mustaqil fanlar mukammallahib biror mantiqiy tugallik kasb etgandan keyin, ular hayotda o`z tadbiqini topa boshladilar. Demak, bu bilan tabiiyot – matematika siklidagi har bir fan haqiqiy dunyoning xossalari o`ziga tegishli doirada tobora chuqurroq o`rgana boshladilar. Galiley, N'yuton, Dekart, Leybnist, Bernulli, Gauss, Eyrey, Koopernik va boshqa olamga tanilgan olimlarning ishlari natijasida, matematika, astronomiya, fizika va boshqa alohida-alohida fanlar rivojiana boshladi. Tabiyot – matematika fanlari differensiallashuvi tobora jadal tus ola borib, ular tashqi olamning o`zaro aloqador bo`lgan xossa va xususiyatlarini alohida-alohida bir-biridan ajralgan holda o`rgana boshladilar. Fanlarni differensiallashuvi jarayoni bilan bir qatorda, tashqi olamni chuqur o`rganish uchun uning xossalari o`zaro aloqadorligini buzmasdan o`rganishga zarurat paydo bo`la boshladi.

Oqibatda fanlarning biror obyektning xossalari chuqur o`rganish uchun birgalikda tadbiq qilishga, yani fanlarning o`zaro aloqadorligini amalga oshirishga extiyoj tug`ildi. Shunga ko`ra turli sohalarda faoliyat korsatayotgan olimlarning o`zaro hamkorligi natijasida, ularning chegarasida yangi fanlar vujudga kela boshladi. Fanlarning defferensiallashuvi, o`z navbatida ularni birlashuviga, ya`ni integrallashuvi jarayoniga olib keldi. Fanlarning integrallashuv jarayoni natijasida, matematika-fizika, kristallografiya kristallo fizika, kristalloximiya, nazariy mexanika, bioximiya, biofizika, biokibernetika, geoximiya, geofizika astrofizika, radiotexnika, kibernetika kabi yuzlab fanlar paydo bo`ldiki, bularsiz zamonaviy ilmfan va texnika rivojlanishini tasavvur qilish mumkin emas.

Tabiiyot mazmunidagi fanlarning rivojlanishi o`z navbatida matematika fani taraqqiyotiga ijobiy ta`sir o`tkazdi. Ko`pgina fizikaviy tushuncha va g`oyalar matematikaning mazmunida ishlatila boshlandi. Jumladan “hosilaning mexanik ma’nosи”, “garmonik tebranishlar”, “Kristal panjaralar” kabi ko`pgina tushunchalar matematika fanining ayrim sohalarida o`z aksini topgan. “Integratsiya”-atamasining turli talqinlari mavjud bo`lib – bu, ayrim bo`lak, qismlarning birlashib, bir butun bo`lishidir. Ta’lim jarayonida o`quv fanlarini integratsiyalashda asosiy masala vazifalarning o`zaro birligini ta’minalashda, avvalo maqsad, metod, shakl vositalar va kuzatilgan natijalarni belgilab olishdir.

Bilimlarni matematiklashtirish fanlar integratsiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5-6 sinf matematika kursi arifmetika, algebra, geometriya elementlarini o`zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun bu darsliklar integrative darsliklarning namunasi sifatida amalda xizmat qilib kelmoqda. Koordinatalar metodini qo`llash algebra va geometriya kursini bir-biriga uyg`unlashib ketishiga olib keladi. Vektorlarning kiritilishi – geometrik materialni algebra vositasida o`rganishga imkon beradi, shu bilan bu ikki kursning yaqinlashuviga olib keladi. Matematikaga oid bilim, ko`nikma va malakalar fizika va kimyo fanlarini o`rgarishda qay darajada ishlatishi va aksincha matematika fanini o`rgarishda mazkur bilimlardan foydalanish darajasini aniqlash maqsadida matematika, fizika, kimyo darsliklaridagi mavzularning taqqosiy tahlilini qilish mumkin.

Funksional bog`lanish-fizikada keng ishlatiladigan munosabat. Funksiya, uning grafigi, ikki voqelik, to`plam orasidagi munosabat, moslik va uning xossalarni yaxshi o`zlashtirgan o`quvchi fizikadagi funksional bog`lanishlarni tez o`zlashtirib oladi.

Fizikadagi “Tekis to`g`ri harakat”, matematikada chiziqli funksiyadir  $y=kx+b$ . “To`g`ri chiziqli tezlanishli harakat  $V=V_0 + at$  esa  $y=kx+b$  kabitidir.

Fizika kursida: yoki Kimyo kursida:

Ta’limni integratsiyalash o`quvchilarda joshqinlik, fanlarni o`rganishga qiziqish hissini kuchaytiradi. O`quv fanlari bo`yicha bilim darajasini oshiradi, ularning aqliy faoliyatları rivojlanadi. Tabiatdagi uzviylikni fanlar orasidagi uzviylik orqali bilib oladilar. Integratsiyalashgan darsda talim tarbiya uzlusizligi va olgan bilimlarini amalda qo`llash o`quvchilarga qulaylik tug`diradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azamov A. Xaydarov B. Matematika sayyorasi. Matematikadan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish bo`yicha o`quv-uslubiy qo’llanma. –T.: “O’qituvchi”, 1993 y.
2. Matematikadan qo’llanma.— Toshkent: «O’qituvchi», 1970.
3. Matematikadan masalalar to‘plami.— Toshkent; «O’qituvchi», 1975

# KIMYO FANINI O'QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYA DASTURLARIDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI

Boysunov Farhod Panji o‘g‘li  
*Qashqadaryo viloyati Nishon tumani*  
*24-umumiy o‘rta ta’lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** O`zbekiston Respublikasi o`zining mustaqillikka erishgan kunlarining dastlabki bosqichidayoq ta`lim sohasida tubdan o`zgarishlar ro`y berdi. «Ta`lim to`g`risida»gi qonun dasturi amalida ta`limdagi katta o`zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Ta`lim mazmuniga keng qamrovli pedagogik texnologiya kirib keldi, maktab kimyo fan xonalarining zamon darajasida jihozlanish ishlari oxirlab bormoqda. Bu ishlarning ahamiyati beqiyosdir.

**Kalit so`zlar:** kimyo, virtual laboratoriya, ta`lim, ma`lumki, taraqqiyot, pedagog, rivojlanish, dars, qonun, uzviylik

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo`lgan ta`lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo`lidan borayotgan mamlakatimizning uzuksiz ta`lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko`tarish, unga ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta`lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan uzuksiz ta`lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Ma`lumki, uzuksizlik va uzviylik ta`lim tizimda ortiqcha takroriylikka chek qo`yib, avvalo jamiyatning ma`naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta`minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o`quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinushi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o`z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. Bu borasida misol keltirib berishim mumkun kimyo fanidan:

Kimyo fanini o`qitish bilan bog'liq o`quv muassasalari kimyo xonasi (laboratoriysi) ning har tomonlama to`liq va mukammal o`quv jixozlari va kimyoviy reaktivlar bilan ta'minlanish darjasini dars samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. O`quvchi tomonidan kimyo darsi jarayonida olingan nazariy bilimlar, asosan, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar yordamida mustahkamlanishi, oson o`zlashtirilishi hech kimga sir emas. Bu ishlarni amalga oshirishda moxir pedagoglarimiz o`z kuchini ayamasdan mehnat qilyaptilar.

Laboratoriya kimyo darslariga o`zgacha tus berib, mavzularni yangi pedagogik texnologiyalar asosida turli ko`rgazmali usullar bilan boyitadi. Uning darslarida amaliy mashg'ulotlarning o`rni ayniqsa beqiyos. Xozirgi ustozlar muntazam ochiq darslar o`tkazib, bu darslarda o`quvchilarga turli qiziqarli tajribalar va darslikdan tashqari foydali maslahatlar

to'g'risida ma'lumotlar berib boradi. Bu o'qituvchi har bir kunni turli ko'rgazmali qurollar, qiziqarli va noan'anaviy dars o'tishga bag'ishlaydi. Uning ijodi namunasini sinfdagi o'quvchilarining unga bo'lgan hurmati va mehr-muxabbatida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

### **Virtual kimyoviy laboratoriya.**

Dastur animatsiya /tenglama va boshqalar shaklida foydalanish mumkin bo'lgan reaksiyalar bazasi va laboratoriya jihozlari hamda kimyoviy moddalar to'plamiga ega.

Virtual laboratoriya dasturi turli moddalar bilan eksperimentlarni vizual o'tkazish imkonini beradi.

Turli dasturlar – virtual laboratoriyaning dasturiy ta'minoti qo'shimcha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dastur bilan ishslashni osonlashtirish uchun "assistant" tushunchasi, hisob-kitoblar asosida tuzilgan o'zgartirishlar majmui, eksperimentlarni qayd qilish uchun laboratoriya jurnali mavjud.

### **Kimyoviy AKT resurslari:**

Virtual laboratoriya bo'yicha dasturiy ta'minot – bu o'quvchilar tajriba o'tkazishlari uchun kerak bo'lgan kimyoviy moddalar va ularning miqdori, idish va boshqa jihozlarni tanlash imkonini beradigan dasturdir.

Bunday dasturlarni yuqori darajadagi moslashuvchanlik va nazorat darajasi tavsiflaydi. Virtual laboratoriya yana bir qancha afzallikkarga ega, ular yordamida o'qituvchi va o'quvchilar qo'yilgan maqsadlar, jihozlar, kimyoviy moddalar va reaksiyalar hamda sharoitlar mavjudligini hisobga olgan holda eng samarali eksperimentlarni tanlashlari mumkin. Bunday rejalashtirish mustaqil o'rganish orqali potensial qobiliyatlarni rivojlantiradi. Aslida virtual eksperimetlar – bu amalda o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotlariga qo'shimcha mashg'ulotlardir.

### **O'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi**

Axborot-kommunikatsiyaon texnologiyalar (AKT) o'qituvchilarining ta'lim berishida kasbiy rivojlanishi uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Bular:

- Ko'p marotaba foydalanishga mo'ljallangan o'quv materiallarini yaratish (Vaqtni tejash).
- Internet orqali o'qituvchilarining o'zaro almashinushi.
- O'quvchilarining o'quv materiallariga xohlagan vaqtida murojaat qilishi. Mazmunni tushunarli qiluvchi multimediyali materiallarni tayyorlash.
- Ishtirokchilarining davomatini va o'sishini qayd qilish.
- Zo'riqishsiz o'quv tizimini ta'minlash.

O'qituvchilar uchun asosiy afzallikkleri o'quvchilar ishini samarali boshqarish, saqlash va olib borish hamda vaqtini tejashdan iborat. Vaqtini tejash mashg'ulotlarga yaxshi tayyorlanish imkoniyatini beradi. O'qituvchilar AKT resurslaridan foydalangan holda nafaqat o'z bilimlarini yangilaydilar, balki nazariy bilimlarini ham orttirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Satirlarimni davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. kimyo haqida shunday qatorlarni qoralab ketganlar:

Texnika (techne - mahorat, san'at) - moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning extiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofdagi tabiatga ta'sir qilishiga imkon beradigan vositalar va ko'nikmalar majmui.

Kimyo, ximiya - moddalarning tuzilishi va o'zgarishini o'rganadigan fan. Kimyo boshqa fanlar qatori inson faoliyatining mahsuli sifatida vujudga kelib, tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zaruriy mahsulotlar ishlab chiqarish, biridan ikkinchisini xrsil qilish va, nihoyat, turli hodisalar sirlarini bilish maqsadida ro'yobga chiqdi.

Mustaqillik - davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi. M. tamoyillariga rioya etish davlatlararo o'zaro munosabatlarda yetakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish o'zaro tinchtotuv yashashning prinsiplaridan biridir.

Respublika (lot. respublica, res - ish va publicus - ijtimoiy, umumxalq) - davlat boshqaruvi shakli, unda bar cha davlat hokimiysi organlari saylab qo'yiladi yoki umummiliy vakolatli muassasalar (parlamentlar) tomonidan shakllantiriladi, fuqarolar esa shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega bo'ladilar.

**Xulosa.** Xulosa o`rnida shuni aytishim kerakki, xar qanday texnika bizning yoshlarimiz qalbidan joy olmoqda, Enlikda shu texnikani fanlarga bursak yoshlarimiz qanchalik bilimga qiziqishi ortadi dep o`ylaysiz? Misol tariqasida aytishim mumkun Kimyo fanida ushbu texnikalardan foydalangan xolda dars o'tish judayam maroqli ma qiziqarli bo`ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. <https://infourok.ru/kimyo-darsida-akt-dan-foydalanish-metodikasi-mavzusida-malaka-ishi-4256466.html>
2. <https://hozir.org/kimyo-fanini-oqitishda-axborot-texnologiyalaridan-foydalanish.html>
3. <https://studfile.net/preview/7882890/page:16/>
4. <https://uz.denemetr.com/docs/288/index-38961.html>

**MAKTABGACHA TALIM MUSSASASI TARBIYALANUVCHILARINING  
MA'NAVIY – AHLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING  
SAMARADORLIGI**

**Sobirova Sarvinoz Soyibjon qizi**

*Andijon viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi  
Izboskan tumani maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli  
13- maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi*

Bugungi kunda, fan-texnikaning jadal taraqqiyoti sharoitida har bir davlat o'zining istiqbol rejalarini belgilar yekan, kelajakda ushbu rejalarini amalga oshiruvchi yosh avlodni qobiliyatlarini rivojlantirishga, intellektual salohiyatini yuksaltirishga, ma'anaviyatini, umuminsoniy madaniyatini boyitishga alohida e'tibor berishi davr talabidir. Shu sababli mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Uzlusiz ta'limning dastlabki bo'g'inini maktabgacha ta'lim tashkil etadi va bu bosqich keyingi ta'lim turlariga —fundament vazifasini bajaradi. Shu ji<sup>o</sup>atdan ushbu ta'lim bosqichidagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish oar bir pedagoglarga muoim vazifa yuklaydi. Insoniyat taraqqiyotining asrlar sinovidan o'tgan qat'iy qonuniyatları va talablari bor. Har qanday taraqqiyotning asosi axloqdir. Har qanday tanazzulning sababi esa axloqsizlik, ma'naviy qadriyatlarning unutilishi va oyoq-osti qilinishidir. Axloqiy me'yorlar, ma'naviy chegaralar, inson xatti-harakatini tartibga solib turadigan talablar buzilgan, uning o'rnida cheksiz erkinlik berilgan joyda parokandalik yuzaga kelaveradi. Bugungi kunda ta'lim tizimining har bir bo'g'inida ta'lim muassasalarini rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etilayotgan bir davrda intellektual jihatdan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Maktabgacha tarbiya muassasalari xalqimizning milliy qadriyatlari, ularning urf-odat va an'analarini o'rganish muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada axloqiy sifatlarni va madaniyatni shakllantirish vazifasi va mazmuni uning ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy xislatlarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalashni taqozo etadi. Afsuski, axloqiy sifatlarni va madaniyatni tarkib toptirish uchun an'analarimiz, udumlarimiz, urf -odatlarimizni bolalar ongiga singdirishda hali to'liq tasavvurlarga ega emasmiz. Chunki asrlar davomida rivojlanib kelayotgan milliy qadriyatlarga, an'ana, udum va urf-odatlarga, xulq madaniyati haqidagi g'oyalarga haligacha to'liq e'tibor berilmayapti. Kuzatishlar, ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bolalarimiz milliy qadriyatlarni bo'lgan an'analar, udumlar va urf-odatlarimiz haqida to'liq tasavvur va tushunchaga ega emaslar. Maktabgacha tarbiya muassasalarida milliy qadriyatlar vositasida xalq madaniyatini shakllantirishning asosiy maqsadi yosh avlodda milliy qadriyatlarga sodiq bo'lish, xalqimizning ma'naviy merosini o'rganish, mustaqil O'zbekistonning barcha udumlarini, urf-odatlarini, tarixini asrovchi fuqarosi bo'lish, butun jahonga tariximiz va millatimizning qudratini namoyon etuvchi shaxsni tarbiyalashdir. Axloq-odob o'zbek xalqi

hayotining mag‘zi hisoblanadi. Insonning insoniyligi birinchi navbatda uning ma‘naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi, xulq-atvori bilan belgilanadi. Ma‘naviy-axloqiy barkamol inson ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, mahalla-ko‘yi, qishloqdochslari va butun mamlakat farovonligi haqida qayg‘uradi.

Umuman olganda, O‘zbekiston jamiyatni tubdan yangi asosda qurish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, ma‘naviyati bilan bevosita bog‘liq. Milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, sharqona odob-axloqimiz, o‘lkamizning har bir tuman, viloyatning o‘ziga xos an‘ana, udum va urf-odatlari, shuningdek o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan dasturlar, darslik va uslubiy qo‘llanmalar yetarli emas. Bu borada maktabgacha tarbiya muassasalarini bilan shug‘ullanuvchi olimlarimiz sust ish olib bormoqdalar.

Buning uchun esa: - maktabgacha tarbiya muassasalarida qadriyatlarimizdan xalq o‘yinlarini ko‘paytirish lozim;

- o‘zbek xalqining an‘analari, udumlari, rasm-rusumlariga oid to‘plam chop etish, bunda, ayniqsa, maktabgacha tarbiya bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis olimlar faoliyat ko‘rsatishsa, maqsadga mufaviq bo‘ladi; Tarbiyachi – pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma‘lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan bo‘lishi kerak;

Demak, tarbiyachilar axloqiy sifatlarni shakllantirish borasida milliy qadriyatlardan foydalanadilar. Ammo bu jarayon uzluksiz, ma‘lum maqsadga

yo‘naltirilgan tarzda emas, balki o‘z oqimiga ko‘ra tarbiyachining saviyasi va malakasiga qarab amalga oshiriladi.

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlarni va madaniyatni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish.
2. Maktabgacha tarbiya muassasalarida xalq o‘yinlaridan ko‘proq foydalanish.
3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlarni o‘yinchoqlar vositasida tarbiyalash.

“Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir”, – dedi davlatimiz rahbari. Shu ma’noda, tana hech qachon jon va ruhsiz bir butun bo‘lolmaganidek, ma‘naviyatsiz, ta’lim-tarbiyasiz ham iqtisodiy rivojlanishga erishib bo‘lmaydi. Mustaqil teran fikrga ega, o’tmishga yuksak e’tiqodi bor millatgina ezgulik, taraqqiyot yo‘lida g‘oyalari mushtarak holda rivojiana oladi. Ma‘naviy birlashuvi bilan yuksalgan xalqni esa hech qanday yot g‘oya o‘z domiga torta olmaydi, yo‘lidan og‘dirolmaydi. Tarbiyada tanaffus bo‘lmasligi kerak. Oila, bog’cha, maktab, oliy ta’limda bu jarayon bir-birini to‘ldirgan holda, uyg‘unlikda davom etishi lozim. Ana o’shanda kuchli ma‘naviyatga ega, dunyoqarashi keng, bilimli avlodni tarbiyalay olamiz. Albatta, farzandlar tarbiyasida jamiyat, mahalla yoki maktab emas, eng avvalo ota-onasi mas’ul. Ya’ni, har bir ota-onasi o‘z farzandi uchun javobgar bo‘lishi, mas’uliyatni his qilishi maqsadga muvofiq” .

**PEDAGOGDA NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATI****Botirova Gulsanam***Samarqand davlat chet tillari instituti,**roman-german tillar fakulteti,**ingliz filologiyasining 1-bosqich talabasi*

**Annatatsiya:** *O'qituvchining pedagogik mahoratida uning nutqi, notiqlik qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qituvchi tilni qancha chuqur bilsa va unda so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, uning tafakkuri shunchalik boy bo'ladi. So'z barcha dalillar, barcha fikrlar libosi, o'qituvchi nutqining poydevoridir.*

**Kalit so'zlar:** *notiqlik san'ati, nutq to'g'riliqi, nutq aniqligi, nutq mantiqiyligi, suhbat metodi, nutq odobi, til va nutq, kommunikativ nutq, monologik nutq, diologik nutq.*

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish uchun, o'qituvchining nutqi ma'lum talablarga javob berishi, ya'ni notiqlik mahoratini shakllantirish uchun lozim bo'lgan kommunikativ sifatlarga javob berishi hamda nutqi bir nechta adabiy normalarga mos kelishi lozim: ya'ni, zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga. **Nutq madaniyati-** yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqaroden ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Nutqiy qobiliyatning rivojlantirish faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq. Shu qobiliyati tufayli o'qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. O'qituvchi nutqi deyilganda, og'zaki va yozma nutq nazarda tutiladi. O'qituvchilar og'zaki nutq asosida zarur bo'lganda o'z kamchiliklarini tuzatib, korreksiyalab boradi. Texnik jihatdan nutqiy tajribaga ega bo'lgan o'qituvchining nutqi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- O'qituvchi va uning tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni va mahsuldor muloqotni;

- Ta'lim jarayonida bilimni to'la qabl qilinishi, anglanishi va mustahkamlanishi;

- O'quvchilar faoliyatiga, ulrdagi qobiliyat va iqtidor instinktini shakllantirish maqsadda ongi va hissiyotiga ijbiy ta'sir ko'rsatish;

- O'quvchilarning o'quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish

O'qituvchi og'zaki nutqining yana bir asosiy xususiyati, uning improvizatsion (hech qanday tayyorgarliksiz) harakterda ekanligidadir. Komminikativ nutqning muvafaqiyatli bo'lishi uchun, o'qituvchilar o'zida notiqlik san'atiga xos, qator maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishi talab qilinadi:

- 1.ijtimoiy perceptiv qobiliyat
- 2.ijtimoiy tasavvur qobiliyati
- 3.o'zini boshqara olish qobiliyati
- 4.muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati
- 5.irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati

## 6.ishontira olish qobiliyati

**Notiqlik-** bu nutqning og'zaki shakli. Notiqlik san'ati og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli bo'lган tushunchalardir. Nutqning asosiy xusussiyatlari haqida gapiradigab bo'lsak ular quyidagilar: Nutqning to'g'riliqi va ravonligi-uning adabiy til normalariga to'g'ri kelishidir. Bunda ikkita jihatga e'tibor beriladi 1)urg'u, 2)grammatikal normalarga amal qilish. Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi-mazmundor nutqning tinglovchiga ta'sir etish omilidir. O'qituvchi so'z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq faktlar asosida o'quvchilarga bilim beradi, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. O'qituvchi nutqining aniq bo'lshi, o'z mas'uliyatini chuquqr his etish shartdir. Aniqlik, o'rganilayorgan mavzuning o'qituvchi tomonidan ifodalanayotgan voqelikka faktlarga muvofiq kelishidir. Nutqning mantiqiyligi-nutqning mantiqiy bo'lshi, eng avvalo o'qituvchining so'z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi tilni juda yaxshi bilishi, so'z boyligi keng bo'lshi mumkin. Ammo o'zi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo'lmasa, bilimlarni o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san'ati natija bermydi. Nutqning tozaligi va ifodaliligi-o'qituvchi nutqining tozaligi, avvalo uning adabiy til lisoniy normalariga muvofiq ifodalanishi bilan belgilanadi. O'qituvchilarning chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o'zbek boy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lshiga qarab baholanadi. Nutqning toza bo'lshiga dialektizm va varvarizm halaqit beradi. Nutqning tozaligi uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat adabiy tilga ifoda etishidir. Til vositalari vaziyatga qarab ishlatiladigan, siyqa so'z va iboralarsiz hosil bo'lgan o'qituvchi utqi tabiiy va samimiy bo'ladi, tinglovchi va o'quvchilarni tez jalb qiladi.

O'qituvchi nutqning mukammalligi, tozaligi, ta'sirchanligi bilan o'quvchilar e'tiborini jalg qiladi, ularning qalbiga yo'l topadi, hech qanday qiyinchiliklarsiz kasbiy pedagogik faoliyatida duch keladigan barcha ziddiyatlarni bartaraf etadi. Natijada o'qituvchi pedagogik faoliyatida aslo toliqmaydi, kelajak avlodni barkamol qilib tarbiyalashda davom etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Muhiddinov A.G. "O'quv jarayonida nutq faoliyti".- T, O'qituvchi, 1995-y.
- 2.M.X.Toxtaxodjayev "Pedagogika nazariyasi"-T "IQTISOD-MOLIYA",2007.
- 3.Mahmudov N.M. "O'qituvchi nutq madaniyati" Darslik- T O'zb. Milliy kutubxonasi. 2007-y.
- 4.A.Xoliqurov "Pedagogik mahorat" Toshkent, "IQTISOD-MOLIYA" 2011-y.
- 5.Sultonov G.A, "Pedagogik mahorat" –T, Nizomiy nomidagi TDPU 2005-y.
- 6.Husanov B. G'ulomov V. "Muomala madaniyati" Darslik- T, Iqtisod- moliya 2009-y.

## 4-SINF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGI VA MATN BILAN ISHLASH BILIMLARINI PIRLS DASTURI ASOSIDA BAHOLASH

**Ibragimova Xurshida**

*Termiz davlat universiteti  
pedagogika fakulteti talabasi*

**Anotatsiya:** Maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturidagi o'qish savodxonligining maqsadi hamda tadqiqot doirasida foydalanilgan matnlar yuzasidan savol va topshiriqlarni baholash mezoni haqida keltirilgan. Undan tashqari, tadqiqotning ahamiyati va tadqiqot doirasidagi boshlang'ich 4-sinf o'qish kitobidagi matnlar bilan ishlash haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, kognitiv, metakognitiv, badiiy matnlar, axborot beruvchi matnlar, PIRLS, ePIRLS.

O'qish savodxonligining ta'riflari juda ko'p. O'qish savodxonligi- tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan hamda jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O'quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o'rganish, maktab va kundalik hayotda o'zlari kabi boshqa o'quvchilar jamoasiga qo'shilish va vaqtini samarali o'tkazish uchun o'qiydilar.

O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi. Bundan tashqari, o'qish muhitini yuzaga keltiradigan sharoit o'quvchini o'qishga rag'batlantirish va qiziqtirish orqali matn mazmunini shakllantirishga yordamlashadi, ammo sharoit matn mazmunini tushunish imkonini bermaydigan muayyan talablarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Har bir turdag'i matnni talqin qilishiga imkon beruvchi sodda shakllar va qoidalardan iboratdir.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholash ikkita keng qamrovli maqsadga qaratilgan. Bular:

1. Badiiy tajriba orttirish;
2. Axborotni olish va undan foydalanish.

PIRLS xalqaro dasturida qo'llanilgan badiiy matnlarning asosiy shakli badiiy janrga mansub bo'ladi. Ishtirokchi mamlakatlardagi o'quv dasturlari va madaniy jihatidan yuzaga keladigan farqlaridan kelib chiqib, PIRLS xalqaro baholash dasturi doirasida ayrim badiiy matnlarni topshiriq sifatida tanlab olish qo'shimcha murakkablik tug'diradi. Misol uchun, she'riy matnlarni tarjima qilish o'quvchilar uchun qiyinlik tug'dirgani bois, ular topshiriqlarga qo'yilmaydi.

Axborot beruvchi matnlar qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va o'qiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma'lumot berishdan iborat

bo'lganligi sababli, odatda yozuvchilar o'zlarini yoritmoqchi bo'lgan mavzuga turli maqsad bilan yondashadi. Ko'pgina axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to'g'ridan-to'g'ri bayon etiladi. O'quvchi matnlarning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunishi uchun undagi ma'lumotlar boshqacha tartibda, ya'ni uning mazmuni, tuzilishi va shakli o'zgartirilgan holda taqdim etilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari turli mavzularni qamrab olgan axborot beruvchi matnlarni, jumladan, ilmiy, tarixiy, jo'g'rofiy yoki ijtimoiy matnlarni o'qishlari mumkin.

O'qishdan ko'zlangan har ikkala maqsad ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun birdek muhim bo'lgani bois, PIRLS dasturi har bir maqsadni baholovchi, bir xil miqdordagi materiallardan tashkil topgan. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

1. Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish;
2. To'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish;
3. Kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash;
4. G'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va uyg'unlashtirish

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta, ePIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. PIRLS tadqiqoti darajalarga ajratiladi va tavsiflanadi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

 Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

 Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulasalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

 O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

 Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajrata oladi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishiga oid qarashlar, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab- quvvatlanayotganligiga oid qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmaklarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni

yaxshilash uchun ta'lif sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni tadqim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan mакtabda va mакtabdan tashqarida ta'lif olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Sinf xonasi yoki maktab kutubxonasida yaratilgan ijtimoiy muhit boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish jarayoni ularning o'qituvchilari va sinfdoshlari bilan bilim va tajriba almashishda dunyoqarashlarini kengaytirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'z a'zolari va tengqurlari bilan o'qishdan olgan ma'lumotlar va g'oylar haqida suhbatlashar ekan, bu muhit chegarasi mакtabdan tashqariga ham cho'ziladi.

O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilgan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqishi uchun yaratadi.

O'quvchilar oddiy xuloslar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda kontent yoki umumiylar ma'noga e'tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiylar mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin. Matn mazmuni o'quvchining shaxsiy fikridan kelib chiqib, xolislik bilan baholanishi va tanqid qilinishi mumkin.

#### **Matnni baholash va tanqidiy tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- Matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;
- Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- Insonlarning o'ylari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;
- Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;
- Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash;
- Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash.

Bu jarayon o'quvchidan xolis baho berish, rad etish, ma'qullash, matn mazmuniga nisbatan betaraflikni bildirish kabilarni talab qiladi. Masalan, o'quvchi matnda keltirilgan fikrlarni tasdiqlashi, e'tiroz bildirishi yoki boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan matnda berilgan g'oyalarni tasdiqlashi mumkin.

O'qish o'quvchilar tomonidan, asosan, mакtabda yoki mакtabdan tashqarida amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, bunda o'qish savodxonligini baholash yuqorida aytib o'tganimizday: Badiiy tajriba orttirish va axborotni olish va undan foydalanish kabi maqsadlarga qaratiladi.

Baholashda qo'llaniladigan o'quv materiallari ushbu maqsadlarga asoslangan holda tanlab olingan har bir matn ikkita maqsaddan biri uchun o'qiladigan matn turini ifodalaydi. O'quvchilar matnlarni tushunishini baholash uchun PIRLS tadqiqotida turli xil savol formatlar qo'llaniladi. Birinchi turi- javob variant tanlanadigan yopiq savollar, bunda o'quvchilarga savolga eng yaxshi javob bo'lishi mumkin bo'lgan javobni tanlash uchun to'rtta variantli har bir savolda bitta to'g'ri javob bo'ladi. Bu turdag'i savolga berilgan to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.

Baholashda qo'llaniladigan formatning boshqa turi- bu o'quvchining savolga o'zi javob berishi talab etiladigan ochiq savollardir. Ushbu savol formati yordamida o'quvchilar bir necha variantlardan birini tanlash o'rniغا, savol(lar)ga o'zlari yozishlari kerak bo'ladi. Bu turdag'i savollarga berilgan javoblarga muayyan ball belgilash aniq mezonlarga asoslangan ko'rsatmalar yordamida, maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilgan baholovchilar tomonidan amalga oshiriladi.

PIRLS tadqiqotida yana ikkita savol turidan foydalaniлади, булар:

1. O'quvchilar tomonidan savolga bir nechta to'g'ri javob tanlanadigan savollar (odatda bu turdag'i savollarda "tegishli bo'lgan barcha javoblarni belgilang" iborasi qo'llaniladi);

2. O'quvchilar matnda tasvirlangan yoki hikoya qilingan voqealarni matnga asoslangan holda to'g'ri ketma-ketlikda belgilashlari lozim bo'lgan savollar.

Shunindek, izohlanmagan javoblarga "**0**" ball qo'yiladi. Bunga chizligan va o'chirilgan urinishlar, o'qishga yaroqsiz va topshiriqqa doir bo'lмаган javoblar, chizmalar kiradi.

O'quvchilarning javoblari kim tomonidan baholanishidan qat'iy nazar tizimli baholanishi juda muhimdir. Bu, har bir baholovchi o'quvchilarning javoblarini boshqa baholovchilar kabi baholashi lozim ekanligini anglatadi. Baholovchi baholash yo'rinomasining har bir tafsilotini doim ham ma'qillamasligi mumkin. U umumiyo baholash jarayonida sifatni eng yuqori darajada ta'minlashi uchun baholash bo'yicha yo'riqnomaning maxsus jihatlariga tizimli ravishda amal qilishi kerak. Baholovchilar o'quvchining bergen javobini baholash yo'riqnomasida keltirilgan baholash darajasini tavsiflari bo'yicha ko'rib chiqishga ma'suldirlar.

Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotining ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta'lim jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi.

PIRLS tadqiqoti matnni tushunish va uni tahlil etishga mo'ljallanga dastur hisoblanadi, tadqiqot 4-sinf o'quvchilarining matnni tushunish bo'yicha dastur bo'lganligini inobatga olgan holda boshlang'ich sinf o'qish kitoblarida ham shu tadqiqot doirasida o'qitish ko'zlangan maqsadga yetish uchun ancha imkoniyatlarni kengayishiga olib keladi. Quyida biz 4-sinf o'qish kitobidan olingan matnni ko'rib o'tamiz.

### **Eng ulug' fazilat**

Qadim zamonda bir mo'tabar odamning uch o'g'li bor edi. Bir kuni ularni huzuriga chaqirib, shunday debdi:

- O'g'illarim, sizlarni sinamoqchiman, bir oy sayohat qiling. Shu bir oylik umringizni xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf eting. Qaysi biringizning qilgan yaxshililingiz eng ulug' fazilat kasb etsa, barmog'imdag'i mana shu juda qimmatbaho uzukni unga beraman.

O'g'illar har tarafga tarqalib, sayohatga chiqib ketibdilar. Bir oy sayohat qilib yurib, yana otalarining huzuriga qaytib kelibdilar.

Ota katta o'g'lidan so'rabdi:

- O'g'lim, shu bir oy ichida qanday eng ulug' fazilatli ish qilding?

- Otajon, bir kuni tanho o'zim bir bog' ko'chasidan o'tib ketayotsam, bir yerda juda qimmatli olmos tushib yotgan ekan. Uni olib darhol tegishli ma'murlarga topshirdim. Ma'murlar boshlig'i menga tashakkur aytdi. Qo'limga mana shu taqdirnomani yozib berdi. Olmosning egasini topdirib, unga topshirdi. Shu qilgan ishim to'g'rilingimga bir dalil. Shu harakatim eng ulug' fazilat emasmi?

- Juda to'g'ri ish qilgansan, o'g'lim! Vijdonan vazifangni ado etgansan. Lekin u olmos sening xususiy mulking emas-ku!

Keyin o'rtancha o'g'il so'zga kirishdi:

- Men bir kuni katta bir ariq yoqsidan ketib borardim. Shu choqda bir yosh bola suvga tushib ketdi. Halok bo'lism xavfi ostida ekanini ko'rib qoldim. Darhol o'zimni suvga tashladim. Ko'p mashaqqat chekib, bolani suvdan olib chiqdim. Uni halokatdan qutqarib, ota-onasiga eson-omon topshirdim. Ota-onasi mendan ko'p minnatdor bo'lib, haqqimga duo qildilar. Hayotim qo'rqinch ostida qolsa ham yosh bolani halokatdan qutqarish uchun qilgan shu harakatim bilan mukofotingizga loyiq bo'lsam kerak, deb o'ylayman.

Otasi o'rtancha o'g'lining qo'lidan ushlab, shunday dedi:

- Ofarin, o'g'lim. Seni tabriklayman, faqat shu go'zal ishing tufayli qalbing zavq-shavq bilan to'lganini his etgansan. Shuning o'zi mukofot emasmi?

Keyin kichik o'g'il otasiga ta'zim qilib aytdi:

- Otajon, menga doimo dushmanlik nazri bilan boqib, zarar yetkazib yurgan bir odam bor. Men unga hech bir yomonlik qilmagan bo'lsam ham, u payimda yuradi. Hatto meni yo'q qilish uchun fursat kutadi. Kecha u dushmanimning bir jar yoqasida uqlab yotganini ko'rdim. Agar uyqusirab, bir yondan ikkinchi yonga ag'darilsa yoki qattiqroq tovush chiqarib uyg'otilsa, turishga harakat qilib, jarga qulab tushushi mumkin edi. Men tovush chiqarmasdan, sekingina yurib uning yoniga bordim. Juda ehtiyyotkorlik bilan uni ushlab, asta-sekin o'z tomonimga torta boshladim. Ancha beriga kelib xavf-xatardan qutulgandan keyin ruhim ko'tarildi, shodlanib yo'limda davom etdim.

Otasi o'g'lining bu yaxshi ishidan, oliyjanobligidan shodlanib ko'ziga yosh oldi. Uni quchoqlab, yuz-ko'zidan o'pib dedi:

- Bor bo'l, o'g'lim! Yasha, umring uzoq bo'lsin! Mukofotimni olishga sen haqlisan, chunki dunyoda eng ulug' fazilat – yomonlikka yaxshilik qilishdir, - deb qimmatli uzugini o'g'lining barmog'iga taqdi, uning haqiga duo qildi.

*Matn yuzasidan quyidagicha savollar tuzilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:*

1. Ota o'g'llariga eng ulug' fazilat evaziga nima berishini aytibdi?

Javob: \_\_\_\_\_.

2. Katta o'g'il "Shu ishim to'g'rilingimga dalil", - deb nimani aytibdi?

Javob: \_\_\_\_\_.

3. O'rtancha o'g'il nimani "Eng ulug' fazilat", - deb aytibdi?

A. Bir bog' ko'chadan olmos topib olgani va uni ma'murga topshirib, taqdirnomaga olganini aytibdi.

B. Bir yosh bolani suvga cho'kayotganda hayotini xavfga qo'yib qutqarganini aytibdi.

C. O'ziga dushmanlik payida yurgan insonni halokat yoqasidan qutqarganini aytibdi.

4. Ota qaysi o'g'lining olivjanobligidan shodlanib ko'ziga yosh oldi?
  - A. Katta o'g'il
  - B. O'rtancha o'g'il
  - C. Kichik o'g'il

Yuqorida keltirilgan matn va matn asosida tuzilgan ochiq va yopiq savollar, xuddi PIRLS xalqaro baholash dasturidagi matnlarga o'xshash tuzilgan.

Xulosa o'mnida shuni aytib o'tish kerakki, yuqorida keltirilgan PIRLS xalqaro baholash dasturidagi o'qish savodxonligi ijodiy fikrlashni baholash va rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqishga, hamda o'quvchilar o'rtasida joriy etishga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnama 3-son
2. S.Matchanov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov – umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 4-sinfi uchun darslik. Toshkent- 2017
3. R.J.Eshmuhamedov. innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent. TDPU. 2004
4. B.P.Adizov. boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok.giss. Toshkent-2003
5. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU-2007
6. А.Г.Вордовски, В.А.Извочиков. Новые технологии обучения: Вопросы терминалологии// Педагогика. -1993.№5

**BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM  
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI**

Muxiddinova Muxlisa, Boyburiyeva Zebo

Xalilov Sirojiddin, Saydullayev To'ra

*Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lif yo'nalishi  
2-kurs talabalari, TerDU*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada biologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyatları va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar deb yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** suhbat metodi, hikoya metodi, ma'ruza metodi, ko'rgazmali metodlar.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar kadrlar tayyorlash tizimining mukammal bo'lishiga, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishiga qaratilgan. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzliksiz ta'lif tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs – fuqaroni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu o'z navbatida fan, texnika, ilg'or integrativ texnologiyalar asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish, rivojlanirish masalasini hal etish uchun xizmat qiladi. Darsning mazmuni va foydalilanidigan ko'rgazmali vositalar muayyan o'qitish metodlarini talab etadi. O'qituvchi o'qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni, foydalinish yo'llarini yaxshi bilishi lozim. Shuni hisobga olgan holda quyida o'qitish metodlarining guruhlari haqida fikr yuritiladi. Og'zaki bayon metodlari guruhi o'z ichiga suhbat, hikoya, ma'ruza metodlarini oladi. Quyida shu metodlarning tarkibiga kiruvchi metodik uslublar keltiriladi:

**Suhbat metodi** – suhbat savollarini ketma-ketlikda qo'yish, yordamchi va qo'shimcha savollarni o'z vaqtida berish, o'quvchilarini faollashtirish, o'quvchilar javobidagi xatolarni to'g'rilash, xulosa va umumlashtirishni tarkib toptirish uslubi.

**Hikoya metodi** - o'quv materialini jonli, obyektlarga xos xususiyatlarni bayon qilish, axborotning ilmiyligi, izchilligi, tushunarligi, nutqning ravonligi va ifodaliligi uslubi.

**Ma'ruza metodi** - o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, muammolarni qo'yish, obyektlarni aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uslubi.

**Ko'rgazmali metodlar** - guruhiga tabiiy va tirik obyektlar, tasviriy ko'rgazma, ekran vositalari, AKTning ko'rgazmali dasturlari, multimedialarni namoyish qilish metodlari kirib, muayyan holda quyidagi ko'rgazmali vositalarni namoyish qilish, illyustratsiya, demonstratsiya, o'quv kinofilmlari, videofilmlar, AKTning ta'lifi, modellashtirilgan dasturlari, elektron darsliklar, multimedialarni namoyish qilish, ko'rgazmaning did va estetik talablarga javob berishi, dars mazmunini yoritishi, ketma-ketlikda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish uslublaridan tashkil topadi. **Amaliy metodlar** - guruhiga kuzatish, tajribani tashkil etish va o'tkazish, amaliy ishni bajarish metodlari kirib, ular mos holda, obyektlarni tanib olish va aniqlash, kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarga amaliy ishning borishini bayon qilish, amaliy ishlarni bajarish rejasini tuzish, amaliy ish

topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish, topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, amaliy ish, kuzatish va tajribalarni yakunlash va rasmiylashtirish uslublaridan iborat bo‘ladi.

**Muammoli izlanish metodlari** - muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli savollar zanjirini tuzish, muammoli topshiriqlar tuzish va tajribalar o‘tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o‘quv farazlarini hosil qilish, o‘quv farazlarini isbotlash, obyektlarni taqqoslash, mantiqiy mulohaza yuritish, o‘quv-tadqiqot tajribalarini o‘tkazish, o‘quv xulosalari va umumlashmalarini ta’riflash uslublarini o‘z ichiga oladi.

O‘qitishning mantiqiy metodlari guruhi induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g‘oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan iborat bo‘lib, ularga quydagilarni kiritish mumkin.

a) **induktiv metod** - xususiy faktlarni muammoli bayon qilish, o‘quvchilar faoliyatini xususiydan umumiylar chiqarishga yo‘naltirish, muammoli topshiriqlami berish uslubi;

b) **deduktiv metod** - umumiylar qonunlarni bayon qilish, o‘quvchilarning faoliyatini umumiyyadan xususiy xulosa chiqarishga yo‘naltirish uslubi;

d) **tahlil metodi** - axborotni anglab idrok etish, o‘rganilgan obyektlarning o‘xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o‘rganilgan obyektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o‘rtasidagi boshlanishlarni aniqlash uslubi;

e) **bosh g‘oyani ajratish metodi** - o‘quv materialidagi asosiy g‘oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g‘oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so‘zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslubi tushiniladi.

f) **qiyoslash metodi** - qiyosiy obyektlarni aniqlash, obyektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirish uslubi hisoblanadi.

g) **umumlashtirish metodi** - o‘quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiylar chiqarish uslublarini o‘zida mujassamlashtiradi.

**Mustaqil ish metodlari** - guruhiga ko‘rgazma vositalari va darslik ustida mustaqil ishslash metodlari kiradi. Ular tarkibiga mustaqil ish topshiriqlarini berish, o‘quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, o‘quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish, ijodiy topshiriqlar berish uslublari kiradi.

**Modulli ta’lim texnologiyasi:** Modulli ta’lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, qism (blok) degan ma’noni bildiradi. Biologiya fanini o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalilaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya’ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o‘quvchilar mustaqil o‘zlashtirishlari uchun o‘quv topshiriqlari tuziladi. Modul dasturlari mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, o‘quvchilarning dars davomida bajaradigan o‘quv

topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o'zida mujassamlashтиради.

**Muammoli ta'lif texnologiyasi:** Ta'lif jarayonida salmoqli o'rin egallagan muammoli "aqliy hujum" darsi, munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikrlash) darslar muammoli ta'lif texnologiyasiga asoslanadi. Mazkur darslarning o'ziga xos jihatni dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi. Muammoli ta'lif jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkunki** - Ta'lif vositalari o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda fanga oid kompetentsiyalarni egallanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, biologik ta'lif jarayonida zamonaviy ta'lif yondashuvlari asosida o'quvchilarda kompetentligini rivojlantirish jarayonida samarali natijaga erishiladi.

### FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.R.Asqarov, N.X.To'xtaboyev. Biologiya. Darslik. "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. Toshkent. 2017.
2. T.G'ofurov va boshqalar. "Biologiyani o'qitishning umumiyligi metodikasi". O'quv metodik qo'llanma. Toshkent. 2005.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oliy ta'lif muassasalari ta'lif oluvchilari uchun darslik. Toshkent. 2014.

**Egamberdiyeva E'zoza Yo'ldosh qizi**

*Sirdaryo viloyati Sardoba tumani*

*2-umumiy o'rta talim maktabi*

*10-d sinf o'quvchisi*

Mustaqillik el-yurtimiz uchun o'z taqdirining egasi bo'lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Ayni paytda u har bir odamning iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishining mustahkam zaminidir.

O'zbekiston dunyodagi eng qadimiylari va betakror o'lkalardan biridir. Uni umrida bir bor ko'rish orzusida yurganlar qancha. Biz esa betakror zamin bag'rida yashaymiz, uning musaffo havosidan, zilol suvidan, beqiyos ne'matlardan bahramand bo'lamiz. Bunday baxt hammaga ham nasib etmaydi.

Haqiqatan ham, ona vatanimiz O'zbekiston doimo biz bilan, jo'sh uradi tafti tomirlar ichra. Hech eshitgamisiz, vatani tashlab ketgan odamni? Yo'q, also bunday bo'lmagan, o'zini tamom ila bizlarga bergen onamiz kabi fidoyidir u va ikkisining ham unitib bo'lmash o'z o'rni bordir yuragimizda. Zero, shuning uchun "Ona vatan" deganimiz shubhasiz to'g'ri, albatta. Ona vatan tuyg'usi bu – shu aziz yurtga chin farzand bo'la olish, unga pokiza muhabbat hamda yuksak ehtirom ila qarash demakdir. Ana shu tuyg'u kabi chin insoniy hislarga ega bo'lgan odam o'z vatanini sevmasligi, vatanidan yiroqda bo'lganida uni qo'msamasligi mumkin emas.

Bugun O'zbekiston – yoshlar mamlakati! Har bir farzandining orzu-istiklalari uchun qanot bermoqda. Ammo bu dorulomon kunlarga erishguncha yurtimiz boshiga qanchadan qancha musibatlar tushmagan deysiz. O'zbek xalqi qanchalar og'ir kechmischlarni boshidan kechirsa-da, doim erk istadi, ozodlikka intildi, yaxshi kunlarni orzuladi va erishdi. Ma'rifatparvar adib vatandoshimiz Abdurauf Fitrat o'z kitobida vatanining qayg'usi va taqdidi haqida shunday yozadi:

"Ey ulug' Turon... Sen mening vatanimsan..."

Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq – mening o'limim. Sening uchun o'lmoq – mening tirikligimdir. Panohim, sajdagohim, umidim! Yotlaring seni shu kuygami soldilar? Zolimlar seni kimsasizmi ko'rdilar? Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana, men chin ko'nglum bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi... Men sening uchun yasharman, sening uchun o'lurman. Ey turlikning muqaddas o'chog'i! O'lim – sening o'limingni istaganlarga, nafrat – seni ko'mgani kelganlarga!".

Chin ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat qalbidagi bu chin vatanparvarlik hissi va vatanga bo'lgan ta'masiz muhabbat unga – ona suti, ona allasi, ona bag'ri va ona mehr-muhabbat bilan singigan bo'lsa ajab emas. Fitrat she'rlarini mutolaa qilar ekanman, "Vatanni qanday sevadilar?", degan savolga beixtiyor javob topaman. Bu muqaddas

zaminda yana ko‘plab buyuk daholar o‘tganki, ularning asarlarini o‘qish-o‘rganish vatanni yanada qadrlash va asrab-avaylashga chorlaydi.

Xalqda bir maqol bor: “Badqavm bo‘lsang, bo‘l, Beqavm bo‘lma.” Ya`ni yomon qavmdan bo‘lsang ham, undan ayrılma. Chunki sen undansan, o‘sha qavm ahlidirsan. Zotan, sahroda o‘rmalab yurgan jonivorlar ham tug‘ilishidanoq o‘z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryodagi baliqlar ham o‘z oshyonlarini taniydlilar, his qiladilar. Hatto bolari ham o‘z uyasini muhofaza qiladi. Shuningdek, odamlar ham qayerda tug‘ilib, parvarish topsalar – o‘sha yerga cheksiz mehr-u muhabbat qo‘yadilar. Va inson qalbidagi eng buyuk jasorat ham ana shu muhabbat tufayli yuzaga keladi. Inson o‘zini vatanga qanchalar yaqin his etsa, uni shu qadar jonli vujud kabi aniqroq va sevimliroq tasavvur qiladi. Har kimning qalbida o‘z vatanining, xalqining jazzi qiyofasi yashaydi. Eng muhimi, bu – vatanga muhabbat tuyg’usi! Binobarin, shu muhabbat barcha mushkulotlarni oson hal qilishda kuch-quvvat beradi, jasoratga undaydi. Aks holda, vatansiz insonga baxt yo‘qdir. Vatanlilikning o‘zi baxtdir.

Ona Turonim – O‘zbekistonim! Senga oshno bo‘lganimdan beri sirdoshim o‘zingsan. Orzu-yu armonlarimni senda ko‘raman. Quyosh, o‘z maskani bo‘lmish osmonni tark etsada, ko‘zlarimni yumsamda, nursiz kunlarimda-da sen qalbimda porlab turaverasan. Ko‘ngil ozorlarimni yashirib, dardlarimga malham bo‘lasan. Hamisha botmas quyosh singari umr yo‘llarimni yoritib, iliqlik baxsh etasan hayotimga. Vatanim, senga oshnoman, senga shaydoman. Yuragimda kurtaklagan muhabbat ham sen. Eng pokiza hislarim, munavvar orzularim sen ila totli.

O‘zbekiston – yuragim ko‘zgusi, orzularim belanchagi, yuksaklarda porlab turgan umidim yulduzi, qalbimning kaliti, umrimning mazmuni, hayotimdagи eng bebaho, jonimdanda azizroq ma`vosan. Sensiz yashab bo‘larkanmi? Sen tobora ko‘nglimga, o‘zimga, umrimga aylanib borayapsan, ona vatanim – O‘zbekistonim. Shuning uchun seni yaxshi ko‘raman. Senga ming bor rahmat, ming bor tashakkur – sadoqatga oid bo‘lganing uchun, onamga teng-loyiq bo‘lganing uchun! Men hech ikkilanmasdan O‘zbekistonni yoshlар mamlakati deya olaman. Demak, O‘zbekiston – yoshlар mamlakati ekan, biz yoshlар ham shu vatanga munosib bo‘lishimiz, qanchadan qancha mashaqqatlar evaziga qo‘lga kiritilgan mustaqilligimizni, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev sa'y-harakatlari bilan kechayotgan erkin va farovon turmushimizni, tinch va osuda hayotimizni ko‘z-qorachig‘imizdek asrashimiz, uning g’ururi, faxr-u iftixori ham bo‘lmog‘imiz lozim.

## ERTA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIMI SOHASIDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLAR.

**Qosimova Xolida Matmuradovna**

*Olmaliq shahar Xalq talimi bo`limi psixolog*

**Dilafruz G`ofurova Zoxid qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Mualliflar ta'lim mazmuni, uning kadrlar ta'minoti va tashkiliy shakllari bilan bog'liq, 3 yilgacha tug'ilgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish sohasida eng muhim muammolarni ko'rib. Mavzuning dolzarbligi erta yoshdagi bolalarni tarbiyalash amaliyotining zamonaviy holati bilan belgilanadi, ularning zaxiralari ko'pincha amalga oshirilmaydi. Yosh bolalarning ta'lim olishiga qarshi eng keng tarqalgan ikki yondashuv muhokama qilinadi: bolani parvarish qilish va nazorat qilish bilan cheklangan yondashuv va erta intellektual rivojlanishni rag'batlantirishning etarlicha yoshiga qaratilgan yondashuv va ularning duch kelishi mumkin bo`lgan muammolari mualliflar tomonidan yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *erta yosh, ta'lim maqsadlari, ta'lim mazmuni, kadrlar tayyorlash, erta yoshdagi bolalarni va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash markazi.*

Hozirgi kunda inson hayotining dastlabki yillarining keyingi rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega. Biroq, bolalarni tarbiyalashning zamonaviy amaliyotida erta yoshdagi zaxiralar ko'pincha amalga oshirilmaydi. Bu, asosan, ota-onalar va o'qituvchilarining bolaning aqliy rivojlanish qonunlari, ta'lim va o'qitish usullari haqida bilim etishmasligidan kelib chiqadi. Bir tomonidan, ko'plab ota-onalar va mutaxassislar yosh bolalarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini kam baholaydilar. Bunday holda, ta'lim asosan bolaning g'amxo'rligini va nazoratini tashkil qilish, uning jismoniy sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish, bolaning shaxsiyatini rivojlantirish, uning tashabbuskorligi, qiziquvchanligi, sotsialligi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga etarli e'tibor berilmaydi. Biroq, bolalar psixologiyasida erta yoshdagi bu fazilatlarning kam rivojlanishi yokideformatsiya-si inson hayotining keyingi davrlarida tuzatish qiyinligini isbotladi [1; 3; 4; 6; 7].

Boshqa tomonidan, bolani ta'minlash maqsadida bolalarni erta o'qitish amaliyoti tobora keng tarqalmoqda. Bu, asosan, ota-onalarga hayotning birinchi oyalaridan boshlab, bolani o'qish, hisob-kitob qilish, yozish, xorijiy tillar va boshqalarni o'rgatish uchun ota-onalarga va'da beradigan ko'plab usullarning paydo bo'lishiga yordam beradi. bolalar o'qitish usullari, odatda, maktab amaliyotidan qarz oladi: sinflar bolaning kattalar ko'rsatmalariga muvofiq harakat qilishi, muayyan miqdordagi axborotni o'rganishi, belgilangan ko'nikmalarni Bunday usullarni qo'llash natijasida ta'lim ko'pincha bolaning haqiqiy hayoti uchun rasmiy, foydasiz bilimlarni o'rganishga tushadi. Shu bilan birga, bolaning hissiy - shaxsiy va ijtimoiy sohasi, o'z faoliyati e'tibordan chetda.

Zamonaviy ilmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilari bilan ishlashda qo'llaniladigan ko'plab pedagogik texnika, ta'lim va o'qitish usullari erta yoshdagi bolalarga

qo'llanilmaydi. Shunday qilib, og'zaki tushuntirishlar, kattalarning ko'rsatmalari ko'pincha bolaga tushunilmaydi, old sinflar o'z maqsadlariga erisha olmaydi. Bolaning qiziqishi va yoshiga mos kelmaydigan bilim va ko'nikmalarini rasmiy ravishda assimilyatsiya qilish uchun kattalarni o'rnatish rivojlanishda tormoz bo'lishi mumkin. Ushbu trening bilan kichik bola erkin, faol va mustaqil his etmaydi va olingan bilimlar unga begona bo'lib qoladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, erta yoshda kam ta'lim olish tajribasiga ega bo'lgan ko'plab bolalar keyingi ta'limga bo'lgan g'ayratni sezilarli darajada kamaytiradi.

Bir qator dasturlarda e'lon qilingan ta'lim va ta'limning shaxsiy yo'naltirilgan tamoyillari va maqsadlari har doim metodik rivojlanishda amalga oshirilmaydi. Psixologik nuqtai nazardan, yosh bolalarning yosh xususiyatlari kam:

- \* bolaning shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olmagan holda pasport yoshiga mos bilim, ko'nikma va ko'nikmalarini shakllantirishga haqiqiy e'tibor;

- \* moslashuvchan ta'lim jarayonini rejalahtirishning yo'qligi;

- \* bolalar faoliyatining ortiqcha cheklanganligi (bolada o'yinlar, o'yinchoqlar, mashg'ulotlar, materiallar tanlash imkoniyati yo'qligi, rasmiy o'yin texnikasi bilan erkin o'yin faoliyatini almashtirish). Eng zamonaviy mahalliy ta'lim dasturlarining jiddiy kamchiliklari ularning mazmunida kattalarning bolalar bilan shaxsiy yo'naltirilgan o'zaro hamkorligini tashkil etish va bolalarni tengdoshlari bilan muloqot qilish kabi tarbiyachilar faoliyatining muhim yo'nalishlari mavjud emasligi hisoblanadi. Ko'pgina ta'lim dasturlarida mavzu sohalarining mazmuni va uni bolalarga berish usullari odatda e'tiborga olinadi va kattalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro muloqot usullari to'g'ri ahamiyatga ega emas. Bundan tashqari, bolalar muassasasining oilasi bilan mazmunli ishlashiga e'tibor berilmaydi (odatda, u rasmiy ravishda amalga oshiriladi, ota-onalar guruh hayotida ishtirok etmaydi, ko'pincha bolani moslashtirish jarayonida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ladi).

Ta'lim mazmuni muammosi kadrlar muammosi bilan chambarchas bog'liq. Ayni paytda yosh bolalar bilan ishslash uchun malakali kadrlarning keskin tanqisligi kuzatilmoqda. Bolalar bilan ishslash uchun ko'pincha maktab o'qituvchilari, pedagogik ta'limga ega bo'limgan, bu yoshdagi bolalar bilan ishslash bo'yicha tegishli bilim va metodlarga ega bo'limgan shaxslar, o'qituvchining kasbiyliги, shaxsiy rivojlanish darajasi, pedagogik nuqtai nazarlari, bolalar bilan o'zaro munosabatlar uslubi ko'p jihatdan ta'lim sifatini va bolaning shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlaydi. O'qituvchilarning ta'lim jarayonida bolalar bilan o'zaro hamkorligi uslubining muhim ahamiyatiga qaramasdan, bu muammo ta'lim sifatini nazorat qiluvchi dastur ishlab chiquvchilari, o'qituvchilar, amaliyotchilar yoki ta'limni boshqarish organlari xodimlari tomonidan etarli darajada bekor qilinmagan.

Hozirgi vaqtida kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi ham o'qituvchining faoliyatini shu nuqtai nazardan baholashni to'liq ta'minlamaydi. Bu jarayon asosan rasmiy ko'rsatkichlarga (ta'lim olish, ish tajribasi, malaka oshirish va h.k.) qaratilgan bo'lib, ular har doim o'qituvchilarning bolaning rivojlanishining yosh xususiyatlarini va bolalar bilan o'zaro munosabatlar sohasidagi professionalligini aks ettirmaydi. Shu bilan birga, o'qituvchining ish sifati, birinchi navbatda, etarli ta'lim texnologiyalarining haqiqiy egasi, shu jumladan, shaxsiy yo'naltirilgan o'zaro ta'sir o'tkazish usullari bilan belgilanadi. Shunday qilib, erta

yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun kadrlar tayyorlash va sertifikatlash tizimini takomillashtirishning haqiqiy muammosi mavjud. Mamlakatimizning ko'plab hududlarida erta yoshdagi bolalar uchun ta'lif xizmatlariga bo'lgan talab keskin oshdi. Bu demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlardagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Shu munosabat bilan ta'lif muassasalarida tartib-qoidalar, yosh bolalar uchun guruhlar ko'payib bormoqda. Shu bilan birga, "xavf guruhi" (jismoniy va aqliy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va boshqalar) bolalar sonining ko'payishi kuzatilmoqda.

**Xulosa.** Demak, ushbu muammolarni hal qilish, asosan, turli xil oilaviy toifalarning ko'p tomonlama talablariga muvofiq, tug'ilishdan 3 yilgacha bo'lgan bolalarga keng qamrovli yordam ko'rsatadigan muassasalar tarmog'ini yaratishga yordam beradi. Hozirda, ko'plab mamlakatlarda va ayrim hududlarida bunday muassasalarning ijobiy tajribasi to'plangan. Ushbu tajribaga asoslanib, yosh bolalarni qo'llab-quvvatlash markazi va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash markazining umumiy modelini taqdim etish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Galiguzova L. N. "Aloqa genezisi kontseptsiyasida yosh bolalarning aqliy rivojlanish muammolarini ishlab chiqish" // nazariy va eksperimental psixologiya. 2009. T. 2. № 2.
2. Landers K. "Hayotning birinchi uch yili" xalqaro yosh dasturlari // xalqaro konferentsiya materiallari "Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirish". Xanti-Mansiysk, 2008.
3. Lisin M. I. "Muloqotda bolaning shaxsiyatini shakllantirish." Sankt-Peterburg., 2009.
4. "Maktabgacha ta'lif muassasasi tuzilmasida erta yordam xizmati faoliyatini tashkil etish." Ish tajribasidan / Ed. E. Ovchinnikova, I. Anisimova. Novokuybyshevsk, 2004.

**IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF MODERN  
PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS**

**Karimova Lobar Ergashovna**

*Navoi region, Karmana district*

*School № 21, English Teacher*

Enhancing the acquisition of knowledge by students by increasing the interaction between students and the teacher in the educational process, serves to develop personal qualities.

One of the main directions in improving teaching methods today is the introduction of interactive teaching and learning methods.

As a result of the use of interactive methods, students develop the skills of independent thinking, analysis, drawing conclusions, expressing their opinions, advocacy, healthy communication, discussion, debate.

It is the first level of thinking in which the student is able to say terms, know specific rules, concepts, facts, and so on.

Examples of verbs according to this level of thinking are: to be able to repeat, to reinforce, to convey information, to tell, to write, to express, to differentiate, to recognize, to tell, to repeat.

With understanding, the student will be able to understand facts, rules, diagrams, and tables.

This requires examples of verbs appropriate to the level of thinking: justification, substitution, clarification, definition, explanation, translation, reconstruction, elucidation, interpretation, clarification.

At the level of applied thinking, the student is able to use the acquired knowledge not only in non-traditional, but also in non-traditional situations and apply them correctly.

Examples of verbs appropriate to this level of thinking are: introduce, calculate, demonstrate, use, teach, define, implement, calculate, apply, solve.

At the level of analytical thinking, the student is able to distinguish parts of the whole and the interrelationships between them, see errors in the logic of thinking, distinguish between facts and consequences, evaluate the importance of information.

Examples of verbs according to this level of thinking are: derivation, separation, stratification, classification, guessing, prediction, spreading, distribution, verification, grouping.

At the generalization level, the student works creatively, makes a plan for an experiment, and uses knowledge from several areas. Creatively processes information to create novelty.

Examples of verbs according to the level of thinking are: creation, generalization, merger, planning, development, systematization, combination, creation, composition, design.

In assessment-level thinking, the student is able to distinguish criteria, follow them, see the diversity of criteria, evaluate the relevance of conclusions to existing data, and distinguish between facts and evaluative opinions. Examples of verbs appropriate to this level of thinking are: diagnose, prove, measure, control, justify, approve, evaluate, check, compare, compare.

Based on the study of some experiences in the practical application of interactive training, we can identify the factors that affect the quality and effectiveness of these trainings.

They can be conditionally called organizational-pedagogical, scientific-methodical and factors related to the teacher, students, teaching aids. We need to keep in mind that they have a positive or negative effect, depending on their nature.

**JISMONIY MADANIYAT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARNI  
CHINIQTIRISHNING FIZIOLOGIK ASOSLARI**

Rustambekov Bekzod Bahrombek o'g'li

*Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani*

*5-son umum ta'lim mакtabning*

*Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

Chiniqish organizmga turli xil muolajalarning surunkali berilishi natijasida metereologik omillar ta'siriga chidamlilikning oshishidir. U jismoniy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib chiniqish tufayli organizmning har xil kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati, noqulay sharoitlarda ishslash qobiliyati, ekstremal omillarga bardosh berishi oshib boradi.

Yana bir muhim narsa shundan iboratki, chiniqish tufayli organizmning o'zgargan yoki o'zgarayotgan muhit sharotiga moslashishi yoki adaptatsiyalanishi sodir bo'ladi.

Chiniqish organizmga spetsifik va nospetsifik yo'l bilan ta'sir etadi. Spetsifik ta'sir deganda sovuq muolajalar yo'li bilan sovuq haroratga chidamlilikning oshishi, quyosh vannalari qabul qilish bilan quyosh radiatsiyasiga chidamlilikning oshishi tushuniladi. Nospetsifik o'zgarishlar deganda esa belgilangan bir xil omil ta'siri bilan organizmning umumiyligi chidamliligin oshirish, ish qobiliyatining ko'paytirilishi, kasalliklarga berilmaslik qobiliyatining o'sishi tushuniladi.

Chiniqish jarayonida nerv tizimi va endokrin yo'llar bilan organizm fiziologik funksiyalarining regulyasiya qilinishi o'zgarib boradi. Chidamlilikning oshishi bilan o'zgarishlar hujayralar va to'qimalar borasida ham nomoyon bo'ladi, bunga ho'jayra kimyoviy tarkibining o'zgarishini, fermentlar faolligining kuchayishi yoki pasayishini olish mumkin. Jismoniy tayyorgarligi yuqori odamlarda biron-bir omil ta'siri tufayli chidamlilikning oshishi tezroq bo'ladi.

Organizmni chiniqtirishda umumiyligi prinsiplarga rioya qilinadi, ya'ni ta'sir etuvchi omillar doimiy, izma-iz bo'lib organizmning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi lozim.

Muhit haroratiga chiniqish shartli refleks asosida yuz berib, bunda omillarning ta'sir etish vaqtি o'zi xos xususiyatlari va atrof muhit shartli signal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Beriladigan malakalarining miqdorini aniqlashda termoregulyasiyaning faollar davomida o'zgarib turishini hisobga olish kerak. Masalan, bahor va yozning boshlanishida kimyoviy termoregulyasiya ancha intensiv bo'ladi. Bahorda sovuq haroratni sezish porogi kuz paytiga nisbatan ancha past bo'ladi. Bundan tashqari, kimyoviy termoregulyasiyaning o'zgarishi ertalabki soatlarda ancha tez bo'ladi.

Sovuq haroratga chiniqish suv protseruduralari va sovuq havo vannasi orqali olib boriladi. Suvda haroratni o'tkazish kuchli bo'lganligi uchun u tanani tez sovitish xususiyatiga esa. Shuning uchun suv muolajalari qisqa bo'ladi (bir necha sekunddan bir necha minutgacha). Sovuq suv haroratga chiniqishda tananing ma'lum bir qismiga uning ta'sirini berish bilan ham amalga oshirish mumkin. Masalan, sovuq suvni badanga purkash, tananing yuqori qismini nam sochiq bilan artish, oyoqni sovuq vanna qilish, tomoqni chayqash va

boshqalar. Bu vaqtida shunga e'tibor berish kerakki, tananing aynan mana shu qismi sovuq haroratga oldin ko'proq uchramagan bo'lishi kerak. Masalan, yuz yoki qo'l uchlariga sovuq muolajalar bilan ta'sir etib organizmni chiniqtirib bo'lmaydi. Chunk tnaning bu qismlariga sovuq harorat doim ta'sir etib turadi. Ba'zan organizmni chiniqtirish issiq va sovuq suvni navbatma-navbat ta'sir ettirish yo'li bilan bo'ladi. Bunday yo'l bilan chiniqtirish termoregulyasiya jarayoni mukammallahib boradi.

Oldin aytib o'tganimiz kabi har qanday jismoniy faoliyat organizmni bevosita qizitadi, ya'ni termik effekt beradi. Buning uchun ham sovuq sharoitda mashq bajarish ancha yengil o'tadi, chunki bunday paytda organizmning ichki suyuqliklar hisobidan qizib ketishiga tashqi haroratning pastligi yo'l qo'ymaydi.

Yosh sportchilarda chidamlilikni tarbiyalash bo'yicha olib borilgan tekshirish ishlari ilmiy va metodik tomondan yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, umuman chidamlilik muammosini yechish uchun to'liq javob bera olmaydi.

O'tkazilgan tekshiruv ishlarini ko'rsatishicha, aylanma mashg'ulot uslubini yengil atletikaga, yugurish, o'yin va musobaqa shaklida qo'shib o'tkazganda 15-16 yoshli o'smirlarni chidamliligin oshirish, shuningdek, boshqa jismoniy sifatlarni ham rivojlanganligini ko'rsatgan.

Bolalar va o'smirlarda chidamlilikni tarbiyalashda, organizmning funksional tayyorgarligi sustligini e'tiborga olgan holda sekin va ilmiy yondoshish kerak hamda bu yosh davrida ko'proq tezkorlik sifatlarini tarbiyalash kerakligini ko'rsatishgan.

Ayrim olimlarning fikricha, chidamlilikni rivojlantirishda, juda ehtiyoj bo'lish, maktab yoshidagi bolalarda umumi jismoniy tayyorgarlikni to'liq berilmaganligini tasdiklaydi.

Shu bilan bir qatorda o'smir yoshda umumi chidamlilikni tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositasi sifatida asosan yugurishni; uzun masofa bo'laklarida qayta yugurishni umumi rivojlantiruvchi mashqlar va nafas olish mashqlari bilan almashtirishni olimlarimiz taklif qilishgan.

**TASVIRIY SAN'ATNING TUR VA JANRLARI. TASVIRIY SAN'ATNING  
TARBIYAVIY AHAMIYATI**

**Ortiqboyeva Gulsora Xusanboyevna**

*Namangan viloyati, Mingbuloq tuman*

*19-umumiy o'rta ta'lif maktabi*

*Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi*

O`zbekiston Respublikasining istiqlolga erishishi halqimizning tarixiy qadriyatlari, ma`naviy merosi xalq pedagogikasi an`analarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo`l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an`analarga ega bo`lgan Tasviriy san`at turlariga o`quvchi yoshlarni jalg etish kata tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san`at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi.. Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san`at sohalarida ham tub o`zgarishlar davri kechmoqda. Bu o`zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo`llay olish ko`nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi. Talabalarni ijtimoiy-madaniy, ma`naviy-ma`rifiy ahamiyatga molik bo`lgan bu tadbirni amalga oshirishga ko`p yillar davomida milliy boylik bo`lib kelgan xalqimizning madaniy va maishiy hayotga keng tatbiq etilgan go`zal xunarlaridan biri tasviriy san`atni o`rgatish va u soha bo`yicha bo`lg`usi tasviriy san`at o`qituvchilarini tayyorlash muammosi ham hozirgi kunda juda katta ijtimoiy pedagogik ahamiyatga egadir.

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jaxonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo`shilishida xalqimiz madaniyati, ma`rifati, san``ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma`naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san`atning ham o`z o`rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo`lgani kabi tasviriy san`atda ham katta o`zarishlar bo`lmoqda. Bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchisi so`zsiz, tasviriy san`atning ifoda vositalari haqida chuqur ma`lumatga ega bo`lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo`llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san`at o`qituvchisining o`zi qalam va bo`yoqlar bilan rangda ifoda etish ko`nikmalariga ega bo`lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o`quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Shuning uchun ushbu qo`llanmada rangtasvir haqidagi nazariy va metodik ma`lumatlar keng va atroflicha yoritiladi.

Rang orqali natyurmort ishlash tasviriy san`atning ilmiy negizini tashkil etadigan perspektiva, rangshunoslik, kompozisiya, yorug`-soyalarni o`rganish uchun, ayniqsa, keng imkoniyatlar yaratadi.

Tasviriy faoliyat bilan shug`ullanish kishilarga estetik zavq bag`ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Talabalar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviy voqealarni, personajlarning kechinma va xarakatlarini, shuningdek tabiat go`zalliklarini chuqur idrok etadilar.

Tasviriy san`atning tur va janrlari. Tasviriy san`atning tarbiyaviy ahamiyati.

Tasviriy san`at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo`ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go`zallik hissi ortdi, voqelikdagi go`zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqqa boshladi. Bu esa fan va san`at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san`at va san`atkorlar shu davrda paydo bo`ldi. Tasviriy san`at esa o`ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ`ib etuvchi kuchli g`oyaviy quroqla aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste`dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istikclarini, ularning go`zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo`lib qolmay, balki o`zida inson aql-zakovati, hayot to`g`risidagi fikr-o`ylarini aks ettiruvchi ko`zgu hamdir. Jahon san`ati tarixini o`rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o`tmish odamlarning his-tuyg`u, hayotiy tajribalarini o`rganish g`oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so`zsiz. Kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroficha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san`at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san`atning eng muhim turlaridan bo`lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san`at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o`rin egallaydi.

**MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Shokirov Iqboljon Baxtiyorjon o'g'li**

*Farg'onan viloyati, Qo'qon shahar*

*39-umumi o'rta ta'lif maktabi*

*matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *matematika, innovatsion, fan, texnologiya, o'yin, aqliy faoliyat.*

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishini o'zida jamlagan Harakatlar strategiyasida ham ta'lif sohasiga urg'u berilgan.Ta'lif jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lif samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarni fikr doirasini, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko'p qirrali samara keltiradi. Shu sababdan ham maktab oldida innovatsion faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvlar va nazariyalar, yangiliklarni yaratish, tatbiq etish va ulardan foydalanishning yaxlit, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga aylantirish talab etilmoqda. Xuddi shu kabi talim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiyaga amal qilina boshladи.

Men mehnat qilayotgan maktabda dars jarayonida keng qo'llayotgan samarali usullardan "Klaster", "Ishchanlik o'yini", "Zig-zag", "Kubik", "BBB", "Tarmoq", "Diagramma", "Topag'on", "Doiraviy misollar", "Sirli son", "O'yin topishmoq", "Tez javob", "Rebus", "Nima yo'qolib qoldi?" kabi didaktik o'yinlardan ko'proq foydalanish ta'lif samaradorligini oshirishga yordam beradi va shulardan foydalanib kelmoqdaman. Matematika fani o'rganilishi jihatdan boshqa sohalarga nisbatan biroz qiyinroq bo'lganligi uchun o'quvchilarda bu sohaga qiziqish, o'zlashtirish darajasi farq qiladi. Shuning uchun ham darslarda o'quvchilarga yaqinroq bo'lishga, qiziqarli misol, masalalar bilan boyitilishiga to'g'ri keladi. Ayniqsa, o'quvchilarda teorema, yoki qiyinroq masalalarni hal etish davomida miyaning qabul qilish darajasi susayib, ularda zerikish alomatlari sodir bo'la boshlaydi. Agar o'qituvchi bu holatni o'z vaqtida sezib, ularni bu holatdan chiqarishga harakat qilmasa, bu darsdan kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. "O'qituvchi- kishi ruhining muhandisidir" deb bejiz aytilmagan. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilar aqliy faoliyatini vaqt bilan o'zgartirib turish xususiyatiga egadir. O'quvchilarning dars jarayonida toliqqanligi sezilgan vaqtida didaktik o'yinlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ish tajribalarimizda ko'p qo'llaydigan bunday o'yin turlaridan "Ishchanlik o'yinlari"ni misol qilib olishimiz mumkin. Bunday o'yin turida

o'quvchilar o'rtasida aqliy ish yuzasidan musobaqa tashkil qilinadi. Musobaqada tez, to'g'ri, chaqqon holda ishni yakunlagan guruh g'olib sanaladi. Haqiqatdan ham, bolalarda bilim olishdan ham birinchi bo'lish, o'qituvchining rag'batini eshitish ishtiy yoqi ancha kuchli bo'ladi. Mohir o'qituvchilar mana shu vaziyatdan unumli foydalanadilar. "Ishchanlik o'yini"da arifmetik misollar, algebraik soddalashtirish, masala-misollar, geometrik masalalar, test savollari yoki viktorina savollaridan foydalanish mumkin. Hamma hollarda ham bu vazifalar qisqa muddatda hal etilishi lozim bo'lganligi uchun sarf etiladigan vaqt ham shunga mos bo'ladi. Tajribalarimizdan ma'lumki, matematikadan tashkil etiladigan didaktik o'yinlardan "Ishchanlik o'yinlari"ni o'tkazish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilar faolligini oshirishning muhim omili sifatida ta'sir etadi.

Agar o'quvchilar har bir fandan olgan bilimlarini hayotga tatbiq eta olmasa, amalda ulardan foydalanolmasa, quruq fan bo'lib qolaveradi, o'qituvchining mehnati zoye, o'quvchining vaqtি behudaga sarflangan hisoblanadi. Jamiyatimizning hech bir a'zosi yo'qki, kundalik turmushida matematikadan foydalanmasa. Natural sonlar, o'nli kasrlar ustida bajariladigan u yoki bu amallarni o'rganishni olsak, kundalik turmushda bundan foydalanmaydigan kishini topish qiyin, yoki umuman mumkin emas. Geometriyadan to'g'ri chiziq, kesma, aylana, doira, uchburchak, ko'pburchak, shar, silindr tushunchalari bilan bog'liq mavzularni olsak, bular juda ko'p kasblarda, kundalik turmushda, boshqa fanlarni o'rganishda tez-tez qo'llaniladi. Matematikani o'rganish o'quvchilarda sanash, hisoblash, o'lchash, taqqoslash, tahlil qilish, isbotlash, mantiqiy fikrlash, fazoviy tasavvur qilish kabi juda ko'p ko'nikma va malakalardan tarkib topadiki, bularsiz hayotda biror ish qilish qiyin. Matematika fanida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash faqat shu mavzu oqali emas, balki har bir mavzusi ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan: Kongurent figuralar mavzusini o'tishda tikuvchilar kiyim andozasini olishda foydalanishlarini aytish mumkin. Sferaning hajmi mavzusini o'tishda sfera shaklida qurilgan binolarni (masalan sirk) tomlarini bo'yash uchun ketgan bo'yoq miqdorini aniqlashda qo'llanishini, hajmlar mavzusini o'tishda turmushda uchraydigan figuralarning hajmlarini topish, ularga ketadigan material miqdorini aniqlashda yordam berishni aytib o'tish lozim. Matematika darslarida hamma mavzularni turmush, o'quvchilarni kasbga yo'llash bilan bog'lash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida interfaol metodlardan samarali foydalanish o'quv materialini o'zlashtirishni osonlashtiradi. O'quvchilar matematika fanini puxta o'zlashtirishi uchun pedagog mustaqil yo'naltira oladigan materiallardan samarali foydalanishi, darsni qiziqarli o'tishi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Axmedov M, Abduraxmonova N, Jumayev M. Matematika. O'qituvchi kitobi.-Toshkent-2003.
2. Abduhamidov A., Nasimov H., Nosirov U., Husanov J. Algebra va matematik analiz asoslari. 1-qism. - T.: O'qituvchi, 2008.
3. Hojiyev A., Faynleyb A. Algebra va sonlar nazariyasi. - T.: O'zbekiston, 2001.

# MATEMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA MULTIMEDIA MUHITIDAN FOYDALANISHING AHAMIYATI

Sunnatova Komola Sadriddin qizi

Buxoro viloyat Olot tumani 23 – maktab

I- toifali matematika o'qituvchisi

Bugungi kunda uzliksiz ta'lrim tizimi bo'g'inidagi ta'lrim muassasalari, shu jumladan, umumiyl o'rta ta'lrim maktablari o'qituvchilari oldida o'qitilayotgan fanning o'zlashtirish sifatini oshirish vazifasi turibdi. Ushbu metodik tavsiyada anashu jihatga erishishda multimedia muhitidan foydalanish, xususan, matematikadan amaliy



mashg'ulotlarni tashkil etishda multimedia muhitidan foydalanish bo'yicha maslahatlar berilgan.

Multimedia - bu obyekt va jarayonlarni an'anaviy matn shaklida emas, balki fotorasm, video, chizma, animatsiya, ovoz yordamida namoyish qilishdir.

Matematika fanini o'rgatishda multimediali darslar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- fan bo'yicha asosiy bilimlarni o'zlashtirish;
- o'zlashtirilgan bilimlar izchilligini ta'minlash;
- o'z - o'zini nazorat ko'nikmasini shakllantirish;
- ta'lrim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtini tejash imkoniyatiga erishish;
- olingan bilimlar kishi xotirasida o'zoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyati
- bilim olishga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirish;
- o'quvchilarni o'quv materiali ustida mustaqil ish olib borishlarida o'quv - metodik yordam ko'rsatish.

Quyida 7 - sinf algebra fanidan elektron majmua namunalari keltirilgan bo'lib, bunday multimedia vositalari orqali darslarni tashkil etishdagagi afzalliliklar namoyon bo'ladi:

“ Sonli ifodalar” mavzusining tayanch tushunchalari alohida oynachada ovozlar bilan keltirilgan. Tayanch tushunchalarni o'rganishda o'quvchi kerakli tushunchani tanlaydi, uning oynachasida shu tushunchaning ta'rifi namoyon bo'la boradi, shu bilan birga ovozli yozuv ham eshitiladi. Bu o'quvchining ham ko'rib, ham eshitib ma'lumot olishiga imkon

beradi. Bunda ovoz faqat bir marotaba eshitiladi, ta'rif esa qayta namoyon bo'laveradi, ya'ni o'quvchi ta'rifni yozib olishi mumkin. Agar ovozni eshitib yaxshi tushunib oladigan bo'lsa, u holda shu tushunchani yana bir bora tanlashi lozim. Har safar tushuncha tanlangach ovozli ta'rif eshitiladi. Bu holat o'quvchining xotirasida ushbu tushunchaning yaxshi saqlanishiga imkon beradi. Tayanch tushunchada ovozning qayta-qayta qo'yilmasligi, ba'zi o'quvchilar me'dasiga tegishi mumkinligini inobatga olinganligidan dalolatdir. Xuddi shunday boshqa ta'riflar ham tanlanadi.

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarini multimedia texnologiyalari asosida o'qitish katta samara beradi. Buning uchun esa mashg'ulotlarning har bir mavzusi bo'yicha dars ishlanmalari yaratilishi lozim. Ana shu ishlanma asosida barcha mavzularga oid axborot texnologiyalari vositalari yordamida bayon etilishi lozim bo'lgan nazariy va amaliy materiallarning electron taqdimoti shakli tayyorlanadi. Dars ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoproyektorlar orqali o'quvchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Multimediali taqdimot nafaqat matnli va ko'rgazmali balki ovozli, animatsiyali bo'lishi o'quvchilar tomonidan mavzuni mukammal o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH  
DASTURLARIDA ISHTIROK ETISHGA TAYYORLASH**

**Vohidova Umidaxon Abdusalom qizi**

*Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(boshlang'ich ta'lim) I-kurs magistranti,*

*Namangan Davlat Universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishga tayyorlash" xususida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, Xalqaro tadqiqotlardagi, innovatsiya, texnologiya.*

**Аннотация:** В этой статье обсуждается «Подготовка учеников начальной школы к участию в международных программах оценивания».

**Ключевые слова:** *PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, международные исследования, инновации, технологии.*

**Annotation:** This article discusses "Preparing Primary School Students to Participate in International Assessment Programs."

**Keywords:** *PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, International Research, Innovation, Technology.*

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'naliishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiytadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS – 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'naliishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarining ish sharoitlarini o'rganish;

PISA – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

Ushbu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalar, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiysi"da xalq ta'lifi tizimida o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlardan biri PIRLS da O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta'minlanishi ta'kidlab o'tilgan.

Mazkur xalqaro tadqiqotlarning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'lifi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish savodxonligini aniqlash va ularni jahon talablariga mos raqobatbardosh kadrlar etib yetishtirish maqsadida ta'lim tizimimizni tubdan isloh qilinmoqda. Bunda avvalambor boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini kuchaytirish va xalqaro baholash dasturilaridan biri PIRLS dasturiga tayyorgarlik ishlarini yanada kuchaytirmoqlik lozim. Buning uchun nima qilish kerak? Yaxshi natijalar ko'rsatish uchun hech bo'lmaganda 2 maqsadga ega bo'lish kerak: birinchisi, o'qituvchilar va ular ishlaydigan, foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir. Zero xalqaro tadqiqotlarda bejizga maktablarda ta'lim sifati o'qituvchilarning kasbiy darajasiga bog'liq, deb aytishmaydi. Demak, o'qituvchilarni tayyorlashga mablag' ajratish va yangi o'quv materiallarni yaratish kerak. Tegishli vazirliklar malaka oshirish tizimiga investitsiya kiritishi, moliyalashtirishi va uslubiy qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur xalqaro tadqiqot orqali o'quvchilarimizning bilimlarini baholash mezonlari va uslubi bugungi kunda mamlakatimiz uzlusiz ta'lim tizimida mavjud ichki va tashqi baholash mezonlari va topshiriqlaridan tubdan farq qiladi. Ya'ni, PISA dasturida 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy fanlardan savodxonligi, mazkur fanlar doirasida o'quv dasturlari va darsliklaridan olgan ma'lumotlarni eslab qolganliklarini emas, balki egallagan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda qanchalik qo'llay olishlari va berilgan muammoli vaziyatlarga maqbul yechim topa olishlari hamda ijodiy-kreativ fikrlash qobiliyatları baholanadi. PIRLS dasturida esa, 4-sinf o'quvchilarining an'anaviy matnlarni tez, ravon, ifodali o'qiy olishi emas, balki darslikdan tashqari berilgan matnlarni o'qib, uni qanchalik tushunishi va talqin qila olishi hamda fikrlarini ravon tilda yozma bayon eta olish ko'nikmaları baholanadi. Qisqacha qilib aytganda, xalqaro tadqiqotlar natijalari yosolarimizning hayotga qanchalik tayyorlanayotgani va buning uchun ularga taqdim etilayotgan ta'lim dasturlari bugungi kun talabiga qanchalik javob berishini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim berish jarayoni murakkab, ziddiyatli jarayon bo‘lib, o‘qituvchidan kuchli bilim, mahorat, tashkilotchilik qobiliyatni talab etadi. Har bir o‘qituvchining o‘z oldiga qo‘ygan didaktik maqsadiga erisha olishi uning kasbiy mahoratiga, samara beradigan ta’lim shaklini tanlay olishiga, ta’lim vositalaridan unumli foydalana bilishiga, eng muhimmi, o‘qitish usullarini o‘rinli qo‘llay olishiga bog‘liqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida” gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T. Sharq nashriyot – matbaa konserni, 1997.
3. Yunusova D. Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik. – T. Fan va texnologiya, 2011.
4. Yunusova D. Bo`lajak matematika o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. – T. Fan, 2009.

**MATEMATIKA FANINI O`QITISHDA ILG`OR PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARING ROLI**

Qurbanaliyeva Shoira Maxmanazarovna

*SamDCHTI akademik litseyi matematika fani bosh o`qituvchisi*

**Sarmanova Kamola Bektosh qizi**

*SamDU matematika fakulteti 3-bosqich talabasi*

Ta`lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning muhim jihatlaridan biri ta`lim oluvchi o`quvchida bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirishdir. Matematika darslarida o`qituvchi innovatsion texnologiyalarni ta`lim jarayonida to`g`ri qo`llay bilsa, o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishi ortadi, mustaqil fikrash qobiliyati tez rivojlanadi.

Matematika fani o`qituvchilari orasida “*Matematika o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan qanday foydalanasiz?*”, “*Matematika darsida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib bo`lmaydi, doska, bo`r bo`lsa, yetarli*” kabi fikrlovchilari ham topiladi. Ba`zan, bunday holatlar tortishuvlarga ham olib kelgan.

Maqola matab, akademik litsey matematika fani o`qituvchilariga ta`lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda yaqindan yordam beradi degan umiddamiz. Bu ishni ikki qismga bo`lib yoritmoqchimiz:

1. Matematika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
2. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib o`tilgan dars ishlanmasi.

**Matematika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish**

**1-dars.** O`quvchilarni ruhan darsga tayyorlash, auditoriyada ko`tarinki ruh, qiziqarli muhitni shakllantirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan “**Muz yorar**” usuli - “**Tanishuv**” texnologiyasini qo`llang. Bunda guruh 6 ta kichik guruhlarga bo`linadi. Har bir guruhdagi 1-o`quvchi o`z ismining bosh harfi bilan boshlanuvchi biror bir fazilatni ismiga qo`shib aytadi, 2-o`quvchi esa 1-o`quvchi aytganini takrorlaydi va o`z ismining bosh harfi bilan boshlanuvchi biror bir fazilatni ismiga qo`shib aytadi, bu jarayon kichik guruhning so`nggi a`zosiga kelib yakunlanadi. Masalan:

- 1-o`quvchi: Orifjon – odobli;
- 2-o`quvchi: Orifjon – odobli, Aziza- aqli;
- 3-o`quvchi: Orifjon – odobli, Aziza- aqli, Bahodir – botir;
- 4-o`quvchi: Orifjon – odobli, Aziza- aqli, Bahodir – botir, Charos- chevar;

5-o`quvchi: Orifjon – odobli, Aziza- aqli, Bahodir – botir, Charos – chevar, G`ayrat - g`ururli;

6-o`quvchi: Orifjon – odobli, Aziza- aqli, Bahodir – botir, Charos – chevar, G`ayrat - g`ururli, O`g`iloy- o`quvchi.

Bu bilan o`quvchi va o`qituvchi o`rtasidagi munosabat shakllanadi.

Mana tanishib ham oldingiz. Endi siz matematika fani “fanlar ichida shoh” ekanligini hayot bilan bog`lab tushuntiring. O`quvchilar sportni, aniqroq aystsak, futbol o`ynashni yaxshi ko`radi. Shundan foydalanib, futbol o`yinga tushushdan oldin, har xil chiniqtiruvchi mashqlar bajarilishini, chiniqqandan so`ng maydonda natija yaxshi bo`lishini eslating.

Xuddu shunga o`xhash, matematika darslarida faol qatnashgan o`quvchining ongida “mudroq bosib yotgan nuqtalar” harakatlanishining kuchayishi (multimediali namoyish orqali odam bosh miyasining harakatlanishi ko`rsatilsa dars yanada samarali bo`ladi), uning dunyoqarashi kengayishiga, boshqa fanlarni ham yaxshi o`zlashtirishiga yaqindan yordam berishiga ishontiring.

**“Muz yorar”** usulidan matematika fanida nazariy-o`quv mashg`ulotining o`tgan darsni mustahkamlash bosqichida, ba`zan yangi mavzuni mustahkamlash bosqichida foydalanish ham katta samara beradi. Masalan, ”Burchakning radian va gradus o`lchovlari” nazariy-o`quv mashg`ulotining yangi mavzuni mustahkamlash bosqichida quyidagicha foydalanish mumkin:

**O`qituvchi:** 1-qator burchaklarni oldin radian o`lchovini, so`ng gradus o`lchovini aytadi.

$$1\text{-o`quvchi: } 0 \text{ rad} = 0^{\circ};$$

$$2\text{-o`quvchi: } 0 \text{ rad} = 0^{\circ}; \frac{\pi}{6} \text{ rad} = 30^{\circ};$$

$$3\text{-o`quvchi: } 0 \text{ rad} = 0^{\circ}; \frac{\pi}{6} \text{ rad} = 30^{\circ}; \frac{\pi}{4} \text{ rad} = 45^{\circ};$$

$$4\text{-o`quvchi: } 0 \text{ rad} = 0^{\circ}; \frac{\pi}{6} \text{ rad} = 30^{\circ}; \frac{\pi}{4} \text{ rad} = 45^{\circ}; \frac{\pi}{3} \text{ rad} = 60^{\circ};$$

$$5\text{-o`quvchi: } 0 \text{ rad} = 0^{\circ}; \frac{\pi}{6} \text{ rad} = 30^{\circ}; \frac{\pi}{4} \text{ rad} = 45^{\circ}; \frac{\pi}{3} \text{ rad} = 60^{\circ}; \frac{\pi}{2} \text{ rad} = 90^{\circ};$$

$$6\text{-o`quvchi: } 0 \text{ rad} = 0^{\circ}; \frac{\pi}{6} \text{ rad} = 30^{\circ}; \frac{\pi}{4} \text{ rad} = 45^{\circ}; \frac{\pi}{3} \text{ rad} = 60^{\circ}; \frac{\pi}{2} \text{ rad} = 90^{\circ}; \pi \text{ rad} = 180^{\circ};$$

**O`qituvchi:** 2-qator burchaklarni oldin gradus o`lchovini, keyin radian o`lchovini aytadi.

Bu bilan o`quvchida asosiy burchaklarning radian va gradus o`lchovlari haqidagi bilim va ko`nikma shakllanadi. Zero, qayta takrorlash - bu bilimning onasidir.

### Innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan dars ishlanmasi

“Algebra va matematik analiz asoslari” fanidan “Yuqori darajali tenglamalarni ko`paytuvchilarga ajratish usulida yechish “nazariy- o`quv mashg`ulotining dars ishlanmasi

**I. Tashkiliy qism:** O`quvchilar bilan salomlashish, ularning kayfiyati va tashqi ko`rinishini kuzatish, ruhan darsga tayyorlash; „ Kunlik sport yangiliklari - o`quvchilar nigohida”- fikr almashish;

### II. O`tgan mavzuni mustahkamlash:

-Mustaqil ishlarni ko`rib chiqish, rag`batlantirish hamda o`quvchilarga muammo bo`lgan savollarga javob berish;

**III. Kirish qismi (motivatsiya).** O`tgan dars mavzusiga oid bilimlarini mustahkamlash

### Tezkor savollar:

1. Tenglama nima?
2. Tenglamaning yechimi deganda nimani tushunasiz?
3. Tenglamani yechish –bu...

4. Teng kuchli tenglamalar deb qanday tenglamalarga aytildi? Tuzilmaviy – mintaqaviy chizma “**Pog`ona” usulida** tushuntirib bering.

5. Siz shu vaqtga qadar qanday tenglamalar yechishni o’rgandingiz?

6. Yuqori darajali tenglamalarga misollar keltiring?

7.  $(x+6)(x+14)+8(x+14)=0$  va  $\frac{(x+6)(x+14)}{x+14}=0$  tenglamalar teng kuchlimi?

8.  $x^2-16=x-4$  va  $x^2-16=0$  tenglamalar-chi?

9.  $(5x+2)(3x-1)(x-6)=0$  tenglama nechanchi darajali? U nechta yechimga ega?

**IV. Yangi mavzuning bayoni .** Darslik kitobida yechilishi berilgan yuqori darajali

$$1. x^3 - 2x + 4 = 0$$

$$2. x^4 - 3x^3 + 3x^2 - x = 0$$

$$3. x^4 - 9x^2 - 20 = 0$$

tenglamalarni mustaqil o`rganish o`tgan darsda uy vazifasi sifatida berilgan edi. O`quvchilar bu tenglamalar yechilishini “**Pinbord” usulida** tushuntirib beradilar

“**Pinbord” usulida** guruh uch qismga bo`linadi , har bir guruhgaga bittadan vatman, marker va yuqoridagi tenglamalar yozilgan kartochka berasiz. Guruhdagi faol o`quvchi tomonidan vatman qog`ozga bu tenglamaning yechilishi o`quvchilar bilan hamkorlikda yoziladi, va, doskada tenglama yechilishi yozilgan vatman qog`oz yopishtiriladi. Uchala guruh ishni tugatib bo`lgach, bu ish guruhnning boshqa bir a`zosi tomonidan tushuntirib beriladi. Shundan so`ng “Pinbord”usulida yechilgan bu yuqori darajali tenglamalar ko`paytuvchilarga ajratish usulida yechishning qanday turlariga mansub ekanligi o`qituvchi tomonidan tahlil qilinadi:

1-tenglama yuqori darajali tenglamalarni ko`paytuvchilarga ajratish usulida yechishning **umumiyo` ko`paytuvchini hosil qilish va uni qavsdan tashqariga chiqarish** turi bo`yicha yechildi.

2-tenglama yuqori darajali tenglamalarni ko`paytuvchilarga ajratish usulida yechishning **o`zgarish kiritib, so`ngra kvadrat uchhadni ko`paytuvchilarga ajratish** turi bo`yicha yechildi.

3-tenglama yuqori darajali tenglamalarni ko`paytuvchilarga ajratish usulida yechishning **umumiyo` ko`paytuvchini qavsdan tashqariga chiqarish va qisqa ko`paytirish formulalari orqali ko`paytuvchilarga ajratish** turi bo`yicha yechildi.

Endi quyidagi tenglamalarni ko`paytuvchilarga ajratish usulida yechilishi

**“Tushuntirish“ metodi** orqali doskada ko`rsatiladi.

**1-misol.**  $x^5 - 3x^4 + 2x^3 = 0$  tenglama yechilsin.

**Yechish:**  $x^5 - 3x^4 + 2x^3 = x^3(x^2 - 3x + 2) = 0$  Bundan  $x^3 = 0$  va  $x^2 - 3x + 2 = 0$

$$x_{1,2,3} = 0 \text{ va } x_4 = 2, x_5 = 1.$$

**2-misol.**  $x^3 - 6x^2 + 11x - 6 = 0$  tenglama yechilsin.

**Yechish:**  $x^3 - 6x^2 + 11x - 6 = 0 \Rightarrow x^3 - x^2 - 5x^2 + 5x + 6x - 6 = 0 \Rightarrow x^2(x-1) - 5x(x-1) + 6(x-1) = 0$   
 $(x-1)(x^2 - 5x + 6) = 0$

Bundan:  $x_1 = 1, x_2 = 2, x_3 = 3$  tenglamaning yechimlari kelib chiqadi.

O`qituvchi 3-, 4- yuqori darajali tenglamalarni yechishning ko`paytuvchilarga ajratish usulini vedioproektor yordamida tushuntirsa yanada samarali bo`ladi.

**3-misol.**  $x^4 + 4x^3 + 8x^2 + 16x + 16 = 0$  tenglama yechilsin.

**4-misol.**  $x^5 - 3x^4 + 4x^3 - 4x^2 + 3x - 1 = 0$  tenglama yechilsin.

**V. Yangi mavzuni mustahkamlash :** Mavzuga oid tenglamalarni mustaqil yechish (kitob bilan ishslash). Tenglamalarni ko`paytuvchilarga ajratish usuli bilan yeching.

$$6.44. \ x^3 - 8x^2 - x + 8 = 0$$

$$6.45. \ x^3 - 0,1x = 0,3x^2$$

$$6.46. \ 9x^3 - 18x^2 - x + 2 = 0$$

$$6.47. \ y^4 - y^3 - 16y^2 + 16y = 0$$

### VI. Dam olish daqiqasi.

**O`qituvchi :** Ochiq darsimizning aziz mehmoni ,

Tashrifingiz uchun aytay tashakkur!

Sakson daqiqada sog`-u salomat,

Uchrashganimizga aytaman shukur.

Darsimiz mazmunli o`tgan bo`lsa gar,

Bizning qilganimiz ozgina xizmat.

Barchaning ishiga tilaymiz samar,

Yana barchangizga aytamiz rahmat!

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. A.U.Abduhamedov, U.M.Nosirov, H.A.Nasimov, J.H.Husanov “Algebra va matematik analiz asoslari”, I qism, Akademik litseylar uchun darslik, 184-bet, 6.49-6.53-mashqlar, T - 2008 y.

2. L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva „Innovatsion ta`lim texnologiyalari“, T-2012

3. Karim Muhammedov “Elementar matematikadan qo’llanma” , Oliy o’quv yurtiga kiruvchilar uchun, T-2008 y.

## ZAMONAVIY PEDAGOG QANDAY BO`LISHI KERAK?

**Axmedova Dildora Qudratullayevna**

Buxoro viloyati Shofirkon tumani  
26-maktabgacha ta`lim tashkiloti  
direktori, tuman kengash deputati

**Annotatsiya:** Shunday bir kasb borki, jamiyat uchun zarur bo`lgan biror mutaxassis uning ishtiroki va mexnatisiz kasbini mukammal egallab chiqa olmayd. Bu tarbiyachilik kasbidim. Ko `pincha matbuotda yoshlarimiz odobsiz, betgachopar bo `lgani haqida yoziladi. Eng ko `p mavzu – transportda kattalarga joy bermay o `zini uxlayotganga solayotgan yoshlar haqida bo `ladi. Shu kabi maqolalarni o `qiganimda “bizning yoshligimizda qariyalar soqov edi, endi yoshlar kar” degan hikmatni eslayman. Yoshlarni hadeb tanqid qilavermay, o `zimiz ularga ibrat bo `lishimiz kerak emasmi? Yoshlarni urishgandan ko `ra, to `g `ri maslahat bersak samaraliroq bo `ladi.

**Kalit so`zlar:** O `zbekiston, tarbiyachi, maktabgacha, kelajak, tarbiyachi, pedagog.

O `zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohatlarning muvaffaqiyatga eng avvalo odamlarning o `z ishlariga ma `siliyat [bilan qarashlariga](#), kundalik mehnat faoliyatida mamalakat taraqqiyotiga hissa bo `lib qo `shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog `liq. Jamiyatda pedagog (o `qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o `sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va ma `siliyatli vazifalarni bajaradi.

Maktabgacha pedagogika fani – bu kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qimmati shu qadar buyukki, u odamni ma `naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to `ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo `qki, uning ustozи bo `lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo `li gul kosibmi, qo `yingki, barcha-barchanening o `z ustozи va hayot yo `lini charog `on etib turuvchi yo `lboshchisi bo `ladi.



O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘qituvchidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta’riflaydi: «Tarbiyachi – usto bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘sirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak». Demak, o‘z faoliyatini endigina boshlayotgan o‘qituvchilar va doimiy izlanishda bo‘lgan tajribali o‘qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o‘quvchining ichki va tashqi dunyosini to‘g’ri tushunish malakasi;
- pedagogik vaziyatlarni to‘g’ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o‘zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to‘g’ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta’sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so‘z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o‘quvchi ongiga aniq yetkaza olish;
- dars va darsdan tashqari faoliyatda o‘quvchilar bilan kommunikativ aloqa o‘rnata olish qobiliyati;
  - o‘quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o‘z fikr mulohazalarini qo‘rmasdan bayon qilish ko‘nikmalarini tarbiyalash;
  - qiyin holatlarda o‘quvchilarga yordam bera olish;
  - tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishda o‘quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;
  - o‘tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o‘quvchilarning fikrlarini o‘rganish;
  - o‘z-o‘zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
  - har bir o‘quvchining yashirin ijobjiy fazilatlarni ko‘ra olish va takomillashtirish;
  - o‘quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo‘lish.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insонning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yigindisi. Ustozning eng buyuk burchi - uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>
2. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/tarbiyachining-uzi-tarbiyalangan-bulishi-kerak>
3. <https://hozir.org/iii-bob-maktabgacha-talim-muassasasi-tarbiyachisi-shaxsiga-qoy.html>
4. <https://kun.uz/uz/news/2019/10/22/maktabgacha-talim-va-tarbiya-togrisidagi-qonun-muhokamasi-19-deputat-qonunning-ayrim-bandlariga-qarshi>

## МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАЛАРНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ МАСАЛАЛАРИ

**Анорова Камола**

*Андижон вилояти Булоқбоши тумани*

*24-ДМТТ тарбиячиси*

**Аннотация:** Мақолада болаларни мактабга тайёраш масалалари тўзгрисида муроҳазалар берилган бўлиб, боланинг мактабга тайёргарлигини белгиловчи омиллар, мактаб таълимига мослаша олмаслик, боланинг мактабга тайёрлаш жараёнида ташкил қилинадиган машгулотлар мазмуни келтирилган.

**Калит сўзлар:** Мактабга етуклиқ, морфологик ривожланиши, функционал ривожланиши, руҳий ривожланиши, тренинглар

Боланинг мактабга тайёрлиги унинг жисмоний ва руҳий ривожланиши, саломатлиги, ақлий ва шахсий ривожланиши билан аниқланади, яъни бунда бутун омиллар мажмуаси ахамиятга эга бўлади.

Л.И.Божович томонидан психология боланинг морфологик, функционал ва руҳий ривожланиш даражасини аниқловчи «мактаб етуклиги» тушунчаси киритилган бўлиб, унга кўра тизимли ўқитиш талаблари ҳаддан зиёд бўлмаган ҳолда боланинг соғлигига зарар етказмайди, шунингдек, мактабга мослашмасликка олиб келмайди. Паст савиядаги функционал тайёргарлик — мактабдаги ноетуклик, яъни миядаги маълум тузилмалар етилиш да-ражасининг, асаб — руҳий функцияларнинг мактабдаги ўқитиш вазифаларига мос келмаслиги бунинг руҳий сабаблари бўлиши мумкин. Мактабга етилмаганлик нозик моторика, «кўз — қўл» йўналиши, фаолият намунасига тақлид қилиш, ҳулқ ва бошқа функцияларнинг паст савияда ривожланганлигига намоён бўлади. Кичик мактаб ёшида мактабга мослашмаслик қўйиладиган талабларни бажаришда қийинчиликларга дуч келиш, паст ўзлаштириш, турли қўринишдаги интизомсизликларда намоён бўлади. Эркин муҳитнинг етарлича ривожланмаганлиги мактабга мослашмасликнинг хусусий сабаби бўлиб хизмат қиласи (аввало катталар-нинг кўрсатмаларини эшита олмаслик ва аниқбажара олмаслик, қоидаларга мос равишда харакат қила олмаслик, эркин эътибор ва эркин хотиранинг ривож-ланмаганлиги). Ўқищдаги кўпгина қийинчиликларга, интизомсизликларга, синфда ва уйда мустақил ишлай билмасликка шу каби камчилик сабаб бўлади. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда мактабгача ёшдаги фикрлаш турларининг шаклланмаганлиги, фонетик эшитиш, нутқининг етарлича ривожланмаганлиги, ҳамда ўқитувчининг сўзларини аниқ тушунмаслиги мактабга мослаша олмасликнинг сабаблари бўлиши мумкин.

Боланинг таълим жараёнига психик тайёрлиги ҳақида гапирилганда кўпинча, муайян режа асосида тартибли кўп қиррали мақсадга йўналтирилган, ўзаро мантиқий боғлиқ, изчил бошланғич таълимга замин вазифасини бажарувчи психик ўсиш даражасини назарда тутилади. Шунингдек, таълим жараёни учун психик ривожланиш

даражасидан ташқари бола турмushi ва фаолиятининг тафовутлари, шароитлари ўзига хослиги унинг сиҳат-саломатлиги, услубий жиҳатдан тайёргарлиги, оддий кўнилмаларни ўзлаштириши каби омилларни ҳамисобга олишга мақсадга мувофиқ бўлади.

Бунда боланинг ёшига, индивидуал хусусиятларига адекват бўлган ривожлантирувчи ўйин ва машғулотлар самарали усуллар ҳисобланади. Ривожлантирувчи машғулотларнинг мазмuni шундан иборатки, боланинг психик ривожланишини олдинга силжитиш учун унинг идроки, диққати, хотираси, тафаккури, нутқи, ҳаракат доираси мукаммаллаштирилиб борилади. Боланинг психик ривожланиши ўқув дастурларини мувафақиятли ўзлаштиришга асос бўлувчи психик функциялари ва шахсий сифатларини олдинга силжишига олиб келади.

Боланинг мактаб таълимiga тайёргарлиги деганда унинг интеллектуал, мотивацион, ижтимоий тайёргарлиги назарда тутилади.

Боланинг ижтимоий муносабатларга киришишида унинг дунёқараши ҳам муҳим рол ўйнайди. Дунёқарашибизни ўраб олган борлик нима, у қандай ривожланган, табиатда инсон қандай ўрин тутади, унинг онги қандай пайдо бўлди ва камол топди, жамиятнинг яралиш тарихи қандай, инсоният турмуш даражасини қандай қилиб яхшилаш мумкин ва шу каби масалаларга кишиларнинг турлича қарашлари, муносабатларидир. Бола дунёқарашининг шаклланишида юқоридаги жиҳатларни ўзлаштириш, англаш, хулқ-автор меъёрларига тўла риоя этиш талаб этилади. Болада шахс сифатларининг шаклланиши унинг тиришқоқлиги ва қийинчилликларни енга олиш, ўзгаларга бўлган ижобий муносабатнинг пайдо бўлиши билан намоён бўлади.

Билим олиш учун-машғулотлар асосий фаолият эканлиги ҳақида болаларда тасаввур ҳосил қилишга эришиш;

Болаларни мактаб таълимiga тайёрлаш жараёнида ташкил қилинадиган машғулотлар мазмuni қўйидагича:

Бу тасаввур асосида боланинг машғулотга бўлган муносабатини ижобий ўзгартириш ва фаолигини ортишига туртки бериш; Бола фаолиятида тиришқоқлик, маъсулиятлилик, мустақиллик, ҳаракатчанликни ривожланишига эътибор қаратиш;

Болаларни жамоавий фаолиятга кўнитириш ва тенгдошларига ижобий муносабатларни юзага келтириш (ўзаро ёрдам бериш, тенгдошлари ишини адолатли баҳолаш, уларнинг камчиликларини дўстона тушунтира олиш);

Ўқув фаолияти жараёнида болада ташкилотчилик қобилиятини шакллантириш.

Мактабга борган боланинг муваффақиятли ўқиши мактабгача таълим муассасасида олиб борилган таълим-тарбияга боғлиқ. Тадқиқотлар натижаси шуни кўрсатадики болани таълим жараёнига тайёргарлиги ёки унга мослашувида психологик тренинглардан фойдаланиш самарали натижаларни беради. Тренинг шахсда мавжуд бўлган ёки вужудга келадиган муаммоларни ҳал қилиш учун зарур бўлган билим, кўникма малакаларни ҳосил қилиш, руҳий мувозанатни баҳс-мунозара, ўйин ва машқлар орқали тиклашга доир машғулотлар йиғиндисидир. Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, тренинг жараёнида муаммоларни ечиш ҳам, бу борадаги билим, кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш ҳам тренердан шахс психологияси, шахс индивидуал психологияси билан ишлашни тақозо этади. Мактабгача таълимда

болаларнинг билиш фаолиятини ривожлантириш, болани психологик зўриқиши ва асабий танглиқдан озод қилиш, атрофидаги кишилар билан ўзаро муносабат, алоқа ўрната олишни шакллантириш учун тренинглардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Мактабгача таълим муассасаларида олиб бориладиган психологик тренинглар жараёнида болалар теварак-атроф ҳақидаги билимлари кенгаяди, ўз шахсий тажрибалари ва машғулотлардан олган билимларини амалда қўллаш малакаси ҳамда фикрлаш ва ижодий қобилияtlари ривожлантирилади. Бу эса болаларнинг келгусида мактабга мослашишини, бошланғич таълим даври енгилроқ, қизиқарлироқ ўтишини таъминлайди.

Болаларнинг муваффақиятли ривожланиши ва билим олишида икки таълим муҳити – уй ва мактабгача таълим ташкилотининг бир-бири билан баҳамжиҳатлиги ғоят муҳимдир. Педагоглар таълим жараёнини ташкил этишда ва бевосита педагогик жараённинг ўзига ота-оналарни жалб этишни, уларга болалар билан ривожлантирувчи ўзаро алоқалар шаклларини ўргатиш, болаларнинг таълимтарбиясига доир методик ёрдам беришни назарда тутадиган оиласлар билан ижтимоий-педагогик ишларнинг аҳамиятга катта эътибор беришлари лозим.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари. 2018 йил 18 июнь, Тошкент
2. “Илк қадам” давлат ўқув дастури. 2018 йил 7 июль, Тошкент
3. “Болангиз мактабга тайёрми?”. Ота-оналар учун қўлланма. Тошкент - 2012 йил.

**ТАСВИРИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШНИ  
ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АСОСЛАРИ.**

**Гайпова Фатима Абдумаликовна**  
**Чирчиқ шаҳар № 9-сон умумтаълим мактаби**  
**бошлангич синф ўқитувчиси**

**Аннотация:** тасвирий санъат асарларини таҳлил қилишини тақомиллаштиришида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиши асослари ҳақида қисқача тўхталиб ўтилган. Маълумки, тасвирий санъат ўқув-тарбия жараёнини модернизациялаши, бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини тайёрлаши тизими сифат даражасини оширишида ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириши, уларни соҳага оид малака, билим, кўникмалар билан қуроллантириши муҳим вазифалардан биридир. Шунингдек, мустақил равишда илмий-техник инновациялардан оқилона фойдалана билиши кўникмаларини ривожлантириши ҳам муҳим урин эгаллайди.<sup>1</sup> Тасвирий санъат ўқув жараёнини самарали ташкил этиши учун албатта илгор педагогик технологияларни жорий этиши, услугубий мажмуалар сифатини яхшилаши, ўқитувчиларнинг компьютер саводхонликларини ошириши, интернетдан фойдаланиши бўйича малакаларини ўстириши, олий таълимнинг ахборот ресурслари ва замонавий адабиётлар билан таъминланганлигини ривожлантириши айни муддао ҳисобланади.

**Калит сўзлар :** технология, технологиязациялаши, объектив жараён, диагностика, муаммоли ўқитиши

Бугунги кунда технологияларнинг жадал ривожланиши илм-фаннынг тараққиётида сезилмоқда. Шунингдек, замонавий технология ахборот, таълим, тиббиёт соҳаларига ўз таъсирини кўрсатмоқда. Кейинги пайтларда технология сўзининг нафақат таълим жараёнида, балки жамиятимизнинг бошқа жабҳаларида ҳам кўп ишлатилишининг гувоҳига айланмоқдамиз. Педагогик технология педагогнинг талабаларга таъсир қилишни ташкил этиши бўйича касбий аҳамиятга молик малакалар тизимини аниқлаб беради. Илмий-техник тараққиёт нафақат аксарият ишлаб чиқариш соҳасинигина технологиялаштиради, балки у маданият, таълим соҳаларига ҳам айтиб ўтганимиздек, ўз таъсирини кўрсатади. Бугунги кунда технологияларнинг информацион ахборот, тиббиёт, таълим ва бошқа технологиялар тўғрисида фикр юритишимиз мумкин. Технологиязациялаш ўзи нима? Бу объектив жараён ҳисобланиб, таълим эволюциясининг янги вазифаларини сифатли ҳал қилиш учун тайёргарлик давридир. Ҳозирги давр таълим технологиялари муаммоси, педагогик инновация тажрибалари уларни бир тизимга тушириш ва аниқлаштиришни талаб қиласди. Олий мактаб олдида педагогик технологияларнинг илмий асослари,

уларнинг тасниф ва моҳиятини очиб бериш ҳамда ўқув жараёнининг технологиклиги муаммоларини таъминлаш масаласи турибди. Педагогикага оид адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, ҳозирги даврда педагогик технология тушунчаси таълим амалиёти ва назарияси илмдан мустаҳкам ўрин эгаллади, лекин уни педагогиканинг муқаммал луғатларидағи ўрни ҳали номаълумлигича қолмоқда.

Педагогик технология моҳиятини ёритиш учун педагог-дидактикачилар томонидан берилган таърифларга тўхталиш мақсадга мувофиқдир. Б.Лихачев шундай дейди : “ Педагогик технология – психологик ва педагогик ўғитлар йигиндиси бўлиб, шакллар, методлар, усуллар, ўқитиш йўллари, тарбиявий воситаларнинг маҳсус тўпламидир. Айни замонда у педагогик жараённинг ташкилий-методик омилини ҳам билдиради”. В.П.Беспалько эса қўйидаги фикрни олға суради: “Педагогик технология – ўқув жараёнини амалга оширишнинг мазмуний техникаси” “Педагогик технология – режалаштирилган ўқитиш натижаларига эришиш жараёни тавсифи”га И.П. Волковга тегишли бўлса, В.М Шепел шундай дейди : “Технология – ишлов бериш, ҳолатни ўзгартириш санъати, маҳорати, малакаси ва методлар йигиндиси”.

Педагогикада ўқитиш технологиялари билан бирга таълимий технологиялар ҳам ўрин олган. Таълимий технологиялар мазмун-ахборот аспектни билдиrsa, ўқитиш технологияси жараёнга алоқадор деб ҳисобланади, яъни улар орасида ҳали ҳам аниқ фарқлар белгиланмаган. Педагогик технология талабаларнинг тайёргарлик даражасига, уларнинг ахборотлар билан танишиши ва амалий тайёргарлигига мосланган бўлиши лозим. Касбий таълим тизимида ўқитиш технологиялари фундаментал ва амалий билимларнинг ўзлаштирилишини, харакатларнинг рефлективлигини акс эттиради ва ўз касбий фаолиятини шакллантиради. Педагогик технология ўқитувчи ва талаба фаолияти билан белгиланади.Faoliyatning бундай турларига қўра педагогик технологиянинг тузилмаси аниқланади. У концептуал асос, таълим жараёни мазмуни, технологик жараёндан иборат бўлади. Ҳар бир педагогик технология муайян илмий концепцияга асосланган бўлади. Педагогик технологиянинг илмий концепцияси таълим мақсадларига эришишнинг фалсафий, психологик, ижтимоий-педагогик ва дидактик асослашларни ўз ичига қамраб олади. Таълим жараёни мазмуни таълим жараёнининг умумий ва аниқ мақсадлари, ўқув материали мазмунидан иборат бўлади. Технологик жараён ўқув жараёнини ташкил этиш, ўқитувчи фаолияти, талаба фаолияти, ўқув жараёнини бошқариш усуллари, ўқув жараёни диагностикасини қамраб олади. Тадқиқотчилар ҳар қандай педагогик технологияларни қаноатлантирадиган мезонларни белгилайдилар. Изчиллик педагогик технологиянинг мезони сифатида жараённинг мантиқийлиги, педагогик технологиянинг барча қисмларининг ўзаро боғликлиги, яхлитлигини ўз ичига олади. Педагогик технологиянинг мезонларидан бири бошқарувга асосланганлигидир. У ўқув жараёни диагностикаси, уни режалаштириш ва амалга оширишни лойиҳалаштириш, ундаги ўқитиш методлари ва воситалари билан ўзгартириб туришдан иборат бўлади. Педагогик технологиянинг самарадорлик мезони таълим жараёнининг конкрет шароитларида олинадиган юксак натижаларни кўзда тутади. Қайта тиклаш педагогик технологиялар мезонларидан бири ҳисобланади. Унда

педагогик технологияларни бошқа ўқув юртларида қўллаш имконияти тушунилади. Шундай қилиб, олий ўқув юртида мутахассисларнинг касбий тайёргарлиги мураккаб ва доимий ҳаракатдаги тизимни ташкил этади. Бу тизимда бўлғуси ўқитувчининг технологик тайёргарлиги алоҳида ўрин тутади. У бўлғуси педагогнинг интеллектуал ривожланиши, фаол ўқиши, ижодий шахснинг ривожланиши, тафаккурнинг касбий йўналганлигини идрок этиш, ўқув-билиш фаолиятини ташкил этишда тадқиқий яъни илмий тамойилларни амалга ошириш билан боғланган. Бўлғуси педагогнинг технологик тайёргарлиги олий ўқув юртларида педагогик технологияларни амалга оширишни талаб қиласди. Олий ўқув юрти таълим жараёнида фойдаланиладиган ва кенг тарқалган педагогик технологиялар: муаммоли ўқитиши, ўқитишнинг табақалаштирилган ва индивидуал технологияси, программалаштирилган ўқитиши технологияси, компьютер ахборот технологияси, муаллифлик технологиясидир.

Муаммоли ўқитиши ижодий, фаол шахс тарбияси мақсадларига мос келади. Муаммоли ўқитиши жараёнида талабанинг мустақил ишлиши ўқитишнинг репродуктив шаклларига нисбатан тобора ўсиб боради. Маълумки, ўқитишнинг ҳар қандай асосида инсон фаолиятининг муайян қонуниятлари, шахс ривожи ва улар негизида шаклланган педагогик фаннинг тамойиллари ва қоидалари ётади. Инсоннинг билиш фаолияти жараёни мантиқий билиш зиддиятларини ҳал қилишда объектив қонуниятлари, дидактик тамойил – муаммолиликка таянади. Муаммоли ўқитиши машғулотларини ташкил этиш ва ўтказишнинг муҳим томони шундан иборатки, бунда ўқитувчи унинг ҳам таълими, ҳам тарбиявий функциясини яхши англаб олган бўлиши талаб қилинади. Ўқитувчи ҳеч қачон талабаларга тайёр ҳақиқатни, яъни ечимни бериши керак эмас, балки уларга билимларни теран эгаллаб олишга туртки бериши, машғулотларда ва ҳаёт фаолиятларида зарур бўлган ахборот, воқеа, вақт ва ҳодисаларни онгода кайта ишишларига ёрдам бериши лозим бўлади. Ўқитувчи талабанинг материални мантиқий баён қила олишини, уни баён қилиш усулини, талабаларнинг унга бўлган эътиборини кузатиб боради.

Шундай қилиб, муаммоли вазиятнинг моҳияти шундан иборатки, у талабага таниш бўлган маълумотлар ва янги фактлар, ҳодисалар ўртасидаги зиддиятдир. Бу зиддият билимларни ижодий ўзлаштириш учун ҳаракатлантирувчи кучdir.

# TARIX FANLARI

## УПОМИНАНИЯ ДРЕВНЕГРЕЧЕСКИХ УЧЁНЫХ О МАССАГЕТАХ, КАК ДРЕВНИХ ПРЕДКОВ КАРАКАЛПАКОВ

**Канатова Асель Куаткызы**

*Студент Каракалпакского государственного*

*Университета имени Бердаха*

*факультет истории 3-курс*

**Аннотация:** в данной статье рассматривается один из актуальных вопросов этнографии, а именно вопрос о происхождении предков каракалпаков, их образ жизни, а также мнения древнегреческих и восточных авторов касательно об этих племенах.

**Ключевые понятия:** сако-массагетское, скифы, «Авесто», Геродот, Страбон.

Сако-массагетское объединение племен, наследники древнего Турана, впервые появляется в «Авесте», как страна или место обитания туров. По мнению И.Н. Хлопина, авестийских туров следует локализовать в Юго-Восточном Прикаспии (в долинах рек Горган, Этрек и Сумбар). «Авеста» упоминает также туранские племена хона, дана, сайрима, сина, даха. Все эти племена можно обозначить термином «скифские», ибо они были связаны единой культурой, вооружением, идеологией. О том, что скифы являются выходцами из Азии имеется свидетельство «отца истории» Геродота (V в до н.э.). Он приводит три версии, но особо подчеркивает согласие с третьей: «Существует еще и третья сказание (ему я сама больше всего доверяю). Оно гласит так. Кочевые племена скифов обитали в Азии. Когда массагеты вытеснили их оттуда силой, скифы перешли в Аракс и прибыли в киммерийскую землю».

Геродот приводит кроме киммерийцев, массагетов, скифов, и другие названия «скифских племен» - «царские скифы», исседоны.

Список имен продолжает греческий географ Страбон: «Большинство скифов, начиная от Каспийского моря, называются даями (дахами). Племена, живущие восточнее последних, носят названия массагетов и саков, прочих же называют общим именем скифов, но у каждого племени есть свое особое имя. Все они в общей массе кочевники. Из этих кочевников в особенности получили известие те, которые отняли у греков Бактриану, особенно асхи, пасианы, тохары и сакаравлы, которые переселились из области на другом берегу Иаксарта рядом с областью саков и согдианов, занятой саками. Из даев одни называются апарнами, другие ксанфиями и трети писсурами».

Далее он прибавляет: «К племенам массагетов и саков относятся также аттасии и хорасмии (хорезмийцы)».

Восточные авторы не знают названий «скиф» и «массагет». Примечательно, что Геродот специально отмечал: «...персы всех скифов называют саками».

Очень важный источник – надпись на гробнице Дария, высеченная в ущелье Накш-и-Рустем, около Персеполя. Там упоминаются три сакских народа: сакатиграхуда, сака-хаумаварга и сака-тиай-дараийя.

Само название сака-тиай-дараийя говорит о том, что они жили за какой-то крупной рекой (Амударья или Сырдарья). Саков-хаумварагаискусственно пытаются этимологизировать как «изготавливающих хаому». Но академик В.В.Струве (вслед за В.В.Григорьевым) отождествлял их с «амиргийскими» саками, которые проживали на берегу Мургаба, и от которой они получили свое название. Вавилонские писцы, в свою очередь, отождествляют их с народом «гимири», «гамирра», вторгшимся в конце VIII в до н.э. в Переднюю Азию. Это и есть загадочные киммерийцы. Интересно, что именно амиргийских саков профессор С.П.Толстов считал массагетами, чем и объяснял отсутствие их названия в надписи Дария.

Действительно, свидетельства античных историков и географов очень запутаны. Они перечисляют иногда одни и те же народы, но уже под другим названием. Это объясняется тем, что античные авторы черпали сведения из разных источников.

Видимо стоит видеть во всех этих названиях племена и роды больших племенных союзов. В исторических судьбах народов древнего Туркменистана, большую роль играло огромное объединение массагетов. Нам кажется допустимым отождествлять саков-тиграхуда с массагетами в современных научных исследованиях, может быть даже под всеми этими сакскими племенами, вскрывается имя массагетов, как понятие более широкое.

Массагеты – это мощный союз племен, расселявшихся по всей территории Турана. О массагетах Страбон писал, что «одни из них обитают в горах, другие на равнинах, третьи – на болотах... Они прекрасные наездники и пешие воины; вооружены луками, мечами, панцирями, бронзовыми боевыми топорами; в сражениях они носят золотые пояса и головные повязки. Уздечки и перевязи у лошадей у них из золота. Серебра в их стране нет, железа мало, зато медь и золото встречаются в изобилии... Живут на манер кочевников и скифов, питаясь бараниной и рыбой. У всех такого рода племен находили и некий общий образ жизни, о чём я нередко упоминаю: их погребальные обряды, обычаи и весь быт схожи; это люди самобытные, дикие и воинственные, однако при деловом общении честные и не обманщики».

В массагетах нельзя видеть только ираноязычные племена – это большое объединение тюркоязычных и ираноязычных этносов Средней Азии, которые стали основополагающим компонентов туркменского народа, а также других народов Средней Азии. Сако-массагеты передали туркменам свои этнонимы. Названия аланов и ясов (асиев) носят ныне туркменские племена алили, олам, а также роды аса (човдуры и игдыры), алам (салыры, йомуды), язы (теке) и т.д. Это имя носило крупное огузское племя языров, ныне карадашлы.

Имя саков, сакараваков усматривается в туркменском племени сакар, а также в названиях родов сакарлы (эрсары), сакаргалык (баяты), сакгар (ата, геклены).

Народное название дахов (тохаров) продолжало жить в имени одного из главных огузских племен – дюкер (тюгер). Дахи (тохары) принимали самое активное участие в движении сельджукских войск. Среди племен, вошедших в состав Гарагоюнлы и Акгоюнлы, упоминается племя духарлу. Название текер и дюгер до сих пор существуют в Турции в велаятах Сивас, Афьйон, Урфеа Кейсери, Конья, Бурдур. Имя тохаров в качестве этнонимов тагар, тувер сохранилось у туркмен эрсары, теке, човдур, баят, шых, игдыр. К названию дахов восходят туркменские подразделения дяхли, дяли (абдалы, алили, арабачы, эрсары, геклены, йомуды, сакары, салыры, сарыки, човдуры, эсги).

Название огузского племени бечене (печенеги) восходит к массагетскому племени апасиаков (пасианы). С саками-амюргиями (хаумаварга) отождествляются огузское племя эймир (имир) и современное туркменское эмрели, а с атасиями (астабенами) – туркменское племя ата и крупное йомудское подразделение атабай.

**Вывод.** Таким образом, на основе данных древнегреческих и римских авторов, мы можем утверждать, что племена апасиаков и аугасиев являются древними предками каракалпаков, живших в бассейне Каспия и Арала.

### ЛИТЕРАТУРА И ИСТОЧНИКИ:

- 1.Кадимги тарихчилар Урта Осиё хакида. - Тошкент: «YURIST-MEDIAMARKAZI» –2008.
- 2.Гундогдыев О. Историко-культурное наследие Туркменистана. - Стамбул: UNDP, 2000; Гундогдыев О. Сако-массагетское объединение племен // turkmenhistory.narod.ru/massaget.ht
- 3.Геродот. История в девяти книгах. - Москва, 1972.
- 4.История Древнего Востока. Кн. 2. - Москва, 2004.
- 5.Бехистунская надпись Дария I, столбец V (перевод с древнеперсидского В. И. Абаева). // Литература Древнего Востока. Иран, Индия, Китай (тексты). Москва: изд-во МГУ, 1984.
- 6.Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического анализа. – Москва, 1948.
- 7.Зепп Т. Б. История Казахстана. - Алматы: «Зият Пресс», 2006.
- 8.Сосанов К. История Казахстана.- Алматы: «Олжасбаспасы», 2007.

## AMIR TEMURNING XORAZMGА YURISHLARI

Azizbek Karimov

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** *Ilmiy maqolada vatanimiz tarixida munosib iz qoldirgan buyuk sarkarda Amir Temurning Xorazmga yurashlarining sabablari va bu harbiy harakatlarning oqibatlari yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *Mavarounnahr, Amir Temur, 1336-yil 9-aprel, Xorazm, Xusayn So'fi, Gurganch, Yusuf So'fi, Kot, qo'ng'irotlar, Jo'ji ulusi, Buxoro, Sulaymon So'fi.*

Vatanimiz tarixida o'ziga xos iz qoldirgan mashhur hukmdorlar, sarkardalar, olimlar, diniy bilim sohiblari va boshqa turdagи mashhur insonlar yetaricha topiladi. Ular o'zlarining faoliyatlari bilan yurtimiz tarixi sahifalaridan munosib o'rinn egallaganlar. Shunday muhim shaxslardan biri bu Mavarounnahrni birlashirigan hamda mamlakatni gullab-yashnashiga sababchi bo'lgan buyuk inson Amir Temur hisoblanadi.

Buyuk sarkarda va hukmdor Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh shahrida tavallud topgan. U mo'g'ullar hukmronligiga barham berdi hamda ularni vatanimiz hududlaridan quvib chiqardi. Amir Temur hukmronlik qilgan davr (1370-1405) Mavarounnahr uchun "Oltin davr" davr bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. U hukmronlik davri mobaynida ko'plab bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Bundan tashqari Amir Temur mamlakatni hududini kengaytirish va chegaralar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ko'plab harbiy yurishlarga boshchilik qilgan. Uning Xorazmga amalga oshirgan yurishlari o'ziga xos ahamiyatga ega hamda boshqa yurishlardan ajralib turadi. Chunki Amir Temur Xorazmga qarshi 5 marta qo'shin tortgan.

Amir Temur o'zini Mavarounnahrni amiri deb e'lon qilganidan so'ng 1371-yil kuzida Xorazmga Alqa tavochini elchi qilib yubordi. Bu davrda Xorazmda So'fylar sulolasidan bo'lgan Xusayn So'fi (1361-1372) hukmronlik qilayotgan edi. Amir Temur elchi orqali Xusayn So'fidan Xiva va Kot (Kat) shaharlarining oxirgi 5 yillik xirojini berishini va Xorazm hududiga dahl qilmaslikni talab qiladi. Biroq Xusayn So'fi elchiga "Men bu viloyatlarni qilich bilan olganman va yana mendan qilich bilan olishlarining mumkin" deb aytadi. Natijada elchi Amir Temurga Xusayn So'fining javob maktubini keltiradi. Amir Temur g'azablanib Xorazmga yurish qilmoqchi bo'ladi. Lekin Mavlono Jaloliddinning maslahatiga kirib o'zaro nizoni tinch yo'l bilan hal qilish maqsadida yana bir bor Xorazmga elchi yuboradi. Bu safar elchilarga Mavlono Jaloliddinning o'zi boshchilik qiladi hamda Xusayn So'figa muqaddas Qur'oni Karim va hadislardan misol keltirib uni ko'ndirishga harakat qiladi. Ammo Xorazm hukmdori uning so'zlariga qulq solmaydi. Mavlono Jaloliddinni esa bandi qilishni buyuradi. Shundan so'ng, Amir Temur qo'shin toplashga farmon beradi. 1372-yil Amir Temurning Xorazmga birinchi yurishi boshlandi. Gurganch shahri qamal qilingan bir vaqtida Xorazm hukmdori Xusayn So'fi

vafot etadi. Xorazm taxtiga Xusayn So'fining ukase Yusuf So'fi o'tiradi. U Amir Temurga bo'ysunishini ma'lum qiladi. Amir Temur esa So'fiylar sulolsining eng kichigi Oq So'fiyning (ba'zi manbalarda Adoq So'fi) qizi Sevinbekani o'zining o'g'li Muhammad Jahongirga so'raydi. Xorazmliklar Amir Temurning shartini qabul qildilar va Sevinbekani keyinroq Samarqandga yuborishlarini ma'lum qildilar. Amir Temur ortga qaytdi. Shu tariqa Amir Temurning Xorazmga birinchi yurishi yakunlandi.

Ammo o'rtadagi nizolar bu bilan tugamadi. Xorazmliklar sulhga binoan Sevinbekani Samarqandga yubormadilar. Bundan tashqari bir necha oy o'tgandan so'ng Yusuf So'fi o'z askarlari bilan Kot shahriga yurish qilib shaharni vayron qilishi Amir Temurni Xorazmga ikkinchi marta qo'shin tortishga sabab bo'ladi. Biroq ba'zi manbalarda o'rtadagi nizoga sabab qilib boshqa voqeа ko'rsatiladi. Amir Temur xizmatida bo'lgan Kayxusrav Xuttaloniyning o'g'li Sulton Mahmud, Xizr Yasovuriyning o'g'li Abu Is'hoq va Mahmudshox Buxoriy degan yana bir shaxs Xorazmga qochib borib Yusuf So'fini Amir Temurga qarshi qayray boshladilar. Yusuf So'fi ularni tutib berish o'rniга o'zining panofiga oldi. Natijada 1373-yil bahorida lashkar to'plab Xorazmga yurish boshlaydi. U o'z qo'shini bilan Xorazmga yetib kelganda Yusuf So'fi tavba-tazarru izhor qiladi hamda o'rtadagi nizo barham topadi. Boshqa bir manbada Amir Temur Buxoro shahriga yetganda uning huzuriga Yusuf So'fining elchisi kelib sulh so'raydi. Natijada ikki o'rtada yana sulk tuziladi. Sulhga binoan Sevinbeka Samarqandga yuboriladi. 1374-yil Amir Temurning o'g'li Muhammad Jahongir Sevinbekaga uylanadi. Bundan tashqari Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kiradi. Shu tariqa Xorazmga ikkinchi urush yakunlanadi.

Xorazm qo'ng'irotlari Jo'ji ulusi bilan uzviy bo'qliq bo'lib, bu munosabatlar haqida Amir Temur bilar edi. U Xorazmni Jo'ji ulusiga og'ishini istamas edi. Shuning uchun 1376-yil Xorazmga o'zining uchunchi yurishini boshladi. Biroq bu vaqtda Farg'ona vodiysida Sari Bug'a va Odilshox boshchiligida isyon boshlandi. Natijada Amir Temur ortga qaytishga majbur bo'ldi. Amir Temurning Xorazmga yurishi yakunlanmay qoldi.

1376-yil Xorazm hokimi Yusuf So'fi Buxoro va uning atroflarini talon-taroj qiladi. Amir Temur uning huzuriga elchi yuborib qarindoshlik aloqalaridan so'ng bunday ishlar qilishi yaxshi emasligini bayon qiladi. Ammo u yuborgan elchi zindonga tashlanadi. Amir Temur ikkinchi marta elchi yuborib uni jiddiy ogohlantiradi. Lekin bu safargi elchi ham zindonga tashlanadi. Natijada Amir Temur yana Xorazmga yurish boshlashga majbur bo'ladi. Shu tariqa Amir Temur 1379-yil Xorazmga o'zining to'rtinchi yurishini boshladi. Amir Temurning qo'shini Xorazmga yetib kelgandan so'ng o'ziga xos bir holat yuzaga keldi, ya'ni Xorazm hokimi Yusuf So'fi aholining jabr ko'rmasligi hamda shaharni vayron bo'lmasligi uchun Amir Temurni o'zaro duelga taklif etadi. Sarkardalarning qarshiligiga qaramay Amir Temur bu taklifni qabul qiladi. U Yusuf So'fi bilan jang qilish maqsadida Gurganch devorlari yaqiniga borib uni jangga chorlaydi. Ammo Xorazm hokimi jangga chiqmaydi. Shu tariqa Yusuf So'fi o'z xalqi oldida sharmanda bo'ldi. Amir Temur

hujum qilib yana Xorazmni bosib oldi. Shu tarzda Xorazmga to'rtinchi yurish yakunlandi.

Amir Temur uch yillik urushdalik vaqtida uning xavfli dushmanlaridan biri To'xtamishxon Movarounnahrga hujum qilib talon-taroj qilib ko'plab hududlarni vayron qiladi. Buni eshitgan Amir Temur zudlik bilan ortga qaytishga majbur bo'ladi. Biroq To'xtamishxon u qaytgunicha Movarounnahrni tark etgan edi. Lekin o'zining askarlarining bir qismini Xorazmda qoldirib ketadi. Bundan xabar topgan Amir Temur Xorazmga beshinchi marta yurish boshlashga qaror qiladi. 1388-yil erta bahorda u Xorazmga yurish boshladи. Bu davrda Xorazm hokimi Sulaymon So'fi edi. U Gurganchga kelib aholini Samarcandga ko'chirishni buyuradi. Shaharni vayron qiladi. Biroq oradan 3 yil o'tgach shahar qayta tiklanib aholi yana o'z shaharlariga qaytariladi. Shu tariqa Amir Temur Xorazmni bosib oladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Amir Temur turli xil nizo hamda qarshiliklarga qaramasdan Xorazm o'lkasini zabt etdi.

#### FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI:

1. <https://uz.m.wikipedia.org>
2. <https://alsamarkand.com>
3. <https://xorazmiy.uz>
4. <https://history.wikireading.ru>
5. <https://www.uzembassy.kz>

## ISLOM DINI TARIXIDAN

**Xurramova Intizor Ilhom qizi**

*Surxondaryo viloyati Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Islom dini tarixini yana ham chuqur o'rganish uchun Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Islom dini tarixidan” 1 va 2-kitoblarini o'qib chiqishni tavsiya qilaman. Ushbu kitobda islam dinining paydo bo'l shidan tortib toki bugungacha bo'lgan davri, voqeа va hodisalar keng yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Islom, ro'za, zakot, oxirat, haj, kalimai shahodat, taqdir, namoz, farishtalar, qiyomat kuni.

Islom tarixi Odam alayhissalomdan boshlanadi, chunki insoniyatning boshlanishi Odam alayhissalom bo'lib, u zot birinchi nabiy-payg'ambar hisoblanadilar. Odam Ato va Momo Havoning surriyotlari bo'lmish boshqa payg'ambarlar esa insoniyat tarixinining, binobarin, Islom tarixinining asosi sanaladilar.

“Islom”so'zi-“itoat va bo'y sunish” hamda “sulh va omonlik” degan ma'noni bildiradi. Islom-Alloh yagona degan e'tiqod bilan unga bo'sunmoqlik, itoat etmoqlik va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik hamda Allah buyurgan diniy e'tiqodga imon keltirmoqlik demakdir.

Allohga itoat qilgan va Allah yuborgan payg'ambarlarga ergashgan kishi musulmon(muslim-sadoqatli), deyiladi. Islom dini payg'ambar Muhammad ibn Abdulloh(s.a.v.) tomonidan Arabistonda targ'ib etilgan. Muhammad (s.a.v.) va uning safdoshlari islamda nafaqat mukammal dinni, ayni paytda, unda arab qabilalarini yagona davlatga birlashtirish qudratini ham ko'rganlar. Ular birlashgan davlat barpo etish orqaligina jahon maydoniga chiqish mumkin, deb hisoblaganlar. Bu maqsad yagona xudoga-Allohga asoslangan islamni butun Arabistonda hukmron dinga aylantirish orqaligina amalga oshishi mumkin edi. 7-asrda esa Arabistonda ko'p xudolik diniy e'tiqodlari mavjud edi. 630-yilda Arabiston yagona davlatga (xalifalik) birlashtirilgach, Islom yagona hukmron dinga aylangan.

**Islom dinning jahonga yoyilishi.** Muhammad payg'ambar (s.a.v.) hayotining so'nggi yillarida tuzgan Arab davlati ancha mustahkam davlatga aylanib ulgurgan edi. U Yamandan Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy qum sahrosigacha cho'zilgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Muhammad (s.a.v.)vafot etgach davlatni xalifalar(Muhammadning o'rindbosarlari) boshqarganlar. Shuning uchun ham bu davlat tarixda “Arab xalifaligi”deb nom olgan. Islom dini 9-10 asrlarda Tataristonda, 10-12-asrlarda Boshqirdistonda tarqalgan. Arab xalifaligi 6 asrdan ko'roq o'ztarixiga ega. Bu davr mobaynida ko'tarilish hamda siyosiy inqirozga uchrash davrlari bo'ldi. Dastlabki, 3 asr mobaynida Arab xalifaligi markazlashgan ko'p millatli davlat bo'lgan bo'lsa, 9 asrning o'rtalaridan boshlab xalifa o'z siyosiy hokimiyatidan ajralib, xalifalik bir necha mustaqil davlatga bo'linib ketgan. Xalifalik

nomigagina 1258-yilgacha, ya'ni Chingizxonning nevarasi Xulaguxon Bag'dodni bosib olguncha yashadi. Islom faqat urush yo'li bilan emas, da'vat va savdo yo'li bilan ham Yer yuzining ko'plab mamlakatlariga yoyilgan. Bugungi kunda islom tarqalmagan qit'a yoki davlat yo'q. Yer yuzi aholisining 1,5mlrd.ga yaqini islom diniga e'tiqod qilmoqda. O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston aholisining ko'pchilik qismi asrlar osha Islomga e'tiqod qilib kelmoqdalar.

Islom kunda hatto, G'arb davlatlarida ham o'z e'tiqodchilarini ko'paytirb bormoqda. Masalan, AQSHda 6 mln, Fransiya, Anglya, Germaniyaning har birida 2 mln dan ortiq, Kanadada 0,5 mlndan ortiq aholi islomga e'tiqod qiladi.

**Islom ta'limotining asoslari.** Islom dinining ta'limoti uning muqaddas kitobi Qur'oni karimda bayon etilgan. Unga ko'ra islom ta'limotining asosini imon, islom va ehson tashkil etadi. Imon (e'tiqod, ichki ishonch) 7 aqidaga asoslanadi. Bular: 1)Allohga; 2)farishtalarga; 3)payg'ambarlarga; 4)Muqaddas kitoblarga; 5)oxiratga; 6)taqdirga; 7)o'lgandan keyin tilishga ishonishdir.

1. Allah-dunyodagi barcha mavjudotlarni yaratgan. Olamda yuz bergen va kelajakda yuz beradigan barcha voqealari va hodisalar, dunyoning tugashi va oxiratgacha Allah tomonidan belgilangan va unning irodasi bilan sodir bo'ladi. Allahni hech kim bor qilgan emas, u o'zidan-o'zi border.

2. Farishtalar-Allah taolonning nihoyatda itoatli hech bir gunohsiz, nурдан yaratilgan, odamlar ko'ziga ko'rinxaydigan bandalaridir. Ular doimo Allah taolonning buyurgan ishlarini bajaradilar, uning buyrug'idan aslo chiqmaydilar.

3. Payg'ambarlar-Allah taolo tarafidan bandalariga din hukmlarini o'rgatmoq uchun yuborilgan elchilardir. Ular aqli, ziyrak, to'g'ri va itoatli bandadirlar. Ular Allah taolo amridan chiqmaydilar, gunoh qilmaydilar. Ular odam bolalaridan chiqadilar. Payg'ambarlar Allah taolo tarafidan buyurilgan din va shariat hukmlarini bandalariga yetkazadilar, bandalarni haq dinga va yaxshi ishlarga va'z, nasihat bilan chaqiradilar. Qur'onda 28 payg'ambarning ismlari zikr etilgan. Payg'ambarlar 2xilga bo'linadilar: 1)rasullar; 2)nabiylar.

4. Muqaddas kitoblar (Allah taolonning kitoblari)-bu har zamonning o'ziga yarasha din va muomalat hukmlarini bayon etib, o'sha zamonning payg'ambarlariga yuborilgan vahiyalar Allah taolonning kitoblari, ya'ni muqaddas kitoblardir. Allah taolo payg'ambarlarga 100 sahifa va 4 kitob yuborgan. 100 sahifa Odam, Shis, Idris, Ibrohim, 4 kitob esa Muso, Dovud, Iso va Muhammadga (s.a.v.) yuborilgan. Qur'on Allah taolo tomonidan o'z payg'ambarlari Muhammad(s.a.v)ga tushirilgan vahiyidir, ya'ni Allahning o'z payg'ambarlariga yuborgan ko'rsatmalaridir va samoviy kitoblarning oxirisidir.

5. Oxirat-bu, dunyoda Allah taolonning o'zidan va xohlaganidan boshqa hech narsa qolmaydigan kundir. Uning qachon bo'lishini Allah taolodan boshqa hech kim bilmaydi. O'lgan bandalar Allah taolonning qudrati bilan tiriladilar, so'ngra Allah taolonning tayin qilgan yeriga borib yig'iladilar. Yig'iladigan joyning nomi "Mahshar yeri", kun esa "Qiyomat kuni" deb ataladi.

6. Taqdir-Allah taolo tomonidan bo'lgan va bo'ladigan yaxshi, yomon ishlarning qaysi zamonda, qaysi joyda, qay ravishda bo'lmosg'ini hamda o'z ilmi azaliyasi bilan bo'lmasdan turib oldindan belgilab qo'yilishidir.

7. Qiyomat kuni-bandalarlarning bu dunyoda qilgan yaxshilik va yomonliklari ma'lum bo'ladigan, yaxshi bandalar uchun sevinch, yomonlar uchun qo'rqinchli kundir. Yaxshiliklari ma'lum bo'lgan bandalar xursandlik ila "sirot" ko'prigidan o'tib, jannatga, yomonlar esa bu ko'prikdir o'ta olmay do'zaxga kiradilar.

Sirot ko'prigi - Mahshar yeri bilan jannat orasida do'zax ustiga qurilgan, qilichdan o'tkir, qildan ingichka va nihoyatda uzun ko'prikdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. U.T.Jo'rayev, Y.S.Saidjonov.Dunyo dinlari tarixi; Toshkent-2002.
2. Islom dini tarixidan; SHayx Muhammmad Sodiq Muhammad Yusuf. 1-kitob; 2-kitob.
3. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz);
4. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz).
5. Arxiv.uz.

## OLLOQULIXON DAVRIDA ME'MORCHILIK

Azizbek Karimov

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** *Ilmiy maqolada Xiva xonligi hukmdori Olloqulixonning mamlakat me'morchiligidagi hissa qo'shish maqsadida amalga oshirgan buniyodkorlik ishlari haqida.*

**Tayanch so'zlar:** YUNESKO, Olloqulixon, Toshhovli, xumbuz, haram, arzxona, madrasa, gumbaz, tim va karvonsaroy, guldasta, "iroqi" uslubi.

O'rta Osiyo hududi me'morchilik yuksalganligi tarixdan ma'lum. O'rta Osiyo xalqlari buniyodkor xalq bo'lib, bizning davrimizgacha juda ko'plab me'moriy inshootlar yetib kelgan. Bu me'moriy inshootlarning obidalarning mahorat bilan qurilganligi va nozik did bilan bezatilganini YUNESKO ning Butun jahon madaniy meroslarini asrash ro'yxatiga kiritilganligidan ham bilsa bo'ladi. Tarixda mavjud bo'lgan Xiva, Qo'qon hamda Buxoro xonliklari davrida ko'plab me'moriy obidalar qurilgan. Xiva xonligi hukmdori Olloqulixon ham o'zining hukmronligi davrida buniyodkorlik ishlariga munosib hissa qo'shdi.

Olloqulixon (1825-1842) davrida Xiva shahrida o'ziga xos ko'plab inshootlar buniyod etilgan. Xivadagi mashhur hali hanuz jahon ahlini lol etib kelayotgan Toshhovli saroyi 1829-1839 yillarda Olloqulixonning amri bilan vazir Muhammad Ya'qub mehtar loyihasi asosida qurilgan. Biroq boshqa bir manbag'a ko'ra Toshhovli saroyi Olloqulixon amri bilan 1832-1838 yillarda qurilgan. Toshhovli haram saroyi — Sharq hukmdorlari ichida o'zining hashamadorligi, muhtashamligi bilan ajralib turuvchi Xiva xonlarining mehmonlarni kutish, xonning turar joyi, haramlari bo'lgan. Shu bois Xivada bir qancha xon saroylari bugungi kungacha o'z salobatini yo'qotmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu saroy Xivadagi ikkinchi Ark hukmdor — xonning qasri sifatida qurilgan. Pishgan g'ishtlardan qurilgan Toshhovlining nomi binoning o'ziga xos plani va arxitekturasidan kelib chiqqan. Qadimda binolar xom loy va karkas (cho'bin) yog'ochdan qurilgani uchun umri qisqa edi. Keyinchalik g'ishtni xumbuzlarda pishirib, toshdan imoratlar qurila boshlangan. Shuning uchun ularni bir-biridan ajratish uchun nomlar paydo bo'lib, "Tosh" so'zi ko'p imoratlarga qo'yiladigan bo'lgan. Toshhovli saroyi uchta katta va beshta kichik hovli, ikki qavatli ayvon va xonalardan iborat. Dastlab haram, so'ngra mehmonxona, keyinchalik arzxona hovlilari bitkazilgan. Haramda xonning oilasi yashagan bo'lsa, mehmonxona chetdan kelgan elchi, turkman sardori va qoraqalpoq biylari kabi ulug' mehmonlarga xizmat qilgan. Arzxonada fuqoraning arzi-dodi tinglansa, xorijdan kelgan elchilar rasman shu yerda qabul qilingan. Hozirgi kunda Toshhovli saroyi 2 qismga bo'lingan bo'lib, birinchi qismi «Haram». Bu qismda 1987 yil "Hunarmandchilik" muzeyi tashkil topgan. Ikkinci qism «Arzxona» bo'lib, 2001 -yil mustaqilligimiz sharofati bilan qaytadan ta'mir talab joylari ta'mirlanib, "Xorazm hunarmandchiligi" muzeyi sifatida ochildi va yanada chiroy ochdi. Hozirgi

kunda ham o‘z faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib Tosh hovli saroyida jami 591 ta eksponat mavjud bo‘lib, shundan 539 tasi asosiy fond, 52 tasi yordamchi fond hisoblanadi. Muzey eksponatlari ichida o‘ziga xosligi bilan chet ellik mehmonlarni va shu bilan birgalikda maxalliy mehmonlarimizni o‘ziga jalb qilayotgan Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) ning 1876 yilga tegishli KP 1222 raqamli Foytun arvasi o‘ziga xos eksponat hisoblanadi.

Hukmdor Olloqulixon tomonidan amalga oshirilgan yana bir buniyodkorlik ishi u qurdirgan madrasadir. Olloqulixon madrasasi - Xivadagi me’moriy yodgorlik bo‘lib 1834—1835-yillarda bunyod etilgan. Madrasa qurilishi Ichan qal’aning yaxlit ansambl bo‘lib shakllanish tarixi bilan bog‘liq. O‘rta Osiyo me’morligida keng tarqalgan qo‘shtmadrasa uslubida, Olloqulixon timi, Xo‘jamberdibiy madrasasi, Polvon darvoza bilan o‘zaro bog‘langan. Olloqulixon madrasasi sun’iy tepalik (bal. 3 m) ustiga kurilgan, shu tufayli qo‘shti binolardan ancha baland ko‘rinadi. Madrasa to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli hamda peshtog‘i g‘arbgan qaragan. Bosh tarzini miyon-saroy, masjid va darsxona hamda 2 qavatli hujralar egallagan. Eshikdagi yozuvda binoning qurilgan sanasi saqlangan. Hovli tomoni o‘ziga xos, undagi 2 qavatli qator hujralar Polvon darvozaning kichik gumbazlari ustiga va qisman tim gumbazlari chekkasida joylashgan. Masjid va darsxona tuzilishi bir xil. Usti yarim aylana shaklidagi pastak gumbaz bilan yopilgan. Devorlaridagi chuqur ravoqlar hisobiga xona keng ko‘rinadi. Ayvon madrasa g‘arbida joylashgan, mehrobi ganchli muqarnasdan "iroqi" uslubida bezatilgan. Hujralarning har birida bittadan eshik, tobodoniga panjaralar o‘rnatilgan. Ushbu 99 hujradan iborat to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli madrasa ikki qavatli bo‘lib, peshtog‘i g‘arb tomondagi Qutlug‘ Murod Inoq madrasasiga «qo‘s» qilib qurilgan. Madrasa zamonasining obro‘li o‘quv markazlaridan bo‘lib, unda turli millat vakillari o‘qigan. Bu madrasada qozoq va turkman domlalar dars bergenligiga qaraganda, ko‘pchilik talabalar ham turkman va qozoq bolalari bo‘lishgan. Olloqulixon talabalarini kitob bilan ta’minlaydigan bu madrasaning kutubxonasiga uning yonidagi Karvon saroy va Timdan tushadigan daromadni ham qo‘srimcha vaqf qilib bergen. Madrasa peshtoqidagi bitikda shunday yozilgan: “Alloh taoloning sharofati bilan bu serfayz makon, xayr va barakalar koni, Muhammad Rahim podshohi g‘oziyning (uning qabri nurli bo‘lsin) o‘g‘li hazrati ulug‘ sulton va hurmatli hoqon Abulg‘oziy Allohquli Xorazmshoh (uning davlati mangu davom etsin) buyrug‘i bilan bino etildi. Sana 1250“. Madrasa peshtog‘i bo‘ylab P shaklida nihoyatda chiroyli va shuning bilan qiyin o‘qiladigan suls xati uslubidagi yozuvda Qur’oni Karimning Fath (g‘alaba) surasi yozilgan. Madrasaga Hunarmandchilik uyushmasi va folklor qo‘schiqchilik ansamlari joylashgan.

U qurirgan yana bir me’moriy obida Olloqulixon karvonsaroyi va timi hisoblanadi. Ushbu Xivadagi me’moriy yodgorlik 1832-1833-yillarda qurilgan. To‘g‘ri to‘rtburchak tarhli, burchaklariga guldasta — minoralar ishlangan. Karvonsaroya shimoliy va janubdagisi peshtoq orqali kiriladi. Uning keng hovlisi va hovli atrofidagi 2 qavatli hujralar bir xil hajmda 105 tani tashkil qiladi. Hujralar hovli sahniga qaratilgan. Burchaklaridagi 8 ta hujralar gumbazi baland qilib ishlangan, ular eshik tepasidagi tobodon panjaralari orqali yoritiladi. Tomi balxi gumbazli. Xovliga kiriladigan yo‘lak 2

tomondan peshtoq bilan chegaralangan. Peshtoq qanotlari ichida 2-qavatga olib chiqiladigan aylanma zinalar bor. Pastdagি xonalarda yuk saqlangan, yuqrriadigilaridan mehmonxona sifatida foydalanilgan. Karvonsaroyning tashqi va ichki tuzilishida o'ziga xos tomonlar bor. Masalan, shu tipdagи binolarda ichkariga maxsus xonalar orqali aylanib o'til-sa, bu yerda ichkariga yuklar bilan 2 gumbaz ostidan to'g'ri o'tish mumkin. Hovli o'rtasi otaravaga mol yuklashga qulaylashtirilgan. Tim karvonsaroyga nisbatan keyinroq qurilgan. Karvonsaroyning bosh tarsi tim qurilishida tamoman o'zgartirilgan. Pastki qavatda ravoqlar asosi mustahkamlangan, 24 ta hujraning 2-qavati butunlay buzilgan va tim gumbazlarini o'rnatish uchun moslashtirilgan. Tim tarxi —74x26,5 m, 2 ta katta gumbaz (markazida va g'arbida), 2 qatorli 12 ta mayda gumbazlar karvonsaroy oldidagi katta gumbazli xonaga kelib taqalgan, xuddi shunday gumbazli xona timning g'arbida ham bor. Tim ichkarisi gumbazlardagi tuynuklar orqali yoritilgan. Timda savdo rastalari joylashgan. Gumbazlarni qurishda ustalar binoga mos (to'rtburchak, chorsi, oltiqirrali shakllarda) qurilma asosini topa olganlar. Bir so'z bilan aytganda ushbu me'moriy obida o'z davrining o'ziga xos inshooti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Xiva xonligining mashhur hukmdolaridan biri Olloqulixon o'zining hukmronlik yillari davrida mamlakatda me'morchilikning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Ko'plab inshootlar qurdirdi. Ba'zi bir me'moriy obidalarni ta'mirlatdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Vaxitov M., Mirzayev Sh. Me'morchilik. I-qism.- T.: Tafakkur. 2010. - 366 b

### **INTERNET SAYTLARI:**

2. Uz.m.wikipedia.org
3. Meros.uz
4. Khivanuseum.uz
5. Hozir.org

# IJTIMOIY VA SIYOSIY FANLAR

## YALPI ICHKI MAHSULOT VA UNI HISOBBLASH TURLARI

**Sultanov Shoxjaxon Rahmon o'g'li**

*Namangan muhandislik texnologiya institute*

*menejent yo'nalishi talabasi*

**Komilxo'jayev Zoxidjon Shuxrat o'g'li**

*Namangan Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yalpi ichki mahsulot, uni hisoblashning ahamiyati va usullari, mahsulot qiymat ko'rsatkichlarini doimiy baholarda hisoblash usullari to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Yalpi ichki mahsulot(YaIM), eksport, import.*

**Annotation:** *This article discusses the gross domestic product, the importance and methods of its calculation, the methods of calculating the value of the product at constant prices.*

**Keywords:** *Gross domestic product, exports, imports.*

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – mamlakat iqtisodiy birliklari-rezidentlarining ma'lum davr ichida masalan, bir yildagi ish faoliyatining oxirgi natijasini ifdalovchi, iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozor bahosida hisoblangan qiymatari yig'indisidir. Unga mamlakatning iqtisodiy faolligi va farovonligi darajasini ifodalovchi umumiyl indikator sifatida qaraladi: u iqtisodiyotning tarkibi va rivojlanish darajasini, hukumatning iqtisodiy siyosatdagi yutuq yoki kamchiliklarini mamlakat va ayrim regionlar iqtisodiyoti holati va rivojlanish darajasini boshqa mamlakat va regionlar bilan solishtirish imkonini beradi. Iqtisodiy tahlilda yalpi ichki mahsulot barcha aholi, iqtisodiy faol va band aholi soni bilan, ishlab chiqarishda iste'mol qilingan resurslar, asosiy fondlar, investitsiyalar hajmi, ish haqqi fondi, har xil yo'nalishdagi davlat harajatlari boshqa harajatlar bilan solishtiriladi.

“Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish jarayonida, daromadlarni hosil qilish jarayonida va daromadlardan foydalanish jarayonida ko'rish mumkin.

Ishlab chiqarish jarayonida yalpi ichki masulot, rezidentlar tomonidan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shilgan qiymatni harakterlaydi.

Daromadlarni hosil qilish jarayonida yalpi ichki mahsulot, ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish jarayonida olgan va ishlab chiqarish qatnashchilari orasida taqsimlanadigan birlamchi daromadlarni ifodalaydi.

Daromadlardan foydalanish jarayonida yalpi ichki mahsulot, milliy iqtisodiyot sektorlari tomonidan oxirgi iste'mol va jamg'arish summalarini va tovar va xizmatlarning sof eksportini ta'minlaydi.”[1]

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib yalpi ichki mahsulotni uch usulda hisoblash mumkin:

1. Ishlab chiqarish usulida hisoblash.
2. Taqsimlash usulida hisoblash.
3. Oxirgi foydalanish usulida hisoblash.

Statistik ko'rsatkichda mahsulot qiymat ko'rsatkichlarini doimiy baholarda hisoblashning quyidagi uch asosiy turidan foydalaniladi:

1. To'g'ri qayta baholash usuli.
2. Deflyatorlash usuli.
3. Ekstropolyatsiya usuli.

Shu yerda ba'zi bir statistik ma'lumotlarga to'xtalsak. O'zbekistonda 2003-yilda amaldagi narxlarda 9964,1 mldr. so'mlik YalIM ishlab chiqarilgan. Uning 48,5 foizi tovarlar ishlab chiqarish (uning 15 foizi sanoatda, 28,8 foizi qishloq xo'jaligida, 4,5 foizi qurilishda) va 38,1 foizi xizmat ko'rsatish (uning 8,5 foizi transport va aloqada, 9,4 foizi savdo va umumiyligi ovqatlanishda, 20,2 foizi bozor va nobozor xizmatlarida) ga, 13,4 mahsulot va eksport-import operatsiyalari sofi soliqlariga to'g'ri keladi.

Yalpi ichki mahsulot hajmi mamlakatning iqtisodiy holati, aholi turmush darajasi, yillik iqtisodiy o'sish, mamlakatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga berilayotgan e'tibor haqida ma'lumot beradi. Bu ma'umotlardan kelasi yillik rejalarini aniqlab olishda foydalaniladi. Yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish uchun eng avvalo, mamlakat hududida ishsizlar sonini kamaytirish kerak, buning uchun esa ishab chiqarish korxonalari sonini oshirish lozim. Bundan tashqari "soya iqtisodiyoti" tomonidan ishlab chiqarilgan, rasmiy ro'yxatdan o'tmagan va milliy statistika va soliq xizmatlari tomonidan hisobga olinmydigan sanoat va faoliyat turlarini keskin kamaytirish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Yo'ldoshev N.Q. Savdo korxonasi iqtisodi. - T.: TDIU, 2005.
2. Jalolov J.J. va boshqalar. Korxona tashqi iqtisodiy faoliyati va marketing. - T.: Bilim, 2005.
3. A.O'lmasov Iqtisodiyot asoslari, T."Mehnat", 1997 y.

### INTERNET MA'LUMOTLARI:

1. [www.linux.uz](http://www.linux.uz)
2. [www.uz.wikipedia.org](http://www.uz.wikipedia.org)
3. [www.edu.ru](http://www.edu.ru)

ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШДА ТЕАТРНИНГ  
ЎРНИ.

А.Р.Мирзаев,

*Тошкент Давлат Юридик Университетининг  
Ихтисослаштирилган филиали ўқитувчиси*

**THE ROLE OF THE THEATER IN THE UPBRINGING OF YOUNG PEOPLE  
IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM.**

A.R.Mirzaev,

*Tashkent State Law University  
Specialized branch teacher*

**Annotation:** *In this article, the upbringing of young people in the spirit of military valorism will be considered, with an emphasis on their interest in music, painting, literature, theater and other types of art.*

**Keywords:** *Youth, Education, Theater, patriotism, art.*

In our country, students who think independently and freely, who have thoroughly mastered the achievements of modern science, their profession, pay special attention to the delivery of young people as qualified specialists.

In particular, measures are being taken to form a firm belief and view of young people in their profession, especially in the profile of potential violations, to educate them in the spirit of respect for national and universal values, to be able to resist harmful effects and currents, to increase their role and activity in the life of society.

In this regard, on March 19, 2019, under the chairmanship of the president of the Republic of Uzbekistan, the head of our state put forward five important initiatives for the establishment of works in the social, spiritual and educational spheres on the basis of a new system at the video-vector meeting on the issues of attracting attention to young people, attracting the younger generation.

The first initiative will serve to increase the interest of young people in music, painting, literature, theater and other types of art.

"Spirituality" is still a crisis, "meaning": verb olingan: Rukh, mind, ong, idok, nun, circumstances, Ichi, dadillik, jasrat, character, essence, nobility, nobility, kaigurish, cape verde neon view. Spirituality is the adamning spirit and intellect of the paradise world. Spirituality is a concept that embodies the inner life of a society, a nation or some individual, spiritual experiences, mental abilities, perception. Spirituality is the negation of the culture of Man and society, the main factor of a certain direction in the life of Man and society. Spirituality is a broad concept, it also covers the concepts of enlightenment and culture. When the great Alisher Navoi said "people of meaning", he meant a perfect man

who entered the path of truth. Enlightenment is knowledge, lore, enlightenment. Hence, spirituality is the spiritual world of man.

It is known that the role of culture and art, in particular the theater, in the formation of national pride, national pride in the hearts of our people, especially our young people, in educating them in the spirit of love for the Native Land, respect for universal values, commitment to the ideas of humanism is incomparable. Today, the president personally pays special attention to the development of culture and art in our country.

What is the theater? Theater is a Greek word, literally means "watch, I see". The most common definition can be as follows: theater is a kind of art that combines different directions, for example, literature, music, choreography, vocal, visual art, etc.

As long as there are necessary features of high spirituality in a person, our President Sh.M. As Mirziyoyev noted, "we should educate them ourselves, without giving our children to someone else's hands."

In conclusion, the visit serves to a certain extent as a comprehensive, including spiritual and Educational Staffing of our students who have chosen one of the most noble ways – to be an employee and military servant in the structures of protection of the beloved motherland and the right to protect the interests of our people.

#### **USED LITERATURE:**

1. Sh.M. Mirziyoyev" the work of intention Ulugh is also great, the future of life is light and Prosperity " Works 3-tom 2019 y.
2. Sh.M. PF-4947 "on the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan" Mirziyoyev dated 2017.
3. Methodical for educating young people in the military-patriotic spirit the guide. Tashkent-2018 year.

**ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИНИ ЖАМОАТЧИЛИК ЭКСПЕРТИЗАСИДАН  
ҮТКАЗИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Шаропова Эъзоза Туроп қизи,  
Юридик техникум талабаси**

**Аннотация:** мақолада қонун ҳужжатларини такомиллаштиришининг муҳим босқичи бўлган жамоатчилик экспертизаси ва унинг моҳиятиташлил этилган. Шунингдек, унда жамоатчилик муҳокамаси, фуқароларнинг жамоатчилик экспертизасидаги иштироки, жамоатчилик экспертизаси институтларининг ҳуқуқий асослари кўриб чиқилган. Қонун ҳужжатларини жамоатчилик экспертизасидан ўтказишни такомиллаштиришига оид хулосалар илгари сурилган.

**Калит сўзлар:** қонун ҳужжатлари, ҳуқуқий экспертиза, жамоатчилик экспертизаси, жамоатчилик муҳокамаси, жамоатчилик институтлари, жамоатчилик фикри, норма ижодкорлиги.

**ОСОБЕННОСТИ ПРОВЕДЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ  
НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ**

**Шаропова Эзоза Туроповна,  
студент юридического техникума**

**Аннотация:** В статье проанализирована общественная экспертиза и её сущность, являющееся важным этапом совершенствования законодательства. В нем также рассматривались вопросы общественного обсуждения, участия граждан в общественной экспертизе, правовые основы институтов общественной экспертизы. Сделаны выводы по совершенствованию законодательства в сфере общественной экспертизы.

**Ключевые слова:** законодательство, правовая экспертиза, общественная экспертиза, общественное обсуждение, общественные институты, общественное мнение, нормотворчество.

**PECULIAR PROPERTIES CONDUCTING PUBLIC EXAMINATION  
OF NORMATIVE-LEGAL ACTS**

**SHaropova Ezoza Turop qizi,  
State college of Law**

**Abstract:** This article analyzes public examination and its importance, which is an important step in improving legislation. It also addressed issues of public discussion, citizen participation in public examination, the legal foundations of public examination institutions.

*Conclusions were put forward on improving the conduct of public examination of legislative acts.*

**Keywords:** legislation, legal examination, public examination, public discussion, public institutions, public opinion, rule-making.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларни ҳуқукий жиҳатдан таъминлаш бугунги кундаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Зеро, амалга оширилаётган ислоҳотлар ва унинг самараси қонун ҳужжатларининг мукаммаллиги, ўзаро мувофиқлиги ва нуксонсиз ишлашига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августдаги “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5505-сон Фармони қабул қилингандиги, ушбу соҳадаги ишларнинг жадаллашишида муҳим қадам бўлди [1].

Мамлакатимизда амалга оширилиаётган демократик янгиланишлар, жамиятни модернизация қилиш, бозор муносабатларини янада ривожлантириш ва кишилар онгида ҳуқукий қадриятларни мустаҳкамлаш борасидаги ислоҳатлар, ҳеч шубҳасиз, ўзининг ижобий натижаларини бермоқда. Давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев 2017 йил 22 декабрда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида “халқ қонуннинг ягона манбай ва муаллифи бўлиши керак”, деб таъкидлаб ўтди [2, Б.2]. Ушбу мурожжат қонунижодкорлигижараёнини тақомиллаштиришда муҳим раҳбарий қоида ҳисобланади. Шу жиҳатдан олганда, қонун ижодкорлиги жараёнида жамоатчилик экспертизасидан фойдаланиш бугунги кун талабларига ҳар томонлама мос келади.

Қонун ҳужжатлари лойиҳаларининг жамоат экспертизаси деганда тайёрланаётган, кўриб чиқишига тавсия этилаётган ёки қабул қилиниши мўлжаланаётган норматив-ҳуқукий ҳужжат лойиҳасининг миллий манфаатлар, стратегик мақсадлар, амалга оширилаётган ижтимоий-иктисодий, сиёсий-ҳуқукий ислоҳотлар ва қонунчилик талабларига мувофиқлигини аниқлаш тушунилади.

Қонун лойиҳаларини жамоатчилик экспертизасидан ўтказишнинг муҳим бир шакли – жамоатчилик муҳокамаси бўлиб, “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонунга асосан, жамоатчилик муҳокамаси ижтимоий аҳамиятга молик масалаларни, шунингдек норматив-ҳуқукий ҳужжатлар, давлат органларининг бошқа қарорлар лойиҳаларини оммавий муҳокамадан ўтказиш ва ўрганишдан иборат.

Қонун лойиҳаларининг жамоат экспертизаси ҳақида ҳукуқшунос олимлар, амалиётчилар томонидан кўплаб фикрлар билдирилган. Жумладан, П.Рустамовнинг қайд этишича, қонун лойиҳаларининг жамоат экспертизасини амалга ошириш қонун ижодкорлиги жараёнига фуқаролар ва жамоатчилик томонидан таъсир кўрсатишнинг самарали усуllibаридан биридир [3, Б.139].

Ҳукуқшунос олим Д.В.Девятиннинг фикрича, жамоатчилик экспертизаси қонун лойиҳалари ёки бошқа ижтимоий муҳим масаланимутахассис-экспертлар, олимлар иштироқида ўрганиб, таҳлил этиш ва шу асосда ўз баҳосини бериш ҳамда тегишли хулоса тайёрлашни назарда тутади [4, С.52]. Профессор Х.Т. Одилқориевнинг таъкидлашича, жамоатчилик экспертизаси “Жамоатчилик иродасини, шу жумладан,

фуқаролик жамияти институтларининг мужассамлашган фикрини аниқлашга ҳамда уларни норматив-хуқуқий ҳужжатлар мазмунига сингдиришга хизмат қиласи [5, Б.28]. Кенг жамоатчилик иштирокидаги экспертиза ва муҳокамалар аҳолининг ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишга, ислоҳотлар жараёнига фуқароларнинг ижодий ташаббускорлик салоҳиятини жалб этишга имкон яратади.

Қонун ҳужжатлари лойиҳаларининг жамоатчилик экспертизаси жараёнларида билдирилган таклифлар ва мулоҳазалар пировардида қонун ҳужжатларининг такомиллашувига хизмат қиласи. Бу эса ўз навбатида фуқаролар ва фуқаролик жамиятиинститутлари ўртасидаги муносабатларнинг бирмунча уйғунлашувига олиб келади, шунингдек мамлакатни модернизациялаш ва жамиятни янгилаш бўйича белгиланган вазифаларни адо этишда ўзаро самарали муносабатларни таъминлайди. Шу туфайли ҳам қонун лойиҳаларининг жамоатчилик экспертизаси хуқуқ ижодкорлигининг зарурый талабига айланиб бормоқда.

Тадқиқотчи Б.Абдулаевнинг фикрича, “Жамоат экспертизасини олимлар, илмий муассасалар, нодавлат нотижорат ташкилотлар вакиллари ва айrim фуқаролар амалга оширишини ҳисобга олиб, мазкур экспертизани мустақил экспертиза деб эътироф этиш мумкин. Бу ҳол қонун лойиҳасидаги бирон-бир муаммо ёки камчиликни аниқлаш учун қўшимча имконият беради” [6, Б.24]. Унинг мустақиллиги шундаки, жамоат экспертизасини амалга оширувчи эксперталар фаолиятига у ёки бу тарзда аралашиш ёхуд таъсир кўрсатиш мумкин эмас, уларнинг экспертиза бўйича фикрлари холисона бўлиши ва ҳеч кимнинг нуқтаи назари билан боғлиқ бўлмаслиги керак.

Жамоатчилик экспертизаси давлат органларининг норматив-хуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш фаолияти самарадорлигини оширишда муҳим аҳамият касб этади. Бу борада фуқаролик жамияти институтлари турли бўғинларининг амалий таклифлари, олимлар, юқори малакали мутахассис ва эксперталарнинг илгари сурган хулоса ҳамда ғоялари ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Умуман айтганда, мамлакатда ижтимоий муносабатлар ривожланиб боргани сари уларни тартибга солувчи қонунчилик нормаларини ҳам такомиллаштириб бориш зарурати туғилади. Ижтимоий ҳаётни маълум тизимга солувчи, тарафларнинг хуқуқ ва мажбуриятларини адолатли ўрнатувчи қонун нормаларини яратишҳамда қабул қилиш, уларни ижрочиларга етказиш ва назорат қилиш қонун ижодкорларига катта масъулият юклайди.

Қонун лойиҳаларининг жамоатчилик экспертизасидан ўтказишнинг асосий мақсади, биринчи навбатда, қонун лойиҳаларини қабул қилишда фуқароларнинг манфаатларини ҳисобга олиш ва ҳимоя қилишдир. Жамоатчилик экспертизасининг муҳим аҳамияти шундаки, у аҳоли ва ҳокимиятнинг самарали ўзаро ҳамкорлигини таъминлайди.

Бунда, қонун лойиҳаларининг сифати, самарадорлиги, қонун ҳужжатларига мослиги, қабул қилишнинг мақсадга мувофиқлиги ва оқибатлари чукур таҳлил қилинади. Жамоатчилик экспертизасини ўтказиш аҳолининг республика даражасидаги ва минтақавий миқёсдаги қарорларни қабул қилиш жараённида иштирок

этишига ёрдам беради. Бу, ўз навбатида, жамоатчилик назорати ва қонун чиқариш жараёни самарадорлигини оширади.

Бугунги кунда фуқаролик жамияти институтларининг қонунлар ва бошқа норматив-хуқуқий ҳужжатлар бўйича жамоатчилик экспертизасини ўтказишида фаол иштирок этишига муайян сабаблар салбий таъсир қилаётганини ҳам кўрсатиб ўтиш мумкин. Хусусан, ҳозирги вақтгача жамоатчилик назоратининг ушбу шаклини амалга оширишнинг хуқуқий механизми тизимли тартибга солинмаган.

Бинобарин, жамиятни янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этиш шароитида мавжуд қонун ҳужжатларини танқидий нуқтаи-назардан кўриб чиқиш, уларга бугунги кун талабларидан келиб чиқсан ҳолда қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш, замон талабларига жавоб бермайдиган эски қонунларни бекор қилиш ва янгиларини яратиш зарурати вужудга келмоқда.

Шу жиҳатдан олганда, қонунчилик ҳужжатларини мукаммал, янги ижтимоий муносабатлар кўлами ва даражасига мос равишида қабул қилиш жараёнида жамоатчилик экспертизаси институти мухим аҳамият касб этади.

Бу борада, хорижий мамлакатларнинг жамоатчилик экспертизаси билан боғлиқ муносабатларни тартибга солувчи қонунчилиги ва тажрибасини қиёсий таҳлил қилиш ҳам ушбу соҳадаги хуқуқий асосларни такомиллаштиришида ижобий самара беради. Хусусан, Россия Федерациясининг тажрибасини ҳам диққатга сазовор. Хусусан, Россия Федерацииси Жамоат палатаси тўғрисида”ги Қонунига биноан Россия Федерацииси субъектлари қонунлари лойиҳалари ҳамда Россия Федерацииси ижро ҳокимияти органлари ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари норматив-хуқуқий ҳужжатларининг лойиҳаларини жамоатчилик экспертизасини ўтказади. Россия Федерал Мажлиси Давлат Думаси ва Жамоатчилик палатаси ўртасида тузилган келишувга асосан норматив – хуқуқий ҳужжат лойиҳалари мазкур палата томонидан экспертизадан ўтказилади[7, С.31]. Бундан ташқари Россия Федерацииси хукумати қошида қонун лойиҳаларини жамоатчилик экспертизасидан ўтказиш бўйича “Очиқ хукумат” тизими ҳам жорий этилган. Мазкур тизим асосида сайтдан расмий рўйхатдан ўтган эксперталар (буғунги кунда жами 1000 дан ортиқни ташкил этади) норматив – хуқуқий ҳужжат лойиҳалари бўйича ўзфир – мулоҳазаларини билдиришлари, тегишли моддалар бўйича ўз варианtlарни таклиф қилишлари ва тавсияларни қолдиришлари мумкин[8, С.2].

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, жамият ва давлат манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини белгилайдиган норматив-хуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва шу орқали миллий қонунчилигимизни янада такомиллаштириш жараёнида қонун лойиҳаларини жамоатчилик экспертизасидан ўтказиш масаласи устувор вазифа ҳисобланади. Шунга боғлиқ ҳолда, қонунчилигимизга қонун лойиҳаларининг жамоатчилик экспертизаси билан боғлиқ нормаларни киритиш ва уларда жамоатчилик экспертизаси тушунчаси, жамоатчилик экспертизаси мақсадлари, жамоатчилик экспертиза шакллари ва принциплари, жамоатчилик экспертизаси

ўтказувчи субъектлар ва уларнинг хуқуқ ва мажбуриятлари каби масалаларни кўзда тутиш мақсадга мувофиқдир.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августдаги “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ти ПФ-5505-сон Фармони // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.08.2018 й., 06/18/5505/1639-сон.
2. Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга тақдим этган Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь.
3. Рустамов П. Актуальные вопросы и принципы осуществления общественной экспертизы законопроектов // Қонунчилик хужжатларини экспертиза қилиш муаммолари. Илмий-амалий семинар материаллари. – Тошкент, 2005. –Б.139.
4. Девятин Д. В. Общественная экспертиза как форма гражданского контроля над деятельностью власти // Управленец. 2013. – № 2 (42).–С.52.
5. Одилқориев Х.Т. Қонун ижодкорлиги – хуқуқий сиёсатни ифодалаш воситаси // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ахборотномаси. 2015. – №26. –Б.28.
6. Абдуллаев Б.Д. Ўзбекистон Республикасида қонун хужжатлари хуқуқий экспертизасини такомиллаштириш муаммолари.: юрид. фан. номз... дисс. автореф. – Т.: ТДЮИ, 2010. –Б.24.
7. Гриб В.В. Общественная экспертиза – ведущее направление деятельности Общественной палаты Российской Федерации // Юридический мир. 2009. – № 5. – С.31–39.
8. Скурко Е.В. К проблеме становления институтов общественной экспертизы в законотворчестве в Российской Федерации // Российская юстиция. 2010. №2. –С.2-5.

**АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ХАРАЖАТЛАР ВА ДАРОМАДЛАР  
ХИСОБИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ. ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ**

**Хотамов Комилжон**  
*Проф.*  
**Ялгашов Элбек**  
*VN-1K магистранти*

Мамлакатимизда барқарор ва самарали иқтисодиётни шакллантириш борасида амалга ошириб келинаётган ислоҳотлар бугунги кунда ўзининг натижаларини намоён этмоқда. Ўзбекистоннинг халқаро иқтисодий майдондаги нуфузи ва мавқеи сезиларли даражада ва мунтазам ошиб бормоқда.

Бугунги кунда иқтисодиётимизга бозор элементлари ва халқаро тажрибаларнинг тадбиқ этилиб борилиши, барча хўжалик тармоқларини модернизациялаш негизида, уларни ахборот таъминотининг асоси бўлган бухгалтерия ахбороти билан таъминлаш асносида уларнинг даромадлар ва харажатлари ҳисобини назорат қилиш янада муҳимдир. Айнан, акциядорлик жамиятларида даромадлар ва харажатлари ҳисобини назорат қилиш долзарб вазифалардан ҳисобланади.

Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020-йил Олий Мажлисга Мурожаатномасида (29.12.2020) “Қадрли халқ вакиллари”рига қарата айтган гапларини ёдга олсак. “иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга оширишда давлат компанияларини трансформация қилишни жадаллаштириш керак”.<sup>2</sup> Ҳозирги вақтда давлат иштирокидаги корхоналарнинг аксарияти давлатга оғир юк бўлиб қолмоқда, бунинг сабаби эса улар молиявий барқарор бўлмаганлигидadir. Шунинг учун жорий йилдан барча давлат корхоналарини ислоҳ қилиш дастури амалга оширилмоқда. Жумладан, жорий йилда Навоий кон-металлургия комбинати, “Ўзбекнефтгаз”, “Ўзбекгидроэнерго”, “Ўзавтосаноат” акциядорлик жамиятлари халқаро молия бозорига чиқиб, давлат кафолатисиз маблағ жалб қилиш имкониятига эга бўлиши режалаштирилган. Бунинг эвазига нимага эришишимиз мумкин деган савол пайдо бўлиши таъбий, бу орқали акциядорлик жамиятларида давлатт улушини камайтириб уларда инвеститсион фаолиятни яратишдан иборатdir.

Хеч иккilanмай айтишимиз мумкинки акциядорлик жамиятларида бундай муоммоларни пайдо бўлганда уларнинг харажатларини ва дароматларини ҳисобини назорат қилиш керак бўлади ва шуни асносида уларнинг бухгалтерия ҳисобини янада такомиллаштириш керак бўлади. Бунинг учун малкалий кадирларни жалб қилиш керак бўлади.

Тан олиш керак, мутахассисларнинг билим ва малака жихатдан йирик корхоналарнинг мустақил трансформация қилиш учун техник имкониятлари етарли даражада эмас. Шунинг учун электр энергетикаси, нефть-газ ва кимё саноати,

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси ([president.uz](http://president.uz)) 29.12.2020 й.

машинасозлиқдаги йирик корхоналарга хориждаги етакчи корхоналадан малакали кадирларни жалб қиилган холда трансформация ишлари амалга ошириши режалаштирилған. Жорий йилда стратегик аҳамиятта эга бўлган 32 та йирик корхона ва тармоқни трансформация қилиш ишлари амалга оширилиши режалаштирилған. Булар орасида йирик акциядорлик жамиятлари хам борлиги этиборга моликдур.

Юқоридагилардан келиб чиқиб шуни эътироф этиш жоизки, эндиликда республикамиизда фаолият юритаётган акциядорлик жамиятларининг иқтисодий ҳолатини яхшилашга қаратилған комплекс чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилиб, ҳаётга тадбиқ этилмоқда. Ушбу дастурда белгиланган вазифаларни тўлиқ бажариш ва акциядорлик жамиятларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш учун уларнинг харажатлари ва даромадлари ҳисобини тўгри ташкил этиш ва уни назорат қилиш керак бўлади. Бу эса акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисобни ташкил этиш, молиявий ҳисботлар тузиш ва уларни тақдим этишининг концептуал асосларини услубий жиҳатдан янгилаш, молиявий ҳисоб тизимида хам ўзига яраша муаммолар мавжуд эканлигидан далолатdir.

Хар қандай хўжалик юрутувчи субект ўз фаолиятиниг асоси фойда олишга қаратилған ҳисобланади. Шундай экан акциядорлик жамиятларида хам файдага чиқиши ёки чиқмаслиги кўп жиҳатдан уларда олиб борилаётдан бухгалтерия ҳисобидаги харажатлар ва даромадлрнинг тўғри шакиллантирилаётганлигига боғлиқ ҳисобланади.

Даромад ва харажатлар даражаси фойда ва заарни баҳолашнинг асосидир, улар сотиш ҳажми, маҳсулот нархи, хизматлар, товарлар ва харажатлар билан белгиланадиган сотиш рентабеллиги кўрсаткичлари ҳисобланади. Маҳсулот турларини оптималлаштириш, маркетинг тадқиқотлари, нархларни белгилаш ва харажатларни бошқариш каби фаолиятларни амалга оширишда масъулият марказларини ташкил этиш билан хам амалга оширилади.

Ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари корхонанинг барча пул харажатларида асосий ўринни егаллайди, асосий воситаларни (амортизация, хом ашё, материаллар, ёқилғи, енергия, меҳнат, корхона ходимларининг иш ҳақи ва бошқалар) ишлатиш билан боғлиқ харажатларнинг пул ифодасидан иборат. Бундан ташқари, корхоналар маҳсулотни сотишда муайян харажатларни амалга оширишлари керак: контейнер ва қадоқлаш қиймати, маҳсулотни ташиш харажатлари, савдо органларига ажратмалар ва бошқалар.

Корхонада ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархига киритиладиган ва киритилмайдиган ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларини таснифлаш, ҳисобга олиш, бошқариш ва режалаштириш керак бўлади.

Ҳар қандай маҳсулотни ишлаб чиқариш (бозорга таклиф қилиш учун мўлжалланган) муайян иқтисодий ресурсларнинг нархини, уларнинг оптимал танловини талаб қиласи. Харажатлар даражаси бозорда рақобатни шакиллантиришга ва даромадни оширишда енг муҳим омил ҳисобланади. Худди шундай экан акциядорлик жамиятларида хам харажатларни тўғри шакиллантириш асносида унинг фойда ёки зарар билан чиқишини кўришимиз мумкин. Акциядорлик жамияти қандай

фаолият тури билан шуғулланишидан қаттий назар унинг, хоҳ у ишлаб чиқариш хоҳ хизмат кўрсатиш билан шуғуллансан барибир унинг харажатлар ва даромадларини хисобга олиш тизимини янгилаш ва янгиланишнинг амалдаги қонун хужжатларига мослигини назорат қилиш керак.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси \(president.uz\)](#) 29.12.2020 й
2. Даромадлар ва харажадлар ҳисоби хақида тахлилий услумиёти (автотранспорт корхоналари мисолида) [Матн]/М.Б.Колонов.-Тошкент: Akademnashr, 2019.-352 б.
3. [2020 йил якуни бўйича давлат бюджетининг даромад ва харажатлари ... - UzNews.uz](#)
4. LEX.UZ ЎРҚ-370-сон 06.05.2014
5. **Диссертация. Акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоб ва хисботни такомиллаштириш йўллари. ХОЛИҚОВ С. Х. 2014 й.**
6. [t.me/xushnudbek](#)
7. [Доходы и расходы организации \(topknowledge.ru\)](#)

## TAFSIRSHUNOSLIK VA UNING USULLARI

**Habibullayeva Halima Farxod qizi***O'zbekiston xalqarom akademiyasi**Islomshunoslik fakulteti 3-bosqich talabasi*

Islom dinining asosiy kitobi bo'lmish Qur'oni Karimni o'rganishga, uning ma'nolarini, maqsadlarini tushunishga asosan musulmonlar hamda boshqa din vakillari tarafidan asrlar davomida harakat qilib kelinmoqda. Musulmon o'lkalarining turli mintaqalaridan Qur'onning mazmun-mohiyatini sharhlagan ya'ni tafsir ilmi bilan shug'ullangan ko'plab ulamolar, ilm ahllari yetishib chiqdi. Ilk islom davrida, yigirma uch yil mobaynida Payg'ambar Muhammad alayhissalomga nozil bo'lgan Qur'oni dastlab o'zlari tafsir qilib, sharhlab bergenlar. Ulardan so'ng sahabalar, tobeinlar va din olimlari bu ishni davom ettirdilar. Bu orada tafsir ilmi rivojlanib, bir qancha usullari, yo'nalishlari vujudga keldi. Dastavval, ushbu maqolada tafsirshunoslik, so'ng bu bilan bog'liq bo'lgan ilmlar hamda tafsir qilish usullari tahlil qilinadi.

*Tafsir* so'zi arab tilida *fasara* so'zidan olingan bo'lib, *fasara* bayon qilish, yoritish, ochish, sharplash, *tafsir esa*, yopiq narsani ochish, mushkul lafz maqsadini yoritish kabi ma'nolarni beradi. Shundan kelib chiqib, mufassir so'zi Qur'on oyatlarini sharhlovchi mazmunini ifoda etadi.<sup>3</sup> Shubha yo'qki, inson bu narsalarni o'z bilimi, toqati, fahmi doirasida tushunadi. Shu bilan birga tafsir qiluvchi olim o'zining maqsadlaridan kelib chiqib, Qur'oni turli mazmundagi oyatlarini o'zlari e'tibor qilgan yo'nalishda tafsir qiladi.

Tafsir qilishning ikki asosiy turi bo'lib: *at-tafsir bil ma'sur* va *at-tafsir bir ra'y*dir. Tafsirshunoslikning ushbu ikki turi qanday yo'l bilan, nimalarga asoslanib tafsir qilishga bog'liq bo'lib, *at-tafsir bil-ma'sur* yani, naql qilingan rivoyatlar bilan oyatlarni sharhlash asosan boshqa oyatlarda ushbu oyatning ma'nosini izohlab kelganlari bilan, Muhammad alayhissalomning so'zlari, sahabalar va tobeinlarning qavllariga suyangan holatda sharplashdir. At-tafsir bil-ra'y esa, shariat doirasidan chiqmagan holatda, arab tili qoidalariga rioya qilib mufassir o'zining bor imkoniyatini va aqliy faoliyatini Allah taolonning Qur'ondan maqsadini ohib berishga harakat qilishidir.<sup>4</sup>

Qur'oni Karim ma'nolari ham keng va turli xil bo'lib, mufassirlar o'zlari uchun biror yo'nalishni asos qilgan holatda oyatlarni tafsir qilishgan va bu usullarni ushbu to'rt qisimga taqsimlab o'rganishgan:

1. *Tahliliy*
2. *Ijmoliy*
3. *Muqorin*
4. *Mavzuiy*.<sup>5</sup>

<sup>3</sup> Тафсир илмига кириш. Махсудов Д.Р. – Т.: «Qaqnus» нашриёти, 2019. В-4.

<sup>4</sup> Web-sahifa. Mawdoo3.com. Bahsun an ilm at-tafsir

<sup>5</sup> Tafsir uslublari. Maxsudov D.R. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. – Т.: “...” nashriyoti, 2020. B - 28

Ushbu usullarning birinchisi *tahliliy* tafsir qilishda oyatlarning ketma-ketligiga e'tibor qilinadi.<sup>6</sup> Tahliliy tafsir boshqalaridan ko'ra ustunrog'i va muqaddamrog'i sanaladi. Abdulloh ibn Mas'ud bu borada aytadi: "Bizdan kim o'n oyatni o'rgansa, ularning ma'nolarini anglab, amal qilmagunicha keyingisiga o'tmas edi". Tobeinlar ham xudi shu tarzda sahobalardan qabul qilib olganlar. Mashhur mufassir tobeinlardan Mujohid aytadi: "Qur'oni Ibn Abbosdan uch bora Fotihadan oxirigacha o'tkazganman. Shunda har bir oyatda to'xtalar va so'rар edim".<sup>7</sup>

Tafsir qilishning ikkinchi uslubi ijmoliy tafsir bo'lib, bu usulda oyatlarning kalimalarini sharhlarga alohida-alohida to'xtalib o'tirilmaydi, balki bir yoki bir necha oyatlarga umumiy izoh beriladi. Bu usulda tafsir qiluvchi mufassirning maqsadi asosan oyatning ma'nosini umumiy sharhlashga va eng qisqa yo'l bilan yetkazishdir. Tafsir qilish davomida ham eng ko'p ishlatiladigan, barcha tushunadigan so'zlarni iboralarni ishlatilishi ham bu usulning o'ziga xosligi hisoblanadi.

Uchinchi usul muqorin tafsirlar bo'lib, bu yo'l bilan tafsir qilinganda faqat bir manba yoki dalilga suyanib emas, tafsir qilish asnosida shu oyat bilan bo'g'liq bo'lgan boshqa oyatlar, Payg'ambar alayhissalom so'zlari, sahoba va tobeinlar qavllari, mufassirlarning fikrlari ham keltirilib, ularni o'zaro taqqoslab, qaysi fikr ustun ekanligi, quvvatliligin ochib beriladi.

Mavzuiy tafsirshunoslik keng qamrovli bo'lib, mufassir turli mavzularda, turli yo'nalishlarda tafsir qilishi, Qur'oni Karimning xohlagan bir mavzusini ochib berishi, sharhushi mumkin. Mavzuiy tafsirlarning ba'zi turlarini quyida ko'rib chiqamiz. Oyatlarni filologik jihatdan tafsir qilishning uch turi mavjud: lug'aviy tafsir, balog'iy tafsir va nahviy tafsirlar. Fiqhiy tafsir uslublarining to'rt turi bo'lib, ular ahli sunna val jamoaga kiruvchi to'rt fiqhiy mazhablarining istinboti asosida tafsir qilinadi. Ular hanafiy, shofeiy, molikiy, hanbaliy mazhablarining ahkomil Qur'on turkimida qilingan tafsirlaridir. Ishoriy tafsir qilish mufassirga faqat ko'rinish turgan zohiriy manolarni emas, balkiba'zi insonlargagini ma'lum bo'ladigan oyatlarning ichki ma'nosiga e'tiborini qaratadi.

Xulosa qilib aytganda, musulmonlarning muqaddas kitobini tadqiqotchi va olimlar tomonidan o'rganishga bo'lgan intilish ko'pligidan tafsirlarda turli yo'nalish va sohalar paydo bo'ldi. Bunday tadqiq etish ham soha vakillari oldida turgan vazifalardandir.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Тафсир илмига кириш. Махсудов Д.Р. – Т.: «Qaqnus» нашриёти, 2019. В-4.
2. Tafsir uslublari. Maxsudov D.R. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. – Т.: “...” nashriyoti, 2020. B - 28
3. Wansbrough J. Quranic Studies: Sources and Methods of Scriptural Interpretation. – Oxford, 1977.
4. Web-sahifa. [www.http://hadis.uz](http://hadis.uz)

<sup>6</sup> Wansbrough J. Quranic Studies: Sources and Methods of Scriptural Interpretation. – Oxford, 1977.

<sup>7</sup> [www.http://hadis.uz](http://hadis.uz)

5. Web-sahifa. Mawdoo3.com. Bahsun an ilm at-tafsir.

## **MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI.**

**Qodirova Gulshan**  
*Termiz Davlat Universiteti*  
*Talabasi*

**Annotations:** *Ushbu maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib xizmat qilishi, millatlarning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab olgan qadriyatlarning bir-biri bilan bevosita bog'liqligi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qadriyat, ijobiy, salbiy, umumbashariy, umuminsoniy, moddiy, ma'naviy, axloqiy tushuncha.*

Qadriyat tushunchasi inson uchun “qadrli” bo‘lgan narsalar, voqealar, hodisalar, holatlar, jarayonlar, sifatlar va boshqalarni ijtimoiy ahvolni ifodalash uchun ishlataladigan falsafiy-eksiologik tushunchadir. K.Nazarovning ta'rificha , qadriyat biror bir tarzda va shaklda zohir bo‘ladigan, subyekt uchun muayyan ta’sirni namoyon qiladigan vogelikning turli-tuman shakllari, ko‘rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalagan umumuy falsafiy–eksiologik kategoriadir.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmuasi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Ammo qadriyatlarning ahamiyati doimo bir xil bo‘lavermaydi, ijobiy va salbiy qirralar, turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qaramaqarshi tomonlarini tashkil qiladi. Ikkinchidan qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, taraqqiyot zaruriyatiga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog‘onasiga chiqib oladi. Masalan, yurtni yov bosganda – ozodlik, bosqinchilik hukmronligi davrida – istiqlol, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, bemorlikda – sihat salomatlik asosiy qadriyatga aylandi.

Moddiy va ma'naviy, umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlardan tashqari, millat va elat yashashi va ravnaqini aks ettiruvchi milliy qadriyatlar ham mavjuddir. Milliy qadriyatlar ayrim xalq, millat va elatlarning o‘z tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning mahsuli hamdir. Moddiy va ma'naviy, ijtimoiy – siyosiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning omili bo‘lgan insonning o‘zi dunyoda eng oliy qadriyatdir. Insonning qadriyatdor ekanligi uning dastavval o‘z- o‘zida va jamiyatning insonga bo‘lgan axloqiy munosabatini aks ettiradi. Qadriyatlar insonlar o‘rtasida o‘zar munosabatda va shaxsning o‘z xulqini tartibga solishda katta ahamiyatga ega.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatidan chuqur va keng bo‘lib, uni o‘z ichiga oladi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi. Jamiatning yashashi uchun umuminsoniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular kishilarga hayotning mazmunini chuqurroq tushunish, jamiat qonun-qoidalaridan ijobiy foydalanish, o‘zlarining xatti-xarakatlarini ana shu ma’naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi; inson bilan tabiat, inson bilan inson munosabatlarini aks ettiradi, jamiat rivojlanishi jarayonida takomillashib boradi; o‘z tabiatiga ko‘ra biror bir kerakli axborot beradi, kishining ma’naviy olamini boyitadi, yashashning haqiqiy mezonlarini belgilaydi, odamlar intiladigan ideal, azaliy orzu, ezgu-maqsad sifatida namoyon bo‘lishi ham mumkin.

Muayyan kishilar, guruhlar tomonidan noto‘g‘ri tushunilishi, talqin qilinishi, qabul qilinmasligi, rad qilinishi, tanqid ostiga olinishi, ta’qiqlab qo‘yilishi ham mumkin. Ammo bu ularning qadri yoki ahamiyatini butunlay yo‘qotib yubora olmaydi. Ular zamin va zamon “silsilalari” orasidan o‘tishga yo‘l ochadilar va asrlardan o‘tib insoniyat uchun muayyan qadrlarni namoyon qilib boraveradilar; kishilarning ma’naviyati, yashash usuli, turmush tarzi, xatti-harakatlari, ijtimoiy faoliyatning asosiy mezonlari darajasiga ko‘tarilganlarida o‘z ahamiyatlarini to‘la-to‘kis nomoyon qilishlari uchun imkoniyat beradi; ularning qadri va jamiat uchun ahamiyatini moddiylik qonuniyatlarini orqali izohlash, bahosini esa moddiy foydasi bilan ifodalash qiyin. Bu baho vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi, yangicha izohlanishi va ifodalaniishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «Yangi asr avlodni», 2001.
2. Alimova D. Insoniyat tarixi - g’oya va mafkuralar tarixidir. T.: «Yangi asr avlodni», 2001.
3. Amir Temur jahon tarixida. YuNESKO. Parij, 1996.
4. Abdurahimova N., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. T.: «Akademiya», 2002.
5. B.Boyqobilov. «O’zbeknoma». T.: ««SHarq»», 1999.
6. Boboev G’. G’ofurov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. T.: «Yangi asr avlodni», 2001.

**KARANTIN VA UNING FOYDALARI,KARANTINNI MUSULMON QANDAY  
O'TKAZISHI LOZIM**

**Karimov Muhammadamin**

*O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi,  
Islamshunoslik yo'nalishi III-kurs 104-guruh  
talabasi*

Yurtimizga 16-mart kunidan boshlab butun dunyoda kechayotgan COVID-19 pandemiyasi yurtimizga ham kirib keldi va butun O'zbekiston karantin holatiga o'tkazildi.Xossatan,o'qishlar Oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlari ham online rejimga o'tkazildi.Insonlar oqish va oila tashvishlariga ko'proq vaqtligini ajratishdi karantin vaqtida.Talabalar ozlarining vaqtlarini foydali va maroqli o'tkazish maqsadida kunlarini ma'lum reja asosida olib borishmoqda.Quyosh chiqmasdan avval tonngi ibodatlarni bajarib bolib hamma o'z vazifalarini bajarishga kirishadi.Talabalar esa avvalo kunni ibodat va Qur'on tilovati bilan boshlashadi. Keyin kunlik ta'lim vazifalarini bajarib biroz dam olish maqsadida stol ustida turgan biror bir ilmiy yoki badiiy asar mutolaasiga kirishiladi.Hozirgi kunga kelib yuritimizda nashr etilgan kitoblardan tashqari,chet eldag'i qo'lyozma manbalarni ham olib kelishyapti va shu bilan bir qatorda ko'pchilik kitoblarning elektron yoki audio shakllari ham ancha ommaviylashib qoldi.Elektron kitoblarni asl manbalarni topishdan ko'ra tezroq topishning iloji borligi tufayli ko'pchilik elektron kitoblarni afzal ko'rishadi.Elektron kitoblarni ham til bilish darajasiga qarab yoki qaysi tilni bilishiga qarab misol uchun ingliz,arab,nemis yoki xitoy tillaridagi alohida ajaratilgan joylar bor.Ba'zi kutubxonalar mutaxasislik fanlari bo'yicha ajratib chiqishgan .Misol uchun Iskandariya Kutubxonasi va boshqalar. Kitob o'qish ham talabaning miyasini ham ancha tetiklashtiradi.Biroz kitob mutoalasidan tashqari uy ishlariga biroz yordamlashish ham miyani ishslash faoliyatini yaxshilaydi va turli xil kasalliklar bo'lishining oldi olinadi.Talaba miyasini biroz dam oldirib olgandan keyin o'qish mashg'ulotlari va ma'ruzalar ni tinglab seminar mashg'ulotlari uchun tayyorgarlikko'rishni boshlaydi.Buning uchun ham ko'plab qo'shimcha manbalar qarab chiqishga tog'ri keladi.Misol uchun Qur'onshunoslik fanidan foydalilaniladigan manbalar qatoriga Qur'onshunoslik, Qur'on ilmlari,Qur'on va Tartil ilmlari,Al-itqon fi Ulumil Qur'on, Mabhas Fi Ulumil Qur'on va boshqalarni aytib o'tish mumkin.Hadisshunoslikdan Hadisshunoslik , Hadis ilmlari, Hadis ilmlarini qiyosiy organish,Taysiyr ulmustalahul Hadiys, Mustalahul Hadiys, Hadis istilohlari va boshqa kitoblar mavjud.Bundan tashqari Aqida,Tafsir va boshqa fanlar bo'yicha ham ko'plab manbalarga murojaat qilishga tog'ri keladi.Va Talabalar ham karantin paytidan unumli foydalangan holda mutaxassisligiga oid ko'plab adabiyot va manbaalarni o'qib chiqishdi.Karantinni boshqa bir foydalaridan biri insonlar shukr ne'matining qadriga yetishni o'rganishdi.Insonlar orasida kamayib ketayotgan shukr ne'matini qadriga yetishni Alloh Taolo yana bir bor insonga eslatib o'tdi. Ne'matlarga shukr qilish haqida Qur'oni Karimning Nahl surasi 114oyatida quyidagicha zikr qilgan:

﴿فَلَمَّا مَرَأُوكُمُ اللَّهَ حَلَالًا طَيْبًا وَاسْكُرُوا نِعْمَتَ اللَّهِ إِنْ كُنْتُمْ إِيَّاهُ تَعْبُدُونَ﴾

**“Bas,Alloh sizga rizq qilib bergen narsalaridan halol-pok holda yeng .Va agar unga ibodat qiladigan bo’lsangiz ,Allohnинг ne’matiga shukr qiling”**

Bu oyatdan ko’rinib turibdiku Alloh bizga juda ko’plab ne’matlar bergen va biz ularga shukr qilishimiz kerakligi aytib o’tilyapti.Shukr kamaygan paytlarda insonlarga turli xil kasalliklar yuborilib ularni Alloh siaydi va buham inson zotiga berilgan narsalarning qadriga yetsihga chaqiradi. Avvallari hamma xohlagandek kiyinar yurar edi,butun dunyoda beboshliklar hukm surar edi. Allohnинг ne’matlariga shukr qilish haqida ko’pchilik o’ylamas edi.Musulmon bo’lmagan insonlar musulmonlarning hijobva shunga o’xshash tanani berkitib turuvchi liboslarni yomon ko’rishar ,hatto ba’zi bir o’rinlarda ularni kamsitishar ham edi..Lekin pandameiya boshlangandan keyin usti boshni turli xil kasalliklardan himoya uchun o’rshning inson tadiriga foydalalari yana bir bor ma’lum bo’lib qoldi va bu narsa xalqaro hamjiyat o’rtasida qo’llanishiga ham olib keldi.Hamma ozodalikka chaqira boshladi. Niqob taqishga yuzni o’rashga hatto hijob va shu kabilarni yopishga davlat rahbarlari tavsiyalar bera boshladi.Amerika Qo’shma Shtatlari prezidenti Donald Trump o’zining bir nutqida “Bilasizmi siz ro’mol o’rashingiz mumkin siz ham ro’mol o’rang.Ro’mol juda yaxshi narsa.Agar odamlar shunday qilishni xohlasa buning hech qanday zarar jihatni yo’q.Maslahatim istasangiz siz ham ro’mol o’rayvering”.Bu Amerika prezidenti nutqidan olingan kichik matn edi. Ya’ni u ham hijob,ro’mol o’rashg qarshi emasligini balik uni o’rashga maslahat berayotganini ko’ryapmiz.Butun dunyodagi boshqa mamlakatlar ham yuzni berkitib yurish haqida qat’iy qarorlar chiqarishdi.Misol uchun Avstriya yuzni o’rab yurish haqida qat’iy qaror chiqardivabunday qilmaganligi uchun jazo choralar ham joriy qilindi.Va butun dunyo tinmasdan qo’l yuvishni takidlashyapti. Bu ham Musulmon olamidagi tahorat kabilarga e’tibor berishning ahamiyatini ko’tarib yubordi. Talabalar ham o’z o’qish joylarining,bolalar maktab , bog’chalarning eng muhim inson shukr qilish va sog’likning qadriga yetishdi.Va oxir oqibatda hayotimizda muhim bo’lgan narsalarning qiyinchilik paytida qadriga yetishimizni vabu kabi narsalar Allohnинг bizga bergen rahmati ekanligini yana bir bor tushunib oldik .Allohim bu dardni bizning yurtimizdan va butun olamdan tezroq ko’tarishini so’rab duo qilamiz.

## DEVELOPING A SENSE OF PATRIOTISM IN YOUNG PEOPLE

F.A.Dosumxodjaev,

*Tashkent State Law University Specialized branch,  
Teacher*

**Annotation:** *The article considers the development of a sense of patriotism, the formation of patriotic culture, skills and experience, the education of the system of values in the direction of patriotism, historical approach, continuity, state-patriotism and humanism-professional orientation.*

The essence of patriotism can be expressed in a general form, simply put, patriotism is devotion, glory and love for the Motherland. Patriotism is inseparability from one's homeland, first of all, inseparability from spiritual relations with it. Patriotism is active, selfless, service to the Fatherland, the highest manifestation of which is protection from enemies with weapons in his hands.

We all say, "Our homeland is Uzbekistan," and tell the world that there is a country called Uzbekistan, that there were great people who shook the world, and that there are now and there will be such people in the future.

The answers to the questions of who a patriotic person is, how he should be, what he should do to be a patriot can vary.

A patriot is a man who wears a military uniform and carries a weapon, a man who works in the fields with a hoe on his shoulder, a man who reads books day and night, a man who digs coal more than a hundred meters deep, a man who works to develop the country's economy. It is possible to count some of the entrepreneurs who created their jobs and made a name for themselves on the world market with the mark "Made in Uzbekistan".

I think that these people can consider themselves patriots if, in addition to who some of the other and other professionals mentioned above are, they make their contribution to the future and development of this Motherland, even if it is a mecca. An example can be given as an answer to one of these questions. After World War II, we know that Japan was in a very difficult economic and political situation. At that time, the people of the country, even though they were starving and naked, brought their belongings (money, valuables, etc.) to the government.

The leadership of the state united the people and led them to work for the prosperity of the Motherland, and all looked to the future with confidence. The state came out of the crisis mainly because of this and has come to this day by creating the country of today's Japan.

The upbringing of patriotism certainly begins with the family, because the family is also a small country. Just as the development of a country depends on its leader and its people, so does the family. There is a saying among the people that if a child does a good deed, he is encouraged to thank his parents.

This means that the environment in the family where this child is brought up is in demand, and the parents have been able to guide their children in the right direction. If

every parent can gather his children every day and encourage them to love the Motherland for ten to fifteen minutes, to serve the Motherland sincerely, to continue the glorious deeds of our ancestors, the children who grew up in this family will grow up to be true patriots.

If a child hears and understands some of our shortcomings in economic development at school, on the street, and among friends, then parents can explain to him that these conditions are temporary, that these defects will soon disappear completely, this is the future success of the family and children.<sup>8</sup>

In view of the above, we must not forget our traditions, values and history of the Uzbek nation and people, but also develop them, to raise the level of patriotic education not only among young people, but at all levels of our countrymen.

#### USED LITERATURE:

1. Sh.M. Mirziyoyev" the work of intention Ulugh is also great, the future of life is light and Prosperity " Works 3-tom 2019 y.
2. I.A. Karimov's"high spirituality is the most indestructible power". - T.: "Spirituality", 2008 y.
3. Sh.M. PF-4947 "on the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan" Mirziyoev dated 2017.

---

<sup>8</sup> <https://papers.econferenceglobe.com/index.php/ecg/article/view/399>